



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

"Filologiya va pedagogika"
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrda
364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
7 (11)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

Shivirlaydi betinim
daryo

4
bet

"Me'yor ul - ash'or"
risolasida aruzga doir
ritmik birliklarning
berilishi

8
bet

Код-свитчинг
в современной
узбекской
коммуникации

34
bet

Rauf Muzaffarzoda
maqolalarida madaniyat
va ma'rifat, ta'lim-tarbiya
mavzularining yoritilishi

92
bet



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2025-yil
7 (11)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:

Emma Torosyan

Shaxina Muxamedjanova

Nargiza Sotvoldiyeva

Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI

Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri

Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefon: (55) 510-28-44,

(77) 358-57-67

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 25.07.2025 da
nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TAHRIR HAY'ATI:

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzievskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

*filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Ranusha Atayeva

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti
katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

G'ayrat Majid. Shivrilyaydi betinim daryo	4
Mavluda Satiyeva. “Me’yor ul – ash’or” risolasida aruzga doir ritmik birliklarning berilishi	8
Mahbuba Quvondiqova. Teolingvistikaning umumbashariy ahamiyati va o’rganilishi.....	10
Ma’mura Norjigitova. Mifologemaga doir nazariy qarashlar talqini	12
Maysara Po’latova. Ogahiyning “Ustina” radifli g’azalida so’z qo’llash mahorati.....	14
Gulnora Umarova. “Hayrat ul-Abror” dostonida talmeh badiiy san’atining qo’llanilishi	16
Dilafro’z Jabborova. “O’tkan kunlar” romani poetikasi talqini	19
Xurshida Karimova. Xitoy tilidagi quyosh energetikasi sohasiga oid neologizmlar tahlili.....	21
Мухаббат Буриева. Стихотворения Есенина – искренняя исповедь его романтической души	24
Угиллой Кусанова. Лингвистические и экстралингвистические трудности в организации дискурса	26
Халима Атаджанова. Семантическая организация фразеологических единиц в русском языке (на материале числительных)	29
Насибахон Пазилова. Психолингвистический подход к когнитивным и прагматическим механизмам интерпретации личных местоимений в узбекском, русском и английском языках	31
Назирахон Муродова. Код-свитчинг в современной узбекской коммуникации.....	34
Yusuf Nurmuxammedov. Maqollarning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari	36
To’lg’ano’x Xoliyorova. O’zbek tili milliy korpusini takomillashtirish va boyitishning nazariy va amaliy asoslari.....	38
Dilobar Babaqulova. “Aqliy faoliyat” tushunchasi va uning tilda ifodalanishi.....	39
Asliddin Ismatov. Ingliz xalq ertaklarining kommunikativ strategiyasi va fonetik xoslanishi	41
Oybek Nurjonov. Qoraqalpog’istondagi o’zbek shevalari evfemizmlarining etnomadaniy talqini	42
Sitora Tojiddinova. O’zbek nasrida “Boburnoma” va Bobur haqidagi ijod namunalari.....	44
Salim Doniyorov. Yangi O’zbekistonni barpo etish jarayonlarini yoritishda an’anaviy ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.....	47
Gulnora Narimova. O’zbek tilini o’qitishda pedagogik-psixologik jihatlarining funksional tahlili.....	50
Nilufar Omonova. Atoiy she’riyatida tabiat bilan bog’liq poetik obrazlar tasviri	52
Gulbahor Ernazarova. She’riyatda mumtoz mohiyat: milliylik va an’anaviylik.....	54
Nargisa Akhmedova. Innovative Language Teaching Strategies for Art Students: Using Miniature Paintings to Build Creative Competence.....	56
Shahnoza Tairova. From bard to barter: enduring idioms coined by Shakespeare	58
Zilola Khaknazarova. Integrating neuropedagogical strategies into foreign language education	62
Janar Seyda Abdurakhimova. Improving English Language Instruction for Information and Communication Technology Students Through a Deep Learning Approach.....	64
Makhlilo Kamolova. Main content of design and constructory competence of future engineers	66
To’lqin Pardayev. Badiiy xronotop nazariyasining janrlar kontekstidagi ahamiyati.....	69
Ravshan Niyazov. Amerika belletristikasida Jon Grishamning hikoya metodi	72
Turaxon Qoraxonov. Shavkat Rahmon she’rlarida muhabbat chizgilari.....	74
Musayeva Nozima. Trends in podcast-assisted L2 listening: a bibliometric overview (2019–2025).....	76
Ravshan Niyazov. Zamonaviy amerika adabiyotida detektiv janrning turlari va o’ziga xosligi.....	80
E’tibor Murodova. O’zbek va ingliz paremiyalari milliy va madaniy o’ziga xoslikni namoyon etuvchi vosita sifatida	82
Nigina Izamova. Detektiv asarlarning jamiyat hayoti va ma’naviy rivojidadagi ahamiyati.....	84
Moxichehra Muxammadiyeva. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi boyo’g’li obrazining poetik talqini.....	86
Diloromxon Turg’unboyeva. Pul va ijtimoiy tabaqalanish: “boy” va “kambag’al” tushunchalarining sotsiolingvistik manzarasi va pulga oid vulgarizmlarning tilda aks etishi	88
Zamira Abdujabbarova. Lisoniy-kognitiv yondashuvlar: raqamli davr kontekstida madaniy kodlar va semantika	90
Ozoda Yusupova. Rauf Muzaffarzoda maqolalarida madaniyat va ma’rifat, ta’lim-tarbiya mavzularining yoritilishi	92
Yulduz Shodmonaliyeva. Tasdiq va inkorni ifodalovchi birliklar tadqiqi	95
Александра Каландарова. Виды языкового воздействия на аудиторию в массмедийном дискурсе	99

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Тю Тхи Ким Зунг. Формирование нравственных ценностей у учащихся при обучении китайскому языку	102
Гаухар Ешмуратова. Адаптация детей к условиям дошкольного учреждения	103
Дастан Абдреймов. Использование информационно-коммуникационных технологий в подготовке будущих специалистов сферы культуры и искусства	105
Айгуль Сапарниязова. Развитие научного мировоззрения у детей дошкольного возраста в центрах науки и природы.....	106
Гулзада Матжанова, Гулзар Байтилеуова. Реализация игровых технологий в дошкольном учреждении.....	108
Надира Кожаква. Задачи музыкального воспитания детей дошкольного возраста	109
Hurliman Kaipbergenova. Ingliz tilini umumta'lim maktablarida o'qitishda multi-metod yondashuvning lingvodidaktik imkoniyatlari	111
Bog'dagul Qarshiyeva. Arxitektura sohasi o'quvchilari uchun autentik matn turlari va ularning o'quv jarayoniga motivatsion ta'siri.....	113
Maftunaxon Akbarova. Rabindranat Tagorning "Shubxa" hikoyasini o'qitishda "Blum taksonomiyasi"dan foydalanish	115
Umid Hamroyev. Maktabda fe'l so'z turkumini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari (5-sinf ona tili darsligi misolida)	117
Xurshid Asrorov. Kompetensiyaviy yondashuv va o'quvchilar bilimni baholash	121

G'ayrat MAJID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari

SHIVIRLAYDI BETINIM DARYO

*Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.
Esimda o'sha damlar:
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh.
O't bog'lagan qanotlar,
Beqanot uchgan otlar,
Baxtiyor bilan Oygul,
Qiz bo'lib ochilgan gul.
So'ylaguvchi devorlar,
Bola bo'p qolgan chollar...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi...*

Bu satrlarni hammamiz yaxshi bilamiz. Bilamizgina emas, yodlab olganmiz. Mening bolaligim Toshkentdan ancha olisda – Kitob tumaniga qarashli Xo'jailmkoni qishlog'ida kechgan. Qir-adirlar etagidagi bu kichkina qishloqda naqshbandiya tariqati pirlaridan Mavloni Muhammad Darvesh, Hazrati Xojagi Imkanagiy, Mirzo Kamol Oxund yashab o'tganlar. Ulug'lar xotirasiga bunyod etilgan xonaqoh qishloqning eng baland joyida qad rostlagan. Shu sabab bu joy olislardan ham ko'rinib turadi. Ana shu qadamjo etagida bizning maktab bor. Bolaligimda akamga qo'shilib chamasi olti oylar maktabga borganman. Shunda akamning birinchi o'qituvchisi endi harf o'rganayotgan jajji bolakaylarga ertagu dostonlar, she'r-u matallar o'qib berardi. O'sha paytlarda "Oygul bilan Baxtiyor" dostoni barcha o'quvchilarning diliga hayrat-u hayajon bag'ishlagani sira yodimdan chiqmaydi. Demoqchi bo'lganim, men besh yasharlik chog'imda Hamid Olimjon asarlariga oshino bo'lganman. Albatta, o'sha kezlari bu go'zal doston muallifi haqida hech nima bilmaganman. To'g'rirog'i, shunday go'zal asarlarni kimdir yozganini bola boshimiz bilan anglab yetmaganmiz. Ammo bitta haqiqat bor: katta ijodkorlar katta va go'zal asarlar yozadi va ularning yozganlari aslo yosh tanlamaydi. Barchaning qalb-u shuuriga o'zining pokiza ne'mati – kamolot sari intilish orzusini beraveradi. Hamid Olimjon asarlari ham ana shunday quvvatga ega bebaho ganjinadir. Keyinchalik bu hassos shoir ijodiga muhabbat qo'ydim, yodladim. Bugun ularni farzandlarimga ham aytib bermoqdaman... Qachon bu atoqli ijodkorning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi haqida o'ylasam, hayratim ortgandan ortadi. Bor-yog'i o'ttiz besh yillik umrdan bunday ulug' meros qolishi hazil gap emas. Bu ne'matni o'zbekka

Allohning o'zi bergan. Gapni cho'zmay maqsad-muddaoga o'tsam, ustoz ijodi bag'ishlagan hayrat-u hayajonimni siz bilan baham ko'rsam deyman.

Hamid Olimjon tabiat manzaralarini tasvirlashdagi mahorati, yil fasllari, daryolar, yurt go'zalligidan hayratlanish tuyg'ularini ifodalashdagi betakror usuli bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi. Nihoyatda tiniq va yorqin obrazlar o'quvchini ohanrabodek tortadi. "Tashna ko'ngilday chanqagan barglar..." deb yozadi "Zarafshon qo'ynida" she'rida. E'tibor bering, borliq va inson tuyg'usi, tabiat va ko'ngil, ruhiy dunyo va moddiy dunyo muqoyasa qilinmoqda. Barglarning ko'rinishi, holatini tashna ko'ngilga o'xshatmoqda. So'lg'in barglar, quriyotgan barglardanda go'zal obraz yaratmoqda. Zarafshon nomi bilan ataladigan yurt, Zarafshon nomi bilan ataladigan daryoga bo'lgan mehr-muhabbatini haroratli satrlar ila izhor etib, yurak tuyg'ularining samimiyligi, ehtirosi she'rxonni hayajonga soladi. Lirik qahramon yurtini, daryoni yorni sevgandek ardoqlaydi. Shoir go'yo tabiatga emas, insonga murojaat qilgandek bo'ladi. Mana shu hodisa shoir she'riyatining yuksak badiiyatini namoyon etadi. Quyidagi satrlarda lirik qahramon qizga emas, daryoga qarata shunday deydi:

*Ko'p uzoq yo'llar, quvladim... yetdim,
Men senga oshiq, ko'rgali keldim.
Men seni ko'rdim, sevinchga botdim,
Shakar lablardan bo'salar oldim,
Bo'salar oldim.*

Yurtning nihoyatda go'zalligini ayolning husni jamoliga qiyoslaydi. Ehtiros bilan o'z muhabbatini izhor etadi. Axir yurt deganda sevimli yor ham tushuniladi-ku. Faqat o'z yurti bo'lgan insongina haqiqiy muhabbatni chin yurakdan his etadi.

Shu yurt, shu Vatanda ter to'kib mehnat qilish, xalq farovonligi uchun fidokorona xizmat qilish naqadar maroqli, naqadar zavqli. Hamid Olimjon ana shu tuyg'uni obrazli tarzda yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi:

*Hali qo'yingda charchamas erlar,
Eng yoqimli va eng qizil sirlar,
Yana siynangda sayr etar qirlar...*

Har bir so'z, har bir misraning "rangi" bor – o'z ma'nosidan boshqa yangi mazmuni bor. "Eng yoqimli va eng qizil sirlar" deganda bog'larda gullagan chechaklar, yurakda gullagan muhabbat nazarda tutilgan. Qonimda jo'shgan ehtiros bilan sevaman seni, Zarafshon, degan ma'no bor bu satrda.

Daryo suvlarining o'rkach-o'rkach, tomdek-tomdek to'lqinlar bilan jo'shib oqishi "Yana siynangda sayr etar qirlar" satrida o'z ifodasini topgan. Aql ko'zi bilan qaraganda qirlar

sayr etmaydi-ku. Biroq xayol va tasavvur, tuyg'u qudrati bilan qirlarning sayr etishini his qilish mumkin. Bunda shoirning badiiy mahorati namoyon bo'ladi.

“Bahorni sog'inganda” she'rida Hamid Olimjon ko'hna turkiy she'riyat an'analarini davom ettirganini ko'ramiz. Mavsum qo'shiqlarining ohanglari yangicha jilo bilan tovlanadi. *Qahraton ayoz zabtiga olmoqda, bo'ron quturmoqda* kabi so'zlashuv nutqi, bayonchilikdan qochadi va *“Qish cholar cholg'isin...”* degan birgina satrning o'zi bilan qishning jami manzarasini ko'z oldimizda jonlantiradi.

Qirchillagan qishdan bezgan shoir tasavvurida bahorni yaratadi va unga shunday murojaat etadi.

*Shunda cho'pon kabi kezib tog'lar,
Men seni bir o'pay, quchoqlay-da...
Suv – buloq bo'ylarida charchay-da,
So'ngra qo'yningda erkalab uxlay.*

Tabiat qo'ynida ko'klam mo'jizalaridan zavqlanish – tinch, osoyishta, farovon hayot timsoli. Ozod va emin-erkin sayr etish, cho'pondek tog'larni qadam-baqadam kezish baxt-u saodatdan nishona erur. She'rning boshqachaligi, betakrorligi bahorni jonlantirishda, kelinchakdek go'zal bu faslni odam kabi tasavvur etishdadir. Bahorga shoir: *“Men seni bir o'pay, bir quchoqlay-da”*, deydi. Boladek beg'ubor va nafis tuyg'ularini izhor etadi. Faqat shoirgina yurt go'zalligi, tabiat chiroyiga bo'lgan o'z tuyg'usini ana shunday izhor etish mumkin. Bu Hamid Olimjonning muhabbati.

“Bahorga yetganda” she'rida shoir yozadi:

*Tongda oppoq bulut xayolimda
Qip-qizil loladan nishon taqdi.*

Oppoq ko'ylakka taqilgan qip-qizil nishonni tasavvur eting. Shoir qip-qizil lolani ham, oppoq bulutni ham tasvirlamoqchi emas. Shoir ana shu yorqin timsollar vositasida tongda quyosh chiqishini tasvirlamoqchi. Olamga quyosh chiqdi, bahorning so'lim va iliq tonggi otdi, demoqchi. Bunda bulut bilan lola – metafora. Metafora – fikrning quvvati. Metafora – sifatning orttirilgan darajasidan ham yuksak bo'lgan yangi nomi.

Shoir hayotni sevadi, hayotga bo'lgan jo'shqin muhabbatini ehtiros bilan izhor etadi. Shuning uchun ham shoir aytgan badiiy so'zning harorati nihoyatda baland. Hissiyoti baland shoir, ehtirosli shoir kabi sifatlar adabiyotshunoslar tilida hassos shoir deb nomlanadi. Hamid Olimjon – hassos shoir.

Mana shu xususiyat shoirning “Ozar qizi” she'rida ham ko'zga tashlanadi:

*Tingladim yoqimli kuylarni,
O'pdim men turmushning yuzidan.*

Hayotsevarlikni bunday avj pardalarda kuylash har kimga ham nasib etavermagan. Shuning uchun Hamid Olimjonni zamonamizning eng iste'dodli shoirlari o'z

ustozi deb bilishgan. Shoirning badiiy mahoratidan saboq olishgan, she'rlaridan so'z ranglari bilan manzaralar chizish sirlarini o'rganishgan. Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Yo'ldosh Eshbek... Bugun o'z mahoratni namoyon etayotgan navqiron shoirlar ham Hamid Olimjon maktabining o'quvchilaridir.

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ustoz Hamid Olimjon mahoratni shunday e'tirof etadi: “Hamid Olimjon, avvalambor, lirik shoir. Biz ko'pincha lirika deganda mazmuniga ko'ra muhabbat yoki manzaraga oid she'rlarni tushunib yuramiz. Holbuki, quruq bayonchilikdan iborat “lirika”lar ham yo'q emas. Haqiqiy lirik asarda ko'z ham, quloq ham ilg'ay olmaydigan, faqat ruhning torlarigina seza oladigan titratmalar mavjud bo'ladi. Go'zal va teran lirik holatni eng buyuk rassomlarning rangtasvirlarida ham uchratamiz. Bunday asarga yillab termulsangiz ham to'yimsiz, u sizning holatingizni butunlay boshqa o'zanga burib yuborishga qodir.

O'zbek she'riyatida lirikaning eng go'zal va nafis namunalari, albatta, bor. Lekin Hamid Olimjon lirikasi boshqa birorta shoirning lirikasiga aslo o'xshamaydi. Bu lirika marmar kabi tiniq, lekin sovuq emas. Unda tasvir ham, ohang ham bo'lakcha:

*Shivirlaydi betinim daryo,
Shig'irlaydi vahm to'la jar...*

*Holbuki, tun – bunda, odatda,
Butun borliq uxlarday sokin...*

*Xayolimda bo'lding uzukun,
Seni izlab qirg'oqqa bordim.
Och to'lqinlar pishqirgan tunda
Topib ber, deb oyga yolvordim...*

Bundoq durlar shodasini maroq bilan yana davom ettirishimiz mumkin. Jumladan, men o'zim ona tilimda yaratilgan bebaho baytlarni o'qib yurishga muyassar bo'lganimdan bir umr minnatdorman, baxtliman. Ushbu sehrli misralarni oyning nim qorong'isida sokin shivirlayotgan soy bo'ylarida jimgina takrorlash naqadar yoqimli... Demak, lirika ruhning suratidir.

Hamid Olimjonning she'riy misralarni sayqallash ustida bahodirona ter to'kish mahorati ham hali necha-necha avlod shoirlarga ibrat bo'lib qolgusidir”.

Shoirning “Qish” sarlavhali she'ri lirikaning eng go'zal namunalaridan biridir. Agar boshlovchi shoirga she'riyatning kitoblarda yozilmagan sirlarini o'rgatmoqchi bo'lsangiz, Hamid Olimjonning mana shu she'ri eng yorqin va eng namunali misol bo'ladi. She'rda voqelik bayon qilinmaydi, badiiy so'z bilan tiniq manzaralar chiziladi. Mana, qish oqshomi oq dengizga o'xshatiladi. Odatda, dengiz hamisha shovullab mavjlanib turadi. Bu “dengiz” esa to'lqinsiz uxlaydi. Hamma tomon oppoq qor bilan qoplagan, degan gapni aytmadan, shoir quyidagicha ko'rsatib bermoqda:

*Oqshom... Borliq oq dengiz
To'liqsiz uxlar...
Yulduz go'yo oltin qiz,
Jimlikni tinglar...*

Tabiatdagi narsalar yana odamga o'xshatilmoqda. Yulduz – oltin qiz... U jimlikni tinglamoqda... Naqadar ajoyib tasavvur. Naqadar ajoyib surat. Ana shu manzarani musavvir mo'yqalamda tasvirlasa, durdona rangtasvir asari paydo bo'lardi. Lekin bu badiiy so'z durdonasini Hamid Olimjon qalam bilan yaratib qo'ydi. Mana, zavqlanib tomosha qiling:

*Past-past uylar, devorlar
Oq ko'ylak kiygan.
"Muz tog'i"dek u tomlar
Tinchlikka cho'mgan.*

Uylar, tomlar aysberglarga – muz tog'larga o'xshatilmoqda. Qishloqdagi uylarning hammasi qor bilan qoplangan, tomlarning usti muzlab yaltirab qolgan. Oqshom, hamma yoq sokin, butun borliq qahratonda muzlab qolgandek go'yo. Odamlar, turli jonivorlarning qorda yurgani aniq bilinib turadi:

*Tamg'a kabi taniqli
Har yerda bir iz...*

Lekin shunday ayozli tunda muzlab qolgan tabiatga bir ovoz jon bag'ishlaydi. Beshikdagi bolasini allalab uxlatayotgan onaning ovozi tabiatning batamom muzlab qolishidan omon saqlab qoladi. Bola obrazida kelajak avlod, inson hayotining davomchilari nazarda tutilgan.

*"Muz tog'"lardan chiqadi
Bir alla sozi –
Yosh go'dakni yupatgan
Ona ovozi.*

Kunduzgi quyosh nurlarida muzlarning erishi, tarnovlarga osilib qolgan o'tkir qilichday yaltirab turgan muz sumalaklarning shamdek tomchilab tugashini shoir chiroyli tasvirlaydi. Quyosh nurlarini zar ignalarga, billurdek muz parchalarini sadaf tugmalarga o'xshatadi.

*Muz siynasin tiladi
U zar ignalar.
Parcha-parcha sinadi
Sadaf tugmalar.*

Bobolarimiz aytgan xalq og'zaki ijodi namunalarida qishning ustidan bahor g'olib chiqadi, ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi. Hamid Olimjondek yuragi yonib turgan shoirning xayollari, tasavvur dunyosi ham buyuk ajdodlarimiz niyatidek oliyanob va umidbaxsh. She'riyat dunyoga go'zallik baxsh etishi, inson ko'nglini zavqlantirishi zarur. Badiiy asar darajasini belgilashdagi asosiy mezon u

insoniyatga qanday xizmat qilgani bilan belgilanadi. Hamid Olimjon she'riyatining umrboqiyiligining sababi ham aynan shu vazifani qoyilmaqom qilib bajarganidadir.

Shoir "Cho'llar" she'rida bepoyon kengliklar go'zalligini shunday tasvirlaydi:

*Poyezd o'tgan chog'da bekatlar
Alvon ro'mol o'rab chiqadi.*

Cho'lda qizg'aldoqlarning lovullab ochilib yotganini shoir hayajon bilan qalamga oladi.

"Daryo kechasi" nomli she'rida daryoning shovullab oqishini nihoyatda chiroyli tasvirlaydi. Shiddat bilan oqayotgan tog' daryosining to'liqlari, jo'shqin harakati, shitob oqimi ko'z oldingizga keladi. Suv go'yo katta-katta xarsanglarni koptokdek yumalatib olib qochadi.

*Kecha go'zal, daryo tinimsiz
Ag'darmoqda soyning toshini.
Dalalarga cho'zib oyog'in,
Qorliklarga o'rab boshini.*

Daryoning odamdek dalalarga oyog'ini cho'zishi, oppoq tivit ro'moldek qorliklarga boshini o'rashini tasavvur qiling. Daryo tog'lardan boshlanadi, cheksiz dalalardan oqib o'tadi, degan darak gapni shoir mahorat bilan naqadar go'zal tasvirlagan.

"Chimyon esdaliklari"da esa tog' tabiati nihoyatda jonli tasvirlanadi. Tashbehtar, o'xshatishlar, istioralar o'quvchining tasavvurini qamashtirib, hayratga soladi:

*Tog'da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda.
Menga bugun yaqindir osmon,
Bulutlardan tepamda poda.
Go'zallikda tuganmas buloq,
Shamol-la o'ynaydi shalola.
Bahor yurar ko'chib tog'ma-tog',
Qo'llarida lola piyola.*

Ohu – juvonga, bulutlar – podaga, lola – piyolaga o'xshatilgani bilan betakror so'z timsollari yaratilgan. Ayniqsa, bahorning qo'lida lola piyola ko'tarib tog'ma-tog' sayr etib yurishi go'zal manzaraning betakror tasviridir.

Hamid Olimjon faqat yangi badiiy timsollar emas, balki yangi ohanglar ijodkori hamdir. Masalan, bolalikni sho'x va o'ynoqi ohanglarda tasvirlaydi:

*Suv oqardi,
Qo'ynida
Ko'krak kerib,
Baliq kabi
Sho'ng'ib yotardik...
Qizlar o'tsa,
Orqasidan
Olma otardik.*

Shoir she'rlari va dostonlarida bunday diltortar, ohanrabo navolar, betakror tovushlar obrazi ko'p.

Tafakkur olami keng va bepoyon shoirgina ana shunday betakror obrazlarni yarata oladi. Xalqimizning ulug' baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'liga bag'ishlangan "Kuychining xayoli" she'rida yaratilgan obrazda Hamid Olimjonning o'z shoirlik mahorati ham tasvirlanganini anglaymiz:

*Bu xayol so'ngsizdir, osmon kabi keng,
Bu xayol tugamas hech hali-beri.
Uning boyliklari umrlarga teng,
Hamon belgisizdir boshlangan yeri.*

Shoirning hamrohi – xayol, hayoti – xayol, qismati – xayol. Ijodkor xayolni chizadi. Xayolning parvozi buyuk kashfiyotlarni yaratadi. Xayolning qanotidan tutib, uni so'z bilan oq qog'ozga abadiy muhrlagan shoirning asarlari umrboqiy yashaydi.

Hamid Olimjon ona-Vatanimiz O'zbekiston timsoliga so'z bilan haykal qo'ygan shoirlardan biridir. Uning "O'zbekiston" she'rini hamon hayajonsiz o'qib bo'lmaydi. Yillar o'tdi, avlodlar almashti. Lekin bu she'r o'z go'zalligi bilan o'quvchilarni o'ziga rom etib kelmoqda. Yana yillar o'tadi, asrlar o'tadi, lekin Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ri millatimiz va xalqimiz uchun aziz va qadrdon bo'lib qolaveradi:

*Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun so'ylaydi olqish.*

Urush davrida fashizmga qarshi kurash, tinchlik uchun kurashmoq, insoniyatni urush ofatidan asrash g'oyalarni tarannum etdi. Qahramonning qiyofasi, tuyg'ulari, orzu va armonlarini ochib beruvchi "Shinel" asari yuksak badiiyati bilan ajralib turadi:

*Ranging tuproqqa o'xshar,
Sen o'xshaysan kigizga.
Bormasdim seni kiyib,
Yorim bo'lajak qizga.
Marg'ilonda to'qilgan
Yo'l-yo'l shohi beqasam
Ming marta yaxshi edi,
Ichmaganimda qasam.
Lekin seni ustimga
Katta bir g'am kiygizdi.
Singlim, qarindoshlarim,
Otam, onam kiygizdi.*

Hamid Olimjon lirik she'rlar bilan birga ballada va dostonlar ham yaratgan. "Jangchi Tursun" (1942), "Roksananing ko'z yoshlari" (1944) balladalarini, "Oygul bilan Baxtiyor" (1937),

"Semurg' yoki Parizod va Bunyod" (1939) dostonlari o'zbek she'riyatining xazinasidan munosib o'rin olgan. Balladalarda shoir ikkinchi jahon urushi manzaralari, turli millat vakillarining taqdiri, ularning boshiga tushgan fojia qalamga olinadi. Shoir botirlik va jasoratni, mehribonlik va bag'rikenglikni tarannum etadi. Jangchi Tursun obrazida olis o'lkalarga urushga ketgan, urush olovini yoqqan yovuz kuchlarga qarshi mardona kurashgan o'zbek yigitlarining umumlashma timsoli yoritib berilgan. "Roksananing ko'z yoshlari" balladasida esa urush ofati tufayli yurti vayron bo'lgan o'zga millat vakillariga o'z uyidan joy berib, bag'riga olgan o'zbek xonadonlari tasvirlangan. Ukrainalik Roksananing eri partizanlikda fashistlar bilan kurashmoqda. O'zi esa norasida go'dagi Vova bilan fashistlar zulmidan qochib kelib, Shahrixonida Soraning uyidan panoh topgan. Bir kuni tunda Roksana yo'qolib qoladi, bundan Sora qattiq bezovta. O'zbek xonadonida yashayotgan musofirning tunda yo'qolib qolgani uchun Soraning tomog'idan taom o'tmaydi. Urush ko'rgiliklari yetmaganiday, Roksananing boshiga yana kulfat tushgan. Mittigina Vova, begunoh go'dak qazo qilgan. Roksana uni qayerga dafn etishni bilmay, ona qushdek chirqillab kezadi. Ko'ngli alag'da: musulmonlar xristian farzandini o'z mozarlariga qo'yarmikin? G'ayridinning bolasiga ular qabristonidan joy bermasa, nima qiladi? Bir chol Roksananing yo'lidan chiqib, uning dardiga sherik bo'ladi. Vovani birgalashib qabrga qo'yadilar. O'sha mash'um yillarda o'zbeklar insoniyat uchun, dunyodagi boshqa millatlar uchun qonini ham, jonini ham bergan, tuprog'idan, yeridan, xonadonidan joy ham bergan. Mana, shoirning mahorati. Urush, insoniyat boshiga tushgan kulfat millatlarni bir-biridan ajratmaydi, balki birlashtiradi, degan g'oya yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etilgan. Bu asar urush davri adabiyotining eng yuksak namunalariidan biridir.

"Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostonlari yaratilgan sanaga e'tibor bering. Ular qatag'on yillarida bitilgan. Zolim xonlar, yovuz ajdaholar, bevafo va shafqatsiz saltanat egalari tanqid qilingan. Teran o'ylab qaralsa, shoir sotsialistik realizmning sinfiylik nazariyasiga amal qilib, xonlar, boylarni qoralamagan. Aksincha, xalqona obrazlar bilan qalamining tig'ini hukmron saltanat, sho'rolar davlatining kirdikorlarini fosh etishga qaratgan. Zulm ostida qolgan xalqni Bunyod kabi bahodirlar himoya qilishi, yalmog'iz devlarning shafqatsiz hujumidan xalos etishi lozimligini badiiy timsollar vositasida ifodalagan. Yovuzlikka qarshi kurash g'oyasi hamisha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Hamid Olimjon g'oyat tahlilali, tahdidlarga to'la murakkab davrda qalam tebratdi. Millat va xalq fidoyisi sifatida xalq og'zaki merosi namunalari elning atoqli baxshilaridan yozib olish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan paytlarda Fozil shoir va Islom shoirlarga munosib shart-sharoitlar yaratib berdi, xalq og'zaki ijodi bilimdonlari ko'magi bilan xalq baxshilarining terma-yu dostonlarini yozib olib nashr ettirdi. Bu xayrli ishlar shoir ijodida ham muhim iz qoldirgani ham, albatta, sir emas. Biz yuqorida uning dostonlari xususida ham mulohaza yuritdik.

Mavluda SATIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

“ME'YOR UL – ASH'OR” RISOLASIDA ARUZGA DOIR RITMIK BIRLIKLARNING BERILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors olimi Nasiruddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or” risolasida aruzga oid ritmik birliklar – juzvlar va ruknlar qay tarzda berilgani, muallif aruzshunoslikdagi 6 ta juzvni ta'riflab ko'rsatgani, ammo fosila juzvi haqida o'zgacha fikrlarda ekani ochiqdanib, ruknlarni tasniflashdagi noan'anaviy uslubi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Nasiruddin Tusi, aruz, forsiy aruz, juzv, sabab, vatad, fosila, rukn, rukn doiralari.

Annotation. This article examines the specifics of representing the rhythmic units of aruz - juzves and rukns - in the treatise of the Persian scholar Nasiruddin Tusi “Me'yor ul-ash'or”. The author's proposed interpretation of the six juzvs in the context of traditional aruz studies is analyzed, and his original approach to understanding the juzf of the fosil is revealed. Particular attention is paid to the non-standard classification of rukns proposed by Tusi, which allows for a new perspective on the structure and principles of the metric system.

Keywords: Nasiruddin Tusi, aruz, Persian aruz, juzv, sabab, vatad, fosila, rukn, circles of rukn.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности репрезентации ритмических единиц аруза – джузвов и рукнов – в трактате персидского учёного Насируддина Туси «Меъёр ул-ашъор». Анализируется интерпретация шести джузвов, предложенная автором в контексте традиционного арузоведения, а также выявляется его оригинальный подход к пониманию джуз-ва фосила. Особое внимание уделяется нестандартной классификации рукнов, предложенной Туси, что позволяет по-новому взглянуть на структуру и принципы метрической системы.

Ключевые слова: Насируддин Туси, аруз, персидский аруз, джузв, сабаб, ватад, фосила, руكن, круги руكن. круги руكن.

Nasiruddin Tusiyning aruz va qofiya ilmiga bag'ishlangan “Me'yor ul-ash'or” risolasi aruzga oid asarlar ichida eng yaxshilaridan biri va o'zidan keyingi poetik tafakkurga chuqur ta'sir ko'rsatgan asardir. Risola nisbatan kam o'rganilgan bo'lishiga qaramay, Muhammad Qazvinii, Akram Ja'far, Rahim Musulmonqulov kabi olimlar unga yuksak ilmiy qiymatga ega manba sifatida ta'rif berishgan [6: 9].

Risolada Nasiruddin Tusi aruz asoschisi Xalil ibn Ahmadning an'alarini davom ettirgan. Bu bilan o'zidan keyingi aruz va qofiya haqidagi asarlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsata olgan. Masalan, Alisher Navoiy (“Mezon ul-avzon”), Zahiriddin Muhammad Bobur (“Muxtasar”) va Husayn Voiz Koshifiy (“Badoe ul-afkor fi sanoe al-ash'or”) Nasiruddin Tusi nomini hurmat bilan tilga olishadi, asarini esa o'zlariga asosiy manba sifatida qabul qilishadi. Shayx Taroziy “Funun ul-balog'a”ni yozishda bevosita bu asarga ham tayanganini qayd etadi: “Bu havastin ko'p nusxalarni mutolaa qildi, netokkim, “Aruzi qistos” va “Aruzi Undulusiy” va “Me'yor-ul ash'or” va bu tariqa nusxalarning bahrlarida ko'p g'avvosliq qilduq” [2: 146].

Mumtoz aruzshunoslikda nazariy bilimlarni tushuntirish maqsadida juzv tushunchasidan foydalanilgan. Juzv arab tilida “qism”, “bo'lak”, “parcha” ma'nolarini bildiradigan, aruzga oid eng kichik unsur bo'lib, arab alifbosidagi harakatli va sokin harflarning turli tartibda birikishi yordamida hosil qilinadi. Juzvlarning vazifasi undan kattaroq birlik – ruknlarning xususiyatini belgilashdir. Aruzshunos U. To'ychiyev aruzning asl kichik elementi harf va harakat bo'lgani sababli aruz haqida o'rta asrlardagi ta'limotlar harfiy nazariya bo'lib qolganini aytadi. Bunga misol tariqasida esa Boburning rukn haqidagi “Hech rukn

bash harftin kamroq va yetti harftin ko'proq kelmaydir” so'zlarini keltiradi [5].

Aruz ilmiga oid manbalarda juzvlarni nomlash borasida ayrim farqlar ham mavjud. Jumladan, mazkur tushuncha Qays Roziyning “Al-Mo'jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or”, Boburning “Muxtasar” (“Aruz risolasi”)ida “juzv”, Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a”sida “asl”, Jomiyning “Risolay aruz”, Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Husayniyning “Badoyi' us-sanoyi” va “Aruzi Sayfiy”da “rukn” tarzida keltirilgan.

Aruzshunoslikda juzvlarning an'anaviy uch guruhi – sabab, vatad va fosila mavjud, ularning har biri esa o'z navbatida yana ikki guruhga bo'linadi.

1. Sabab (arabcha – “arqon”). Ushbu juzv harflarning qay tartibda birikishiga qarab o'z ichida yana ikkiga bo'linadi:

a) sababi xafif (yengil sabab) – bir mutaharrik va bir sokin harfdan hosil qilinuvchi bo'lak. Zamonaviy aruzshunoslikda esa bu bir cho'ziq hijo (–)ga teng bo'ladi. Masalan: “ham”, “nam”, “men”

b) sababi saqil (og'ir sabab) – ikki mutaharrik harfning ketma-ket kelishidan yaraluvchi bo'lak. Zamonaviy aruzshunoslikda esa u ikki qisqa hijoning ketma-ket kelishini (V V) bildiradi. Bunga “tana”, “kapa”, “sana” va boshqa so'zlar misol bo'ladi.

2. Vatad (arabcha – “qoziqcha”). U ikki turga bo'linadi:

a) vatadi majmu (birikkan vatad) – ikki mutaharrik va bir sokin harfning birikuvidan hosil bo'luvchi bo'lak. Zamonaviy aruzshunoslikda qisqa hijodan so'ng cho'ziq hijo kelsa, bu vatadi majmuni bildiradi: (V –) Masalan: “chaman”, “taraf”, “vatan”;

b) vatadi mafruf (ajralgan vatad) – ikki mutaharrik va ular o'rtasida kelgan bir sokin harf yoki bir mutaharrik harfdan so'ng ikki sokin harfning kelishidan tashkil topuvchi

bo'lak. Zamonaviy aruzshunoslikda cho'ziq hijodan keyin qisqa hijoning kelishini (– V) bildiradi.

3. Fosila (arabcha – “palos”, “oraliq”) ham ikki turga bo'linadi:

a) fosilayi sug'ro (kichik fosila) – uch mutaharrik harfdan so'ng bir sokin harfning kelishidan tashkil topuvchi bo'lak. Zamonaviy aruzshunoslikda ikki qisqa hijodan so'ng bir cho'ziq hijoning kelishini (VV–) bildiradi. Masalan: “yuragim”, “ajabo”, “sanamo”;

b) fosilayi kubro (katta fosila) – to'rt mutaharrik harfdan so'ng bir sokin harfning kelishidan tashkil topuvchi bo'lak. Zamonaviy aruzshunoslikda uch qisqa hijodan keyin bir cho'ziq hijoning kelishini bildiradi (VVV–) [4: 21–23].

Nasiruddin Tusiy boshqa aruzshunoslar singari aruz birliklarini tadqiq qilishda dastlabki e'tiborni juzvlarga qaratadi. Muhim jihati shundaki, mumtoz aruzshunoslikda bo'lgani kabi ularni rukn/arkon tarzida emas, balki Xalil ibn Ahmadga ergashgan tarzda juzv/ajzo shaklida beradi. Uning fikricha, juzvlar mutaharrik va sokin harflarning qo'shilishidan yuzaga keladi, bunda arab va fors tillari qoidasiga ko'ra juzvning ilk harfi, albatta, mutaharrik bo'ladi.

Juzvlar tasnifiga bag'ishlangan uchinchi fasl “Mutaharrik va sokin harflardan paydo bo'luvchi she'r juzvlari haqida” (“Dar ajzoyi soniyai she'r, ki az hurufi mutaharrik va sokin muallaf shavand”) deb nomlanadi. Muallif juzvlar tavsifini sababdan boshlaydi: “Ta'lif az du huruf buvad va on muallafo sabab xonand va lomahola avval mutaharrik boyad. Pas agar hurufi duyum sokin buvad, onro sababi xaff xonand va musovii maqta'i mamdud boshad va agar mutaharrik buvad, onro sababi saqil xonand” [1: 24].

Tusiyning fikricha, sababi saqiyl ikki mutaharrik harfdan tashkil topgani hamda o'zidan keyin boshqa juzv bilan birikishi kerakligi bois fors aruzida qo'llanilmaydi. Bu haqda u shunday deydi: “Va dar agar asli she'ri forsi sababi saqil musta'mal nest az jihati on ki sababi saqil chun ba juzvi digar payvandad va se mutaharrik yo ziyodat mutavoli shavand va vuqu'i on dar she'ri forsi chunonki guftem, az e'tidol xorich ast” [1: 24]. Sababi saqiylga qo'shilishi kerak bo'lgan juzv ham mutaharrik bo'lishi kerakligi sababli, uchta mutaharrik harfning ketma-ket kelishi fors tilining fonetik tabiatiga zid holat sanaladi. Shu tufayli, Tusiy forsiy juzvlar tarkibidan sababi saqiylni chiqarib yuboradi, shuningdek, tarkibida sababi saqiyl bor ruknlar (afoyillar)ni ham fors aruziga yot deb sanaydi.

Muallif vatad juzvi haqida shunday deydi: “Va ta'lifi duyum az se harf buvad va onro vatad xonand va har se mutaharrik nashoyad, chunonki gufta omad va harfi avval lomahola mutaharrik boshad. Pas agar duyum sokin buvad, seyum mutaharrik boyad, chi du sokin nashoyad, ki dar asnoi suxan jam shaved va on muallafo vatadi mafruq xonand. Va agar duyum ham mutaharrik buvad va seyum sokin, onro vatad majmu' xonand” [1: 24].

Tusiyning fosila juzvi haqidagi qarashlari ham qiziq: “Arab aruzida uch mutaharrik va bir sokin harfdan iborat juzv fosilayi sug'ro deb nomlanadi. Masalan, fa'ilun. Bu juzv

ikki sabab: sababi saqiyl va sababi xaffdan tashkil topgan. To'rt mutaharrik va bir sokin harflardan iborat juzv esa fosilayi kubro deyiladi. Masalan, fa'alatun. Bu juzv sababi saqiyl hamda vatadi majmu'dan tashkil topadi” (“Va dar aro'zi tozi (ya'ni arab) muallafero, ki az chahor harf buvad: se mutaharrik va chahorum sokin, fosilayi sug'ro xonand, misolash fa'ilun va on murakkab azz du sabab buvad: avval saqil va duyum xaff. Va muallafero, ki az panj harf buvad: chahor mutaharrik va panjum sokin – fosilayi kubro xonand, misolash fa'ilatun va on muallaf az sababe saqil va vatadi majmu' buvad va har du az ta'lifoti boshad” [1: 25]).

Shu o'rinda Nasiruddin Tusiy arab aruzida har olti juzvni o'z holicha qayd etib, sababi saqil, vatadi mafruq hamda fosilayi kubrolarni fors aruzidan chiqarib tashlashini ham kuzatamiz. So'ng juzvlarning har biriga ham arab, ham fors she'riyatidan xos misollar keltirib o'tadi.

Aruzshunoslikda sabab, vatad va fosila juzvlarining turli shakllarda qo'shilishi tufayli sakkiz rukn (afoyil) yuzaga keladi. Bu ruknlarning misra tarkibida muayyan qonuniyat asosida takrorlanib kelishi esa baytni hosil qiladi. Ana shu sakkiz asliy ruknlar quyidagicha ko'rinishga ega:

- 1) fauvlun – vatadi majmu' (V –) hamda sababi xaff (–)
- 2) foilun – sababi xaff (–) hamda vatadi majmu' (V –)
- 3) mafoiylun – vatadi majmu' (V –) hamda ikki sababi xaff (–) (–)
- 4) musta'ilun – ikki sababi xaff (–) (–) hamda vatadi majmu' (V –)
- 5) foilotun – sababi xaff (–), vatadi majmu' (V –) hamda sababi xaff (–)
- 6) mafoilatun – vatadi majmu' (V –) hamda fosilayi sug'ro (V V –)
- 7) mutafoilun – fosilayi sug'ro (V V –) hamda vatadi majmu' (V –)
- 8) maf'uvlotu – ikki sababi xaff (–) (–) hamda vatadi mafruq (– V)

Risolada juzvlar haqida ma'lumot berilgach, e'tibor ruknlarga qaratiladi. Muallif ruknlarni o'z nomi bilan ataydi, turkiy aruz ilmida, xususan, Navoiyda esa ular “afoyil” va “tafoiyl” tarzida keltirilgan. Tusiy to'rtinchi bobni ruknlar tahliliga bag'ishlaydi. Uning fikricha, faqat bitta juzvning takroridan yuzaga keladigan va aynan shu sababli asosiy ruknlar safiga kirmaydigan afoyillar tinglovchiga yoqimli emas. Masalan, to'rt harfdan iborat va sababning takrori tufayli yuzaga kelgan rukn yoki olti harfdan iborat va vatadning takroridan yuzaga kelgan rukn amalda qo'llanilmaydi. Tusiy shu jihatdan yettidan ko'proq harfdan tashkil topgan afoyillar asosiy ruknlar tarkibiga kirmasligi va iste'molda uchramasligini qayd etadi: “Va arkoni she'r ba'ze ba tab'and va onro usul xonand va ba'ze na chunon va onro furu' xonand. Vaa har ruki, ki az takrori juzve boshad, mulizz (guvoro) nabuvad va ba in sabab rubo'i (chorgona) va sudosirol (shashgonaro), ki az takrori asbobi (sababhoi) tanho yo avtodi (vatadhoi) tanho buvad, az usul nashumurand. Va har rukn, ki daroz shavad, ham muliza (guvoro) nabuvad az

jihati on ki iqtizzoi malolat nakunad va ba in sabab ziyodat az subo'i (haftgona) dar usul musta'mal nest" [1: 27].

Nasiruddin Tusi arab aruzida sakkiz afoyildan o'n asosiy rukn, fors aruzida besh afoyildan yetti asosiy rukn ishlatilishini yozadi: "Pas arkoni asli dar forsi haft as ba haqiqat panj dar lafz va on: fa'ulun va mafo'ilun, foilotun, mustaf'ilun, maf'ulotu ast. Va dar tozi dah ba haqiqat va hasht dar lafz, chi: foilun va mafoilun va mafoilun ham az usul ast" [1: 28]. Arab aruzida bular: fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, mufaalatun, mutafailun, maf'ulotu; fors aruzida esa fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun va mustaf'ilun.

Tusi risolasida Qays Roziy, Vohid Tabriziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburdan farqli ravishda asosiy ruknlarni doiraga yig'ib, ularning bir-biridan qanchalik farq qilishini ham ko'rsatib bergan. Bu haqda o'zi shunday deydi: "Va aro'ziyono odat boshad, ki istixroji in arkon az yakdigar ba fakk va tarkib bayon kunand va dar davo'ir (doiraho) vaz' kunand" [1: 28]. Shuningdek, "Me'yor ul-ash'or"da ruknlar xumosiyl va suboiyl ruknlarga tasnif qilinadi.

Birinchi doiraga Tusi fauvlun hamda foilun ruknlarini kiritadi. Misol tariqasida keltirilgan jumla "Bihiy kun" tarzida o'qilsa fauvlun, "Kun bihiy" tarzida o'qilsa foilun rukni kelib chiqishini aytadi: "Yak doira biguzarad bar vazni fauvlun

va foilun va bar o' navisand alomoti mutaharrik va sokin va ba izoi (ro' ba ro') on hurufu in kalima, ki "bihiy kun" to agar og'oz az "bo" kuni, "bihiy kun" bar havolli (atrofi) doira biguzarad bar vazni fauvlun. Va agar og'oz az "qof" kuni, "kun bihiy" boshad bar vazni foilun" [1: 28].

Keyingi ikki doira suboiyl ruknlardan tashkil topgan bo'lib, mafoiylun, mustaf'ilun va foilotun ruknlarini bir doiraga jamlaydi. Bu doiraga "du tan yakdil" kalimasini misol qilib kiritadi. Jumla "Du tan yakdil" tarzida o'qilsa mafoiylun rukni, "Yakdil du tan" tarzida o'qilsa mustaf'ilun rukni, "Dil du tan yak" tarzida o'qilsa foilotun rukni kelib chiqishini aytadi.

Keyingi doiraga esa mafoilatun hamda mutafoilun ruknlarini kiritib, "Badiy nakunam" jumlasini misol tariqasida beradi: "Va doirai digar jihati mutafoilun va mafoilatun binihand va bar o' navisand "Badiy nakunam", to har du rukn az o' xonda shavad" [1:29].

Juzv va ruknlarning risolada berilishini o'rganib chiqqach, muallif bu borada qanchalik ko'p ma'lumot berganiga guvoh bo'lamiz. Nasiruddin Tusi "Me'yor ul-ash'or"da juzvlar va asosiy ruknlar haqidagi fikrlarini batafsil va mukammal tavsiflab bergani tufayli, undan keyingi aruzshunoslar aruz nazariyasiga deyarli hech qanday yangi fikr qo'shmadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор. – Душанбе: Ориёно, 1992.
2. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. – Toshkent: Xazina, 1996.
3. Yusupova D. Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili: Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2019.
4. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
5. To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – Toshkent: Fan, 1985.
6. Гулиев Т. Трактат «Мийар ал-ашар» Насир ад-Дина Туси. Автореф. дис... кан. филол. наук. – Баку, 1990.

Mahbuba QUVONDIQOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

TEOLINGVISTIKANING UMUMBASHARIY AHAMIYATI VA O'RGANILISHI

Annotatsiya. Maqolada lingvistikaning nisbatan yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan teolingvistika, uning mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritib berilgan, teolingvistika sohasidagi izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar, fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: teolingvistika, tilshunoslik, leksika, din, tadqiqot, termin, lingvomadaniyat, e'tiqod.

Annotation. The article examines theology as one of the relatively new branches of modern linguistics. Its essence, relevance, and significance in the context of modern linguistic research are revealed. Information is presented on scientific developments in this field, as well as on scholars who have made significant contributions to the formation and development of theolinguistics as an independent scientific discipline.

Keywords: theolinguistics, linguistics, lexicon, religion, research, term, linguistic culture, faith.

Аннотация. В статье рассматривается теолингвистика как одно из сравнительно новых направлений современного языкознания. Раскрывается её сущность, актуальность и значение в контексте современных лингвистических исследований. Представлены сведения о научных разработках в данной области, а также об учёных, внесших значительный вклад в формирование и развитие теолингвистики как самостоятельной научной дисциплины.

Ключевые слова: теолингвистика, лингвистика, лексика, религия, исследование, термин, лингвокультура, вера.

Ilm-fan rivojlangani sayin tilshunoslikda ham yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Teolingvistika fani dastlab yaxlit holda o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik uni sohalarga bo'lib o'rganish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bugunga qadar teolingvistika bo'yicha bir qancha izlanishlar tadqiq qilingan, ilmiy maqola va kitoblar chop etilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalish hali uzluksiz tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu maqolada, avvalo, "teolingvistika" atamasining ma'nosini ochib berishga harakat qildik. Ma'lum bo'ldiki, ushbu atamaning ma'nosi maxsus soha doirasida o'rganilmagan, balki turli maqola, tezis va boshqa manbalar ichida keltirilgan. Ingliz yoki rus tillaridagi manbalardan tarjima qilingan. Hatto 35 mingdan ortiq so'zlarning ma'nolari jamlangan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham so'zning lug'aviy ma'nosi keltirilmagan. Berilgan barcha ta'rif va izohlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, teolingvistika – din va til xususiyatlarini o'zida birlashtirgan, ular orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi ilmiy yo'nalishdir.

Atama sifatida izohlanganda *teolingvistika* so'zi yunoncha "teo" – "Xudo" va "lingvistika" – til haqidagi fanning birlashishidan hosil bo'lgan. O.Mavlonov bu so'zga "diniy manbalar, ta'limotlar, muqaddas kitoblar va ularga yozilgan tafsir va izohlarning lingvistik jihatdan o'ziga xosliklari, uslubiyati va farqlarini o'rganuvchi tilshunoslikning bir tarmog'i" [7] deya ta'rif bergan. Uning fikricha, boshqa tillardagi izohli lug'atlarda – xoh u kitob shaklida bo'lsin, xoh u onlayn shaklida bo'lsin – *diniy tilni o'rganish* tarzida berilgan.

*Teolingvistika*ni termin sifatida dastlab belgiyalik olim J.P. van Noppen 1981-yili qo'llagan. 1995-yilga kelibgina angliyalik lingvist D.Kristal o'zi tuzgan ensiklopedik lug'atga so'zni lingvistik termin sifatida kiritgan [2]. J.P. Noppenning ta'kidlashicha, "keyinchalik inqilob darajasida baholangan diniy tilga bo'lgan qiziqish nafaqat din va ilohiyotda uzoq yillardan beri mavjud bo'lgan fundamental muammolarga ijobiy yondashuvni ta'minladi, balki ularning ilmiy asosda tahlil qilinishiga va samarali izlanishlar olib borilishiga ham sabab bo'ldi" [3: 1].

Rus teolingvistikasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim A.K.Gadomskiy fikriga ko'ra, teolingvistika "din va tilning o'zaro munosabati natijasida paydo bo'lgan, tillarda aks etgan diniy so'z va terminlar va ularning keng va tor doiradagi ma'nolarini o'rganuvchi fan" [4: 164]. Shuningdek, olim "teolingvistika" atamasi bir tomondan ikki mustaqil bilim sohalari (diniy ta'lim va lingvistika)ning mavjudligini nazarda tutadigan, boshqa tomondan ularning imkon qadar birikishini talab qiladigan ikkita tarkibiy qismdan tashkil topganini ta'kidlaydi" [5: 63].

Teolingvistika termini fanga kirib kelgunga qadar tilshunoslikda din, diniy marosimlar, unga bog'liq urf-odatlar va tillarning o'zaro munosabatlarini anglatuvchi "diniy til", "din tili", "sakral til", "diniy-ma'rifiy uslub", "konfessional til", "muqaddas til" kabi bir qancha so'z va iboralar mavjud edi. Ular bir-biriga sinonim emas, balki bir leksik guruhdagi terminlardir. Bu so'z va iboralar hozirgacha qo'llanilib kelinmoqda. Chunki ba'zi lingvistlar teolingvistika degan termindan foydalanishni ma'qul ko'rmaydi, yana boshqalari

bu faqatgina tilning funksional elementlaridan biri deb hisoblaydilar [8: 14].

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishni tadqiq etgan ilk olimlardan biri – professor M.R.Galiyevadir. U til va din o'rtasidagi o'zaro munosabatga to'xtalar ekan, bu masala lingvistik tadqiqotlar tarixining barcha bosqichlarida – xususan, Paninining sakkiz kitobi, arab tilshunosligi, Par-Royal grammatikasi, klassik va semit filologiyasi, ekzegetika va germeneytika, leksikografiya hamda tarjimashunoslikning shakllanishi jarayonlarida ham dolzarb bo'lganini ta'kidlaydi. Olimaning fikriga ko'ra, mazkur tadqiqotlarning vujudga kelishiga aynan diniy ehtiyojlar sabab bo'lgan. Jumladan:

- muqaddas diniy matnlarda qo'llanilgan o'lik va tirik tillar o'rtasidagi farqlarni izohlash zarurati;
- dinlarning turli xalqlar orasida yoyilishi uchun muqaddas matnlarni tarjima va talqin qilish ehtiyoji;
- ibodat tillarining muayyan din tarqalgan hududlarda asosiy aloqa vositasi sifatida ishlatilishi (masalan: veda, avesto, arab, grek, lotin, arman, qadimgi slavyan tillari) kuzatilgan.

So'nggi besh yillikda professorlar S.A.Karimov, M.X.Hakimov rahbarligi ostida sohaga doir bir qancha fundamental ahamiyatli tadqiqotlar amalga oshirildiki, ular sabab o'zbek tilida mavjud 5 ta uslub qatoriga oltinchi – diniy uslubni kiritish to'g'risida, O'zbekistonda teolingvistikaning rivojlantirish bo'yicha ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyatli konsepsiyalar shakllandi [10: 217]. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Turdiqulov Sherzod Duminovich "Teolingvistik g'oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi" maqolasida aytib o'tganidek, bugun o'zbek teolingvistikasi ilk shakllanish bosqichlarini boshidan o'tkazmoqda. Sohaga doir hal qilinishi lozim bo'lgan eng nozik masalalar qatorida o'zbek tilida mavjud diniy-e'tiqodiy leksika va ular qatori diniy uslub, diskursga aloqador unsurlarni islomiy e'tiqoddan chekinmagan tarzda yoritmoqni maqsad qilganmiz va o'ylaymizki, fan, uning ildizlari qayerda nishona bergan bo'lmasin – u dunyo dinlarining mavjud konsepsiyalarini inobatga olgan holda rivojlanmog'i shart [11: 23–24].

Tilshunos olim O.A.Mavlonov "O'zbekistonda teolingvistika" maqolasida diniy va lingvistik tadqiqotlarning o'zaro munosabatlari natijasida paydo bo'lgan teolingvistika bo'yicha yurtimizda olib borilgan izlanishlar haqida atroflicha ma'lumot bergan. Teolingvistikaning paydo bo'lishi, tilshunoslikda bir yo'nalish sifatida shakllanishi va rivojlanib borishi, yurtimizda olib borilgan bunday tadqiqotlar tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishiga alohida e'tibor qaratgan [8: 11]. M.R.Fayzullayevaning "Theolinguistics as a new scientific discipline" (Teolingvistika yangi ilmiy yo'nalish sifatida) maqolasida til va din o'rtasidagi bog'liqliklar, diniy omillarning tilda aks etishi hamda diniy til muammolarini o'rganuvchi tilshunoslikning yangi yo'nalishi teolingvistika fanining nazariy asoslari, tadqiqot obyekti, maqsad va vazifalari o'rganib chiqilgan. Xususan, muallif fan rivojiga katta hissa qo'shgan mashhur olimlarning mazkur fan

yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijalarini keltirish orqali fanning paydo bo'lish bosqichlarini xronologik ketma-ketlikda namoyon etadi [6: 17].

P.M.Masharov nomidagi Vitebsk davlat universiteti dotsenti A.A.Buyevich ham teolingvistika bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borgan hamda bu sohaga oid bir qancha maqolalar nashr ettirgan. "Theolinguistics as a new branch of linguistics" (Teolingvistika lingvistikaning yangi tarmog'i sifatida), "Статус концепта спасение с позиций теолонгвистики и лингвокультурологии" (Najot tushunchasining teolingvistika va lingvomadaniyat nuqtayi nazaridan o'rne) kabi maqolalari shular jumlasidandir.

Tor soha vakillari teolingvistikaning "otasi" deya e'tirof etadigan belgiyalik lingvist Jan Pier van Noppen va Rossiya Federatsiyasida teolingvistikaning asoschisi sifatida qaraladigan A.K.Gadomskiyning ilmiy ishlari bu sohada nihoyatda ahamiyatlidir. N.B.Mechkovskayaning "Til va din", A.K.Gadomskiyning "Rus teolingvistikasi: tadqiqotning tarixi, asosiy yo'nalishlari", V.I.Postovalovning "Zamonaviy inson bilishida teolingvistika: uning kelib chiqishi, asosiy g'oya va trendlari", D.Kristalning "Til va din", J.P. van Noppenning "Teolingvistika", "Metafora va din (Teolingvistika II)" asarlari ham muhim manbalardan hisoblanadi.

N.Raximova "Fanda o'zbek tili teonimlarining tadqiqi masalasi" maqolasida o'zbek teonimikasi bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar va teonimlarning tilshunoslikda

o'rganilishi haqida fikr yuritgan. Muallif teonimlar tilshunoslikning diniy muloqotni o'rganuvchi yangi yo'nalishi – teolingvistikaning shakllanishiga turtki bo'lganini aytib o'tgan. J.Omonturdiyev va A.Omonturdiyevlar hammuallifligida nashr qilingan "Ma'rifiy-irfoniy istilohlar" lug'atida diniy, diniy-falsafiy, diniy-ma'rifiy, diniy-dunyoviy bir ming besh yuzga yaqin leksemalarning izohi keltirilgan. Biroq teonimlarning ancha qismi kiritilmay qolgan [12: 195–197].

Ushbu maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad teolingvistika, uning mazmun-mohiyati va hozirgi kundagi ahamiyatini yoritib berishdan iborat edi. Bu yo'nalish nomi, kelib chiqishi, termin sifatidagi ma'nolari turli manbalardagi ma'lumotlar asosida keltirildi. Kichik tadqiqotimiz jarayonida biz duch kelgan asosiy muammolardan biri teolingvistika bo'yicha o'zbek tilidagi ilmiy manbalarning yetishmasligi bo'ldi. Mavjud ma'lumotlarning aksariyati ingliz va rus tillarida bo'lib, hatto ushbu yo'nalishda izlanish olib borgan o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ishlari ham asosan xorijiy tillarda nashr etilgan.

Xulosa qilib aytganda, teolingvistika hozirgi kunda faol tadqiq etilayotgan va ilmiy e'tiborni tortayotgan yo'nalishlardan biri. Bu boradagi dastlabki ilmiy izlanishlar, maqola va tadqiqotlar sohaning rivojidan dalolat beradi. Teolingvistika bo'yicha yangi maqolalar muntazam chop etilayotgani sohaga bo'lgan qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq mazkur yo'nalishda hali o'rganilishi zarur bo'lgan ko'plab masalalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyevich A.A. Theolinguistics as a new branch of linguistics. // The Youth of the 21st Century: Education, Science, Innovations. – Vitebsk: Vitebsk State P.M. Masharov University, 2014.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
3. J.P. Van Noppen. // Theolinguistics. – Brussel: Vrije Universiteit Brussel, 1981.
4. Гадомский А.К. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // Культура народов Причерноморья, №49. – Т.1. – 2004. – С. 164.
5. Fayzullayeva M.R. Teolingvistika yangi ilmiy yo'nalish sifatida. // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022. №5 (46).
6. Galiyeva M.R. Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi: Filol. fan. dok. diss. avtoref... – Farg'ona, 2019.
7. Mavlonov O.A. O'zbekistonda teolingvistika. // So'z san'ati, 2019, №5.
8. Narzullayeva D.B. History of the translation of the Quran into French. / In international conferences, 2023. Vol. 1, №2.
9. Turdiqulov Sh.D. Surxondaryo onomastik sathida teotonimlar. // Educational Research in Universal Sciences, 2022, №5.
10. Turdiqulov Sh.D. Teolingvistik g'oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi. // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim, 2024, №3.
11. Raximova N. Fanda o'zbek tili teonimlarining tadqiqi masalasi. // Tamaddun nuri, 2024, №8.

Ma'mura NORJITOVA,

Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti

MIFOLOGEMAGA DOIR NAZARIY QARASHLAR TALQINI

Annotatsiya. Maqolada "mifologema" atamasiga ta'rif berilgan, uning "arxetip" va "mifema" tushunchalaridan farqi izohlangan, mavzu doirasidagi ilmiy jihatdan noto'g'ri qarashlarning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan, mifologemaning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: mifologema, arxetip, mifema, mifopoetika, mif, obraz, sujet, motif, ramz, semantik, formal.

Annotation. The article defines the term "mythologeme" and explains its differences from the concepts of "archetype" and "mytheme". It analyzes the causes behind scientifically inaccurate interpretations related to the topic and highlights the theoretical and practical significance of the mythologeme in literary studies.

Keywords: mythologem, archetype, mytheme, mythopoetics, myth, character, plot, motif, symbol, semantic, formal.

Аннотация. В статье даётся определение термину «мифологема», разъясняются его отличия от понятий «архетип» и «мифема». Проанализированы причины возникновения научно некорректных взглядов по данной теме. Также освещено теоретическое и практическое значение мифологеми в литературоведении.

Ключевые слова: мифологема, архетип, мифема, мифопоэтика, миф, образ, сюжет, мотив, символ, семантика, форма.

Kitobxon badiiy adabiyot durdonalarini o'qir ekan, ko'p hollarda asardagi g'oya, voqea, obraz, motiv yoki detallarning ayni ma'no tashishi, bir-biriga o'xshash ekani ko'zga tashlanadi. Bu holat bir necha sabablar orqali izohlanadi:

- bashariyat tarixida vaqt o'tsa ham, dolzarbligini yo'qotmagan mavzularning mavjudligi (sevgi, yaxshilik va yomonlik, oila, urush, erkinlik va b.)

- adiblar bir-birining asarlari bilan tanishish jarayonida ulardan ilhom oladi yoki ularga qaytariq yozadi; Postmodernizmning xususiyatlaridan biri ham aynan shu sabab maydonga kelgan bo'lib, intertekstuallik nomi bilan yuritiladi.

- badiiy asar namunasi bitta manba asosida bo'lishi (misol tariqasida xalq og'zaki ijodi namunalarini keltirish mumkin);

- bir davrda yashagan yozuvchilar ko'pincha o'xshash ijtimoiy, siyosiy, falsafiy muammolarni badiiy jihatdan aks ettiradi. Bu esa bir-biriga o'xshash detal va syujetlarning paydo bo'lishiga olib keladi (masalan, urushdan keyingi travmalar, modernizm davridagi individualizm muammosi);

- badiiy asar janr xususiyatlari va qonuniyatlaridan kelib chiqib o'xshashliklar kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan sabablardan tashqari, turli makon va zamonda yozilishidan qat'iy nazar, asarlarning shakl-mazmun jihatdan yaqinligini ta'minlovchi yana bir omil arxetiplar (psixologiyada) yoki mifologemalarning mavjudligi.

Adabiy asarning tahlili va uni adabiy-nazariy jihatdan baholash uchun atamalar mohiyatini anglash muhimdir. Shu bois tanlangan atamalar ta'rifini bir necha tadqiqotlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Adabiyotshunoslik nazariyasida hali to'lig'icha ma'no-mazmuni ochib berilmagan tushunchalar mavjudligi faqat yagona nazariya bo'yicha xulosa qilib bo'lmashini anglatadi. *Arxetip* va *mifologema* ham hozirgi kunda shunday atamalar qatoriga kiradi. Ushbu mifopoetik komponentlar yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar yakdil xulosaga olib kelmasligi bilan xarakterlanadi. "Hozircha arxetip va mifologema haqida to'liq ishlab chiqilgan nazariya yo'q. Bu boradagi qarashlarni tizimlashtirishga Y.L.Shishovanning "Mifologema tushunchasini aniqlash haqida" maqolasida harakat qilingan" [6].

Arxetip atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "dastlabki obraz" ma'nosini anglatadi. Bu istilohni fanga birinchi marta shveysariyalik olim Karl Gustav Yung olib kirgan. Yana bir olim K.G.Yung analitik psixologiya nazariyasida ushbu atamani qo'llaydi. Keyinchalik esa boshqa fanlar doirasida, shuningdek, adabiyotshunoslikda ham ishlatila boshlaydi. Tadqiqotlarni o'rganish natijasida kelgan xulosamizga ko'ra, mazkur tushunchani mohiyatan to'g'ri anglamaslikka bir necha sabablar bor.

Avvalo, ko'p holatlarda adabiyotshunoslar "adabiy arxetip"ni psixologiya fanidagi tushuncha bilan chalkashtiradilar. Natijada, badiiy asar tahlili K.G.Yungning psixologik modeliga moslashtiriladi. Bu esa xato badiiy tahlilga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, arxetipga ortiqcha tafsilotlarni qo'shib yuborish ham tushunchaning mazmunini o'zgartirib yubormoqda. Masalan, aslida ramziy bo'lmagan detallarga ham ortiqcha ma'no berish va h.k.

Uchinchidan, *arxetip* atamasi universal bo'lib, o'zida umumiylik ma'nosini ham tashiydi. Ammo bu umumiylik noaniqliklarga sabab bo'lmoqda. Misol uchun, *arxetip* va *mifologema* atamalari bir xil ma'noni bildiruvchi sinonimlardir, degan qarashlar aynan mana shu mavhumlik tufayli yuzaga kelmoqda.

Mifologema atamasi G'arbiy Yevropa va Amerikada XX asr boshlarida mifologik va psixologik maktablar dorasida qo'llana boshlaydi. Keng miqyosda ishlatilishi 1930–1950-yillarga to'g'ri keladi. Rossiya ilm-fanida esa o'tgan asrning 90-yillarida muomalaga kira boshlagan [5: 14–16]. Atamani ilk bor J.Freyzer kiritgani haqida qarashlar mavjud. "Ayrinim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, birinchi marta K.G.Yung va K.Kerenlar tomonidan hammualliflikda yaratilgan "Mifologiya mohiyatiga kirish" (1941) monografiyasida qo'llangan" [4: 36]. Mazmuniga ko'ra, atama mohiyatini *arxetip* bilan solishtirgan holda ochish o'rinli. Rus adabiyotshunosi Tegin mifologemani "mifologiyadan ongli ravishda olingan, zamonaviy badiiy madaniyat olamiga ko'chirilgan tushuncha (tasvir, motiv)", deydi. E'tiborni tortgan so'z – *ongli*. Chunki arxetip tushunchasiga ongsizlik xususiyati xos. "Ma'lum bir millatga xos jamoaviy ongsizlik hodisasi sifatida arxetip g'oyasi birlamchi arxetipning hosilalari sifatida ixtisoslashgan tasavvurlar bilan birga mavjud va bu tabiiy" [6]. Tadqiqot muallifining "tabiiy" deya izohlashiga sabab, ko'pgina ijodkorlarda ijod jarayoni ongsiz yuzaga keladi, ya'ni real hayotni emas, balki kelajakdagi voqelar, xavf-xatarlarni kitobxonga yetkazadilar. Misol tariqasida Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi ko'zgu, suvosti moslamasi yuruvchi zina va boshqalar kelajakni bashorat qilgandek ko'rinishi shunchaki tasodif emas. Ijodkorlar har bir zamonda oddiy insonlardan bir qadam oldinda fikr yuritishi o'z tastig'ini topgan. Bundan tashqari, arxetiplik ajdodlardan avlodlarga o'tib keluvchi dastlabki xususiyatlarni o'zida tashishi bilan ham ongsizlikni kasb etadi. Rus adabiyotshunoslari arxetip va mifologemani farqlashda ongsizlik va onglilik tushunchalarini o'rta tashlaydilar. Ammo ispan filologi A.Alvares de Miranda mifologemalarni "miflarda namoyon bo'lgan intuitiv yoki ongli maxsus tasvirlar" deb hisoblagani bu nazariyaning xato ekanini isbotladi. Mifologemalar ongli va ongsiz tarzda yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ayni damda ziddlik ham hosil qiladi. Arxetip – muayyan millatga xos kollektiv ongsizlik fenomeni sifatida umumiy "genetik" kodga asoslangan adabiy (madaniy) makonning shakllanishi bilan bog'liq. Bu makon "adabiy ongsizlik" va "madaniy xotira" jarayonlari orqali rivojlanadi [3: 5–14]. Mifologema esa faqat mifga xos tushuncha bo'lib, mifning asosiy yadrosini tashkil etadi. Ba'zan atamaga nisbatan "mifning kichik ko'rinishi" o'xshatishlari ham beriladi.

Tadqiqotlarda mifologemaga nisbatan mifning elementi sifatida qarash mavjud. Lekin mifologemalar mifning eng asosiy birligi bo'lib, o'qilganda butun boshli mifni eslatishi lozimdir. Shu boisdan, uni shunchaki mifning birligi deyish maqsadga muvofiq emas. Mifning birligi yoki elementi deganda, mifologik syujet, motiv, timsol, obraz, xronotop va boshqalar tushuniladi. Birliklar esa ma'no (semantik) va shakl (formal)larga bo'linadi. Mifning shakli birliklari mifemalar deb yuritilsa, ma'noviy birliklar mifologemalarda mujassamlashadi. Adabiyotshunoslikda mifema ham mazmun bildirishi kuzatiladi. Mifemaning mifologemaga qaraganda tor ma'no tashishi, mifning eng kichik birligi bo'lgani ular o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Demak, mifemadan mifologemalar, mifologemalardan miflar tashkil topadi. Shu sababli, mifologemaga ta'rif berishda birlikning xususiyatlaridan kelib chiqish tushunchaning to'g'ri ifodalanishiga xizmat qiladi. Mifologemaning yana bir o'ziga xos jihati xalqlarda turlicha bo'lishidir. Arxetiplar insoniyatga tegishli, umumbashariy mifologemalar esa ma'lum millat xalqlarining qadriyatlarini anglatadi. "Mifologema, arxetipdan farqli ravishda, etnosga xos xususiyatga ega. Har bir etnos esa o'ziga xos mifologemalar to'plamiga ega. Masalan, "dunyo daraxti" arxetipi turli mifologiyalarda

quyidagicha ifodalanadi: Misr mifologiyasida – sikomora hayot daraxti; hind mifologiyasida – kadamba daraxti; Skandinaviya mifologiyasida – Yggdrasil daraxti" [6].

O'rganilgan tadqiqotlar natijasida mifologema deb ijodkorning ongli yoki ongsiz ravishda qo'llagan, bir necha mifemalarni o'z ichiga oluvchi, muayyan xalq milliy qadriyatlarini o'zida aks ettiradigan, mifning mazmunini tashiydigan, eng asosiy mifopoetik komponentlardan biriga aytiladi. Rivojlanib borayotgan dunyoda insoniyat turmush tarzining sun'iy lashuvi, o'zligini yo'qotishi yoki anglamasligi achinarli holdir. Inson boshqa mavjudotlardan dastlab tili (Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq, yo'q ondin [7]) keyinchalik ongli yaratq ekanligi bilan farqlandi. Globallashuv, fan-texnikaning takomillashuvi shuni ko'rsatdiki, bashariyatga xos xususiyat faqatgina so'zlashuv va aql-idrokli bo'lish emas. Sun'iy intellekt misolida bu yanada anglashildi.

Insonning insonligini namoyon etuvchi asiy omil ruhiyat, his-tuyg'ulardir. Inson ruhiyatini, o'zligini saqlab qolishda badiiy asarlarda qo'llanuvchi, asliyatga qaytishga chorlovchi mifologemalarning ahamiyati har qachongidan ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Большакова А.Ю. Архетип миф и память литературы Текст). // Материалы международной заочной научной конференции "Архетипы, мифологемы, символы в художественной картине мира писателя". Астрахань: Изд. Дом Астраханский университет, 2010.
4. Rahmatullayev N. Nazar Eshonqul nasri mifopoetikasi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss... – Samarqand, 2024.
5. Телегин С.М. Термин «мифологема» в современном российском литературоведении (Текст). / Материалы международной заочной научной конференции "Архетипы, мифологемы, символы в художественной картине мира писателя". Астрахань: Изд. Дом Астраханский университет, 2010.
6. Архетип и мифологема. <https://james-joyce.ru/articles/kategoriya-mifologicheskogo-vremeni6.htm>.
7. Adiblar bir-birining asarlari bilan tanishish jarayonida ulardan ilhom oladi yoki ularga qaytariq yozadi. Aynan shu hodisa intertekstualik – postmodernizmning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/sozdurki-nishon-berur-olukka-jondin>.

Maysara PO'LATOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

OGAHIYNING "USTINA" RADIFLI G'AZALIDA SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiyning "Ustina" radifli g'azali badiiy va mazmuniy jihatdan ko'rib chiqiladi, g'oyaviy yo'nalishi va estetik qiymati haqida fikr yuritiladi. G'azalda ishlatilgan badiiy vositalar, she'riy san'atlar va obrazlar tizimi, shuningdek, shoirning poetik mahorati va tasvir uslubi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ogahiy, "Ustina", g'azal, radif, badiiy tahlil, kitobat, talmeh, takrir, tasvir, mumtoz adabiyot.

Annotation. This article examines the ghazal with the radif "Ustina" by Muhammad Rizo Ogahi, a prominent representative of 19th-century Uzbek classical literature, from both artistic and semantic perspectives. It explores the ideological direction and aesthetic value of the poem. Furthermore, the study analyzes poetic and stylistic devices, the system of imagery, and highlights the poet's mastery of language and descriptive style.

Keywords: Ogahiy, "Ustina", ghazal, radif, literary analysis, calligraphy, talmeh, takrir, description, classical literature.

Аннотация. В данной статье рассматривается газель с радивом «Устина» Мухаммада Ризы Огахи, выдающегося представителя узбекской классической литературы XIX века, с художественной и смысловой точек зрения. Обсуждаются идейное направление и эстетическая ценность газели. Кроме того анализируются художественные средства, поэтические приемы и система образов, а также поэтическое мастерство автора и стиль описания.

Ключевые слова: Огахий, «Устина», газель, радив, художественный анализ, каллиграфия, талме, тақрир, описание, классическая литература.

XIX asrda o'zbek adabiyoti yuksak taraqqiyot cho'qqisini zabt etdi. Bu davrda ijod qilgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek g'azalchiligini yuqori bosqichga olib chiqdi. Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ilgan. Otasi ning vafotidan keyin amakisi Munis uni o'z tarbiyasiga oladi. Shoir boshlang'ich ma'lumotni Qiyot qishlog'ida oladi, keyinchalik Xiva madrasalarida o'qib, arab va fors tillarini, tarix ilmini o'rganadi. U "Ogahiy" (ogoh – ziyrak, xabardor) taxallusi bilan ijod qilgan. Shoir, tarjimon, tarixnavis, jamiyat arbobi sifatida o'zi yashagan davrda hurmat-e'tibor qozongan. 500 ga yaqin g'azali, o'nlab muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasidalar, fors tilidagi she'rlari, ko'plab tarjimalari 6 jildli kitob holida chop etilgan. U barakali va sermahsul ijodi hamda so'z qo'llashdagi mahorati bois Navoiyga qiyoslanadi [1: 25].

Uning she'riyati tasviriylik, falsafiylik va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Asarlarida badiiy obrazlar xilma-xilligi kuzatiladi. Adabiyotshunoslikda "badiiy obraz" atamasi ham keng, ham tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda "badiiy obraz" deganda borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning asosida inson obrazi turadi, chunki borliqning o'zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning bu yo'ldagi asosiy vositasi inson obrazi bo'lishi tabiiy [2: 73].

"Ustina" radifli g'azalida oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali insoniy tuyg'ular, muhabbat, adolat, dunyo g'am-tashvishlari va ruhiy iztiroblarni ifodalaydi. Radif – "ustina" – doimiy ravishda ohang va mazmunni bog'lovchi kuch. G'azaldagi so'z qo'llash mahorati, qofiyadosh so'zlarning estetik did bilan tanlanishi hamda she'riy san'atlarni o'z o'rnida qo'llay olishi shoirning nechog'li yuksak iqtidor sohibi ekanidan dalolatdir. G'azal matlasida arab alifbosidagi "nun", "sod" harflarini bir-biriga bog'lab "nas" (hukm) so'zini hosil qiladi va kitobat san'atini o'zgacha mohirlik bilan aks ettiradi:

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun "nas" keltirur "nun" eltibon "sod" ustina.*

Shoir oshiqlikni o'lim bilan tenglashtiradi. Yorning chiroyli, ammo jalloddek o'tkir nigohi oshiqni go'yo Qur'ondagi harflar bilan qatlga hukm qilayotgandek ta'rif beradi. Tasvir arab alifbosidagi harflardan so'z o'yini qilingan. "Mushkin qosh" – egri va chiroyli qosh, "jallod" – qatl etuvchi, "nas", "nun", "sod" – badiiy uslub sifatida qo'llanilgan [3: 36].

*Qilg'il tamosho qomati, zebosi birla orazin,
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.*

Yuqoridagi baytda yorning qomati shamshod daraxtiga, yuzi esa gulga qiyoslanadi. Ogahiy *payvand* so'zini qo'llash orqali yorning gul yuzi uning shamshod daraxtidek tik qomatiga munosibligini istiora san'ati orqali ta'riflaydi. Bu baytda Sharq she'riyatiga xos tashbeh va parallelizm mavjud bo'lib, "payvand" – bog'lanish, ulanish, "shamshod" – tik, chiroyli daraxt bo'lib, majozan qomatga qiyoslanadi [3: 37].

*Noz-u ado-vu g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.*

Bu baytda yorning har bir harakati, ya'ni noz, ado, g'amzasi har nafasda oshiq joniga qasd qilayotgandek ta'rif etiladi. Shoir biroz hayrat va yengil kinoya bilan bir inson boshida bu qadar ofat jam bo'lishi mumkinligini tajohuli orif san'ati orqali ifodalashga urinadi. Baytda qo'llangan *noz, ado, g'amza* so'zlari – nazokatli harakatlar, ko'z ishorasini anglatadi.

*Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.*

Mazkur baytda esa yorning go'zalligidan shoir xasta bo'lgani va bu dard bilan jon saqlash qiyin ekanini yozadi. Yorning nigohlari uni har lahza qiynaydi. Ogahiy bu baytda "qotil" so'zini shunday mahorat bilan qo'llaganki, baytni o'qish barobarida salbiy ma'no anglashiladigan so'z ijobiy ma'noga o'zgarib, yorning go'zalligiga ishora qiladi. Baytda *bedod* (shafqatsiz, zolim, zulm beruvchi) so'zi takrorlanib, takrir san'atini yuzaga keltiradi.

*Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav faryod ustina.*

Oshiq kecha-yu kunduz gul yuzli yor husniga shaydo bo'lib, bulbuldek faryod chekadi. Bu yerda bulbul va gul obrazlari orqali muhabbat izhor etiladi. Baytda *tazod*, *tanosub*, *tashbeh* san'atlaridan unumli foydalanilgan [4: 98].

*Boshimg'a yoqqon g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.*

Shoir o'z dardini Farhod dardiga qiyoslaydi. Farhodning Shirin ko'yida chekkan mashaqqatlari o'z dardining mingdan biriga teng bo'lolmasligini aytadi. Agar osmondan minglab Besutun tog'lari yog'lsa ham, bu Farhod uchun shoir chekkan g'amning bir tomchisiga teng bo'lmasligini

mubolag'a san'ati orqali ifoda etadi [4: 89]. Farhod va Besutun nomlari keltirish orqali talmeh san'atini qo'llaydi.

*Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.*

Shoir yordan chekkan jafolar sabab Allohga "Quyosh yer yuziga nurini teng sochgani kabi sen ham jumla insonga birdek karam aylagin, yorning hajri emas mehridan bahramand etgin", – deb nola qiladi. Bu adolat va rahm-shafqat g'oyasining ifodasi bo'lib, ushbu baytda nido, tazod hamda quyosh yer yuziga teng nur sochishi misolida tamsil san'atidan foydalanilgan.

*Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.*

Shoir ushbu baytda jami insonga xitob qilgandek, dunyoning o'tkinchi, hayot abadiy emasligini eslatadi. Doim g'am-alam chekib yashamasdan, sayr etib dunyo go'zalliklarini ko'rishga undaydi. Insonlarga tashvishlari bilan ovora bo'lib, hayot go'zalliklarini unutib yubormasliklarini uqtiradi. Baytda tashbeh va talmeh san'atidan foydalanilgan.

*Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zori noshod ustina.*

Shoir g'amgin, ezgin holida ham qayta-qayta g'amlar uyuri unga hujum qilishdan to'xtamaganini aytadi, ammo jur'at topib bir so'z demoqni istaydi. Bu baytda ichki ruhiy holat, she'riyatga ichdan kelgan ehtiyoj aks etadi. Ogahiy bu misralar orqali insonni har qanday holatda ham yashashga, kurashishga undaydi. Ogahiy she'riyati janri va ko'lami keng. Mavzu nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak ham bu merosda o'ziga xos rang-baranglikni ko'ramiz. Mashuqaning go'zal husn-u jamoli ta'rifi, oshiqning turli holatdagi ruhiy kechinmalari tavsifidan iborat an'anaviy muhabbat mavzusi, axloqiy-ta'limiy, hayotiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masala va muammolar ijodkor uchun asosiy mavzu bo'lib hisoblangan [5: 19].

Ogahiyning barcha ijod namunalari o'z zamonasining ruhiy, estetik va falsafiy olamidan guvohlik beradi. G'azallarining har bir baytida chuqur ma'no, obraz va badiiy san'atning mavjudligi uning ijodkor sifatidagi mahoratidan dalolatdir. Shunday ekan, uning asarlari mumtoz adabiyotimizda o'ziga xos o'rin egallaydi hamda zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dolimov S. Ogahiyning hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan, 1963.
2. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004.
3. Ogahiy. Devon (Nashrga tayyorlovchi S. Dolimov). – Toshkent: O'qituvchi, 1972.
4. Hamroyev M., Sariyev Sh. Adabiyot fanidan ma'lumotnoma. – Toshkent: Yangi kitob, 2020.
5. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur Gulom, 2018.

Gulnora UMAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

"HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA TALMEH BADIY SAN'ATINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Maqolada "Hayrat ul-abror" dostonidagi talmeh badiiy san'atiga namunalar keltirilib, ularning asardagi ahamiyati ko'rib chiqiladi, dostonning ta'sir kuchini ochib berishdagi o'zni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: "Hayrat ul-abror", talmeh, Farhod, Masih, badiiy san'at.

Annotation. The article provides examples of the use of allusions as a literary device in the poem "Hayrat ul-abror". The semantic load of allusions in the structure of the work is considered, and their functional role in enhancing the ideological and emotional impact of the poem on the reader is analyzed.

Keywords: "Hayrat ul-abror", talmeh, Farhad, Messiah (Masih), artistic art.

Аннотация. В статье представлены примеры использования аллюзий в качестве художественного приёма в поэме «Хайрат уль-аброр». Рассматривается семантическая нагрузка аллюзий в структуре произведения, а также анализируется их функциональная роль в усилении идейно-эмоционального воздействия поэмы на читателя.

Ключевые слова: «Хайрат уль-Аброр», тальмех, Фархад, Мессия (Масих), художественное искусство.

Alisher Navoiy "Xamsa" dostoni orqali turkiy mumtoz adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. Xususan, "Hayrat ul-abror" dostoni Navoiy ijodining mazmun va shakl jihatidan yetuk namunasidir. Asarda rang-barang tasvir va ifoda usullari, falsafiy qarashlar, diniy-

mistik g'oyalar bilan bir qatorda, badiiy san'atlar, xususan, talmeh san'ati keng qo'llanilgan. Biz "Hayrat ul-abror" dagi talmeh san'ati qo'llangan baytlarni tahlil qildik.

Talmeh san'atiga Y. Ishoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobida quyidagicha ta'rif berilgan: "Talmeh (arabcha:

“chaqmoq chaqishi”, “bir nazar tashlamoq”) mumtoz she'riyatda keng qo'llanilgan ma'naviy san'atlardan biridir. Bu badiiy san'at shoirga bir ishora bilan chuqur ma'no ifodalash imkonini beradi. Ijodkorga tarixiy va afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mo'jaz holda kuchaytirish uchun imkon tug'diradi” [2: 198]. Demak, talmeh san'ati baytda mashhur bo'lgan, hamma taniyidigan tarixiy shaxs, joy, voqea nomlarini keltirib o'tish ekan. Bu orqali shoir o'z ichki kechinmalarini, aytishni istagan fikrini o'quvchiga yaxshiroq yetkaza oladi.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida talmeh san'atidan keng va yuksak mahorat bilan foydalangan. Asarda Qur'oni Karimdagi voqealar, hadislar, islom tarixidagi shaxslar orqali dostonning badiiy va falsafiy qatlamlarini boyitadi.

Misollar:

*Tiyr iligida ne qalam, ne raqam,
Balki raqam oyati “Jaffal-qalam”* [1: 18].

Jaffal – qalam Qur'on va diniy manbalarda nomi tilga olingan tushuncha bo'lib, taqdiri azalni anglatadi. Demak, baytda diniy-mifologik ma'no bor, o'quvchi esa buni to'g'ri tushunishi uchun diniy kontekstdan xabardor bo'lishi kerak. Jaffal o'quvchini diniy-badiiy kontekstga yo'naltirgani uchun talmeh san'ati qo'llangan deya olamiz.

*Dalvg'a Yusuf kibi solmay nazar,
Hutda Yunus kibi qilmay maqar* [1: 44].

Ma'nosi: Yusuf kabi dengizga qarab ko'rma, Yunus kabi baliq qornida yashama.

Bu baytda shoir Yusuf va Yunus payg'ambarlar hayotidagi voqealar, ya'ni: Yusuf payg'ambarning birodarlari tomonidan quduqqa tashlangani, Yunus payg'ambarning esa baliq qornida qolib, tavba qilganiga ishora qilinmoqda. Shoir ularni batafsil hikoya qilib bermaydi, balki o'quvchi bu nomlarni eshitganida o'zi tushunishi, tag ma'nosini anglashini istaydi.

*Xusrav o'lub mulk etib obod ham,
Yolg'izim Xusrav dema, Farhod ham* [1: 48].

Bu bayt ustozlar madh etilgan bobdan parcha bo'lib, bobda Navoiy Dehlaviy va Ganjaviyini ta'riflagan. Bu o'rinda ham Xusrav va Farhod nomlari ular bilan bog'liq mashhur hikoyalar va ramzlarni eslatadi.

Xusrav (Xusrav Dehlaviy yoki Xusrav Parviz) – ishqiy hikoyalarda podshoh, shon-sharaf timsoli. Farhod esa sadoqat va fidoyilik timsoli.

Shoir ular haqida batafsil hikoya qilib bermayapti, balki ularning nomini eslatish orqali o'quvchi xayolida tillarda doston bo'lgan ishqiy afsonalarni uyg'otmoqda. Shu orqali har ikki ustozning so'z mulkida podshoh ekanligini tasvirlamoqchi. Xusrav va Farhod nomlari ishqiy

dostonlarga, tarixiy ramzlarga ishora qilib, qo'shimcha ma'no yuklaydi.

Navoiy talmeh san'ati orqali asarni nafaqat badiiy, balki didaktik jihatdan ham boyitadi. O'quvchini tarixiy va diniy voqealarni eslatish bilan birga, o'sha voqealardan ibrat olishga, o'z hayoti haqida chuqur tafakkur qilishga undaydi.

*So'zdin etib o'tg'a azimat Xalil,
So'z yukiga homil o'lub Jabroil* [1: 58].

Ma'nosi: Xalil so'zga ergashib, o'tga tushishga jur'at qildi. Jabroil (farishta) so'z yukini ko'tarib keldi, ya'ni vahiy olib keldi.

Bu yerda ikki mashhur diniy obraz eslatilgan:

1. Xalil – Ibrohim alayhissalom. U Allohning buyruqlariga bo'lgan sadoqati bilan mashhur (masalan, o'tga ham tashlangan) [3].

2. Jabroil – vahiy olib keluvchi bosh farishta.

Shoir bu nomlarni tilga olib, Qur'oni Karimda bayon etilgan voqealarga va diniy ramzlarga ishora qilmoqda. Lekin bayt ma'nosini anglash uchun o'quvchi bu voqealardan xabardor bo'lishi kerak.

*Tushsa-vu Rustam kibi qilsa xirom,
Taxt uza Jamshiddek etsa maqom* [1: 72].

Mazkur bayt Abulg'ozil Sulton Husayn Bahodirxon ta'rifi keltirilgan bobdan olingan. Navoiy podshohni ta'riflar ekan, Rustam va Jamshid obrazlaridan foydalanadi. Rustam obrazi Sharq adabiyotida, ayniqsa fors-tojik eposida juda mashhur. U asosan “Shohnoma” asari bilan tanilgan. “Shohnoma” – fors shoiri Firdavsiy (taxminan 940–1020-yillar)ning fors xalqining milliy eposiga aylangan asari. Unda qadimiy podshohliliklar, afsonaviy qahramonlar, janglar, sevgi va xiyonat hikoyalari tasvirlanadi. Rustam obrazi aynan “Shohnoma” orqali XI asrda adabiyotga kirib kelgan. Ammo undan ham avval xalq og'zaki ijodi, afsona va rivoyatlarda yashab kelgan. U kuch-qudrat, jasorat, fidoyilik timsoli o'laroq ko'plab janglarda, jumladan, Eron va Turon o'rtasidagi kurashlarda asosiy qahramon bo'lgan. Rustamning Raxsh nomli oti bo'lgan. Raxsh – afsonaviy ot, u ham egasi kabi kuchli, dono va sadoqatli. Ularning birga tasvirlanishi Rustam obrazini yanada ulug'laydi.

Jamshid – “Shohnoma”dagi afsonaviy podshohlardan biri, ba'zan uni “Jam” deb ham atashadi [4: 220]. U Eronda (forslarda) eng buyuk va mashhur shohlardan hisoblangan. Hukmronlik yillarida dunyo gullab-yashnagan, odamlar tinch va farovon yashagan. Ba'zi rivoyatlarda u odamlarga ilm-fan, hunarmandchilik, kiyim tikish, zargarlik, daryo va dengizdan foydalanish sirlarini o'rgatgan shoh sifatida tilga olinadi. “Shohnoma”da keltirishicha, zulm va yovuzlikka yo'l qo'ymagan. Temirchilik, zargarlik, to'qimachilik, dorishunoslik kabi hunarlarni rivojlantirgan. Adabiyotda “Jamshid taxti” deb ataladigan sehrli taxti bo'lgani, u orqali osmonga ko'tarilgani bilan bog'liq rivoyatlar ham bor. Bundan tashqari, “Jomi

Jam" (Jamshid jomi) ham nasr va nazmda ko'p uchraydi. Mumtoz adabiyotda o'z ma'nosiga ega bu iboraning kelib chiqishi zardushtiylar tarixiga borib taqaladi. Chunki "Avesto" matnlarida Jamshid odamlar uchun baxtiyorlik va farovonlik ta'minlangan davlatni boshqargan shohligi aytilgan hikoyatlar bor.

*Gar ko'rubon chobuki siyimintane,
Xandayi Shirin bila sho'rafkane.
Dardu balo tog'ida Farhod o'lub,
Tirnog'anga teshayi po'lod o'lub.
Yo yo'luqib mohruxi dilkashe,
Dashti malohat aro Laylivash-e.
Ishqida sargashte chu gardun o'lub,
Dard biyobonida Majnun o'lub.
Sokin o'lub o'tda samandar kibi,
Go'ta urub suv aro gavhar kibi [1: 76].*

Bu misralarda Shirin, Farhod, Majnun, Layli, Samandar obrazlari talmeh badiiy san'atini yuzaga keltirmoqda. Farhod – "Farhod va Shirin" dostoni qahramoni bo'lib, muhabbati yo'lida tog'ni teshib suv chiqargani she'rlarda ko'p qalamga olinadi. U sabr-matonat, fidoyilik, muhabbat yo'lida mashaqqatga dosh bergan.

Shirin – "Farhod va Shirin" dostonidagi go'zal qiz. Baytda kulgusining go'zalligi tasvirlangan.

Layli – "Layli va Majnun" dostonining qahramoni. Adabiyotda go'zallik va yetishib bo'lmas visol ramzidir. Bu yerda Laylivash – *Layliga o'xshash* degan ma'noda ishlatilgan.

Majnun – "Layli va Majnun" dostonida Layliga bo'lgan muhabbati uchun aqlini yo'qotgan, sahroda yovvoyi hayot kechirgan oshiq. Bu yerda Majnun dard biyobonida halok bo'lishi tasviri orqali ishq yo'lida tamoman halok bo'lgan oshiq timsoli berilgan.

Samandar – Sharq afsonalarida o't ichida yashaydigan, o'tda kuymaydigan afsonaviy jonivor sifatida tilga olinadi [4: 544]. U metaforik sabr, chidam, poklanish ramzi.

*Sandalining atri Masiho dami,
Andin o'luk misli Masih odami [1: 80].*

"Masih" – Iso alayhissalomning yana bir nomi [4: 368]. U islomiy va xristian manbalarda o'likka jon bag'ishlovchi, pok, najotkor shaxs sifatida tilga olinadi. Bu misrada Masih obraziga ishora qilish orqali o'likni tiriltirish mo'jizasi

eslatilgan. *Masih odam(i) – Masih tiriltirilgan inson* degani. Baytga ko'ra sandal daraxtining atri (hid, nafasi) shunchalik yoqimli ekanki, Masihning nafasi kabi shifobaxsh deyish mumkin. Hatto o'lik ham undan tirilsa ajabmas.

"Hayrat ul-abror" diniy-falsafiy dostonida talmeh san'atidan foydalanish uchun Qur'oni Karim oyatlariga murojaat qilinadi. Unda payg'ambarlar hayoti ayrim joylarda asl holicha hikoya qilinadi, ba'zi hollarda esa ushbu voqealar didaktik (o'git beruvchi) maqsadda ifodalanadi. Shu bois, ba'zida tarixiy yoki afsonaviy nomlarning ishlatilishi baytda talmeh badiiy san'atini yuzaga keltirmagan bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlarda buni bayt mazmunidan anglash mumkin bo'ladi. Quyida bu masala batafsil ko'rib chiqiladi.

Agar shoir Qur'on voqealarini ochiqdan ochiq hikoya shaklida aytib bersa, bu holat asosan talmeh emas, mazmun ifodasi hisoblanadi. Chunki talmeh bo'lishi uchun yashirin ishora bo'lishi, o'quvchi yoki tinglovchi uni anglab olishi, topishi kerak.

Agar shoir Qur'on voqealarini to'liq tushuntirmasdan, faqat qisman va ishora tarzida tilga olsa, bu holatda talmeh yuzaga keladi. Chunki bunday ifoda o'quvchidan ushbu voqeani ilgari bilgan bo'lishini, uni anglab olishini talab etadi. Aynan shu yashirinlik va anglash jarayoni talmeh san'atining asosini tashkil etadi.

Diniy manbaga asoslanishning o'zi yetarli emas. Talmeh bo'lishi uchun shoir yashirincha ishora qilishi, o'quvchi esa bu ishorani anglab olishi kerak. Yana ham aniqroq tushuntiradigan bo'lsam, agar shoir shunchaki "Odam va Havo" voqeasini to'liq hikoya qilsa, bu talmeh emas, voqea bayonidir. Agar "*Odam tuproqdan yaratildi, gunohi bois jannatdan quvildi*" deb to'g'ridan to'g'ri sharhlasa, bu talmeh emas. Lekin "*Odaming kibrini esla, ey inson!*" deb yozsa va bu orqali Odam Ato voqeasiga ishora qilsa, voqea yashirin bo'lsa, bu talmeh sanaladi. "Hayrat ul-abror"dagi barcha diniy hikoya yoki Qur'on oyatlari talmeh hisoblanmaydi. Talmeh bo'lishi uchun ular yashirin, ishoraviy, ochiq aytilmagan shaklda berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"da talmeh san'atidan mahorat bilan foydalanib, asarga ko'p qatlamli ma'no beradi. Yuqorida bir nechta baytlarnigina tahlil qilib o'tdik, aslida asarda bunday misollar juda ko'p. Talmeh san'ati orqali Navoiy asarining badiiy-estetik va didaktik qiymatini oshirib, uni o'z davrining, hatto bugungacha butun Sharq adabiyotining durdonalaridan biriga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2020.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning o'zbek tilidagi tarjimasi (Anbiyo surasi 69-oyat tarjimasi). – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022.
4. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.

Dilafro'z JABBOROVA,

*Samarqand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI POETIKASI TALQINI

Annotatsiya. Maqolada taniqli adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonovning Abdulla Qodiriy ijodi haqida turli davrlarda olib borgan ilmiy kuzatishlari o'rganiladi. Olim kuzatishlarida asosiy e'tibor badiiy mahorat masalasiga qaratilgani, adibning xarakter yaratishdagi o'ziga xosligi, badiiy asarni baholashda sujet va kompozitsiyaning nazariy muammolariga e'tibor qaratishi bir qator tahlillar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: munaqqid, tahlil, talqin, baholash, sujet, kompozitsiya, struktura.

Annotation. The article examines the scientific observations of the prominent literary scholar Matyoqub Qushjanov on Abdulla Qodiriy's work in various periods of his activity. Special attention is paid to the analysis of the writer's artistic skill, his individual approach to creating literary images. The researcher's interest in the theoretical aspects of the composition and plot organization of the work is also emphasized, which serves as a basis for a better interpretation of Abdulla Qodiriy's artistic originality.

Keywords: critic, analysis, interpretation, evaluation, plot, composition, structure.

Аннотация. В статье рассматриваются научные наблюдения видного литературоведа Матъёкуба Кушжанова, посвящённые творчеству Абдуллы Кадыри в различные периоды его деятельности. Особое внимание уделяется анализу художественного мастерства писателя, его индивидуального подхода к созданию литературных образов. Также подчёркивается интерес исследователя к теоретическим аспектам композиции и сюжетной организации произведения, что служит основанием для лучшей интерпретации художественного своеобразия Абдуллы Кадыри.

Ключевые слова: критик, анализ, интерпретация, оценка, сюжет, композиция, структура.

Akademik Matyoqub Qo'shjonov adabiyotshunoslar orasida “xaraktershunos” va “mahoratshunos olim” sifatida e'tirof etilgan [1]. Bunday ta'rifga sazovor bo'lishining asosiy sababi – ilmiy izlanishlarida ijodkorning xarakter yaratish mahoratini markaziy mavzu sifatida o'rganishi hamda badiiy matnni tahlilning bosh manbasi sifatida tanlaganida. U hamisha badiiy matnni zaruriy ashyo deb biladi” [2]. Ushbu uch xususiyat, garchi ular A.Qahhor ijodini talqin etish jarayonida tilga olingan bo'lsa-da, bizningcha, M.Qo'shjonovning tadqiqotchilik faoliyatiga xos asosiy jihatlardan bo'lib, uning barcha ilmiy izlanishlariga taalluqlidir. Xususan, xarakter talqiniga kirishishda u o'z oldiga aniq ilmiy vazifa qo'yadi, badiiy asar bilan chuqur tanishib, tahlil jarayonida badiiy matnga tayanuvchanlikni ustuvor deb biladi. Olim badiiylilik mezonlari asosida ilmiy izlanish olib borish tamoyilini shakllantirgan bo'lib, bu holat qodiriyshunoslik, oybekshunoslik va qahhorshunoslikka oid tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo'ladi. A.Qodiriy ijodi tahlil etilgan “O'zbekning o'zligi” kitobi shu jihatdan xarakterlidir. Munaqqid ushbu risolasida adib ijodini badiiy mahorat naqtayi nazaridan tadqiq etadi. Biz esa maqolada olimning “O'tkan kunlar” romaniga oid kuzatishlari bilan tanishib chiqamiz.

Kitobxon roman tahlili bilan tanishar ekan, o'zini roman sujeti ichida asar qahramonlari bilan birga yurgandek his etadi. Albatta, olim roman voqealarini kitobxonga birma-bir aytib bermaydi. Biroq yetakchi qahramonlarning qismatiga oid voqealarni, faoliyatining eng muhim qirralarini yoritadi, o'zni kelganda romanning “o'ziga so'z beradi”, ya'ni asardan iqtiboslar keltirib, fikrlarini dalillab boradi. Tadqiqotning dastlabki bobi “Otabek va Kumushbibi” sarlavhali fasl bilan boshlanadi. Olim unda dastlab romanni harakatga keltiruvchi asosiy kuch – Otabekning xarakter mantig'i xususida fikr yuritadi. “Asarning boshidayoq Otabek obrazining xarakterli xususiyatlarini alohida ta'kidlaydi.

Xarakterning rivoj liniyasiga imo qiladi, zamin hozirlaydi. Buni ustalik bilan sezdirmasdan, hech qanday sun'iylikka yo'l qo'ymasdan bajaradi [4: 18] deb yozadi.

Birinchi yo'nalish sifatida Otabek va Kumush o'rtasidagi sevgi liniyasi ajratib ko'rsatiladi. Munaqqid bu fikrlarini Toshkentdan Marg'ilonga savdo ishlari bilan kelib, karvonsaroyga joylashgan Otabek huzuriga Rahmat va uning tog'asi – xotinboz Homid kelgan sahnadagi suhbat asosida bayon etadi. Ushbu suhbat davomida Otabekning oila qurishga bo'lgan munosabati erkin fikrlarga asoslangani, ya'ni er va xotinning o'zaro muvofiqligi muhim ekani ta'kidlangani ayon bo'ladi. Munaqqid mazkur sujeti yozuvchi tomonidan mohirlik bilan belgilab olingani aytadi. Otabekning ijtimoiy dunyoqarashi, uning vatan va millat taqdiriga bo'lgan munosabati, xalqni himoya qilishi, bir so'z bilan aytganda, asarning ijtimoiy mazmuni ikkinchi syujet liniyasi qilib belgilanadi. Bu masalada M.Qo'shjonov quyida berilgan jihatlarga e'tibor qaratadi: “Agar yozuvchi tasvirlanayotgan davr hayotining, bu qanchalik tipik bo'lmasin, faqat shu tomonigagina e'tibor berganida, u sof sentimental roman yozgan bo'lar edi. Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu Otabekning xalq to'g'risida g'am yeyishidir” [4: 19].

M.Qo'shjonov romandagi ikkinchi sujet liniyasi, ya'ni qahramonning xalq g'amini yeyishga doir qarashlarini Marg'ilondagi yirik boylar va savdogarlar davrasida bo'lib o'tgan suhbat orqali ochib beradi. Fikrlarini Otabekning xon va beklarning istibdodi, behuda qon to'kishlar, xalq boshiga tushayotgan kulfatlar, Azizbek singari hokim va amaldorlarning beparvoligi haqida kuyunib aytgan so'zlari bilan asoslaydi. Otabekning savdo ishlari bilan yurt kezishi, xususan, Shamayga borganda ruslarning ish yuritish tartibi va boshqaruvdagi intizomi bilan tanishib, o'z yurti uchun ham shunday tartibni orzu qilishi haqidagi qarashlari asardan keltirilgan iqtiboslar asosida mustahkamlanadi.

Yozuvchi shu tarzda Otabek xarakterining ichki mantig'ini voqealar rivoji bilan uzviy bog'lay olganini ta'kidlaydi.

M.Qo'shjonov yozuvchi mahoratini yoritishda roman matniga tayanib ish ko'radi. Asarning syujet yo'nalishlari aniqlangandan so'ng voqealarning tahliliga kirishadi. "Voqealarning sirli bayoni", "Ariq bo'yi, sirli ariq bo'yi" sarlavhali fasllarda Otabek bilan Kumushning ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlar fonida yozuvchining sir saqlash mahorati yoritiladi. Bunda Otabekning parishon holati, o'ychanligi, uyqusirab o'zicha oshiqona pichirlashlariga oid epizodlarning Hasanali kuzatuvini orqali ifoda etilishi, uning "Bek oshiq" degan xulosasi, bekning esa kimga oshiqligi, bu oshiqlik qay tariqa ro'y bergani kitobxonga noma'lum qolaveradi. Bu orali yozuvchi sir saqlash usulidan mahorat bilan foydalanib, asarning o'qimishlilikini ta'minlay olganini ta'kidlaydi.

Olim sevgi rishtasida nafaqat Otabek, balki Kumush ruhiyatidagi sirli o'zgarishlarning ham yozuvchi tomonidan "sir saqlash" usulida ifodalanganini tadqiq etar ekan, bu hol ikki yoshning unashtirilib, to'y kechasi Otabekni ko'rgan Kumushning mashhur "Siz o'shami?" degan xitobi bilan sir ochilishini ta'kidlaydi. Munaqqid asar voqealariga baho berar ekan, bu kabi voqealar klassik adabiyot va xalq og'zaki ijodida ko'plab uchrashini yozadi. Yigit boshqa yurtdagi qizni tasodifan uchratib sevib qoladi. Qiz ham unga ko'ngil qo'yadi. Ko'pgina qiyinchiliklarni yengib o'tib qizga uylanadi va baxtli bo'lishadi. Munaqqid mana shu an'anaviy sujetga yozuvchi realistlik bo'yoq berganini ta'kidlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, romandagi "sir saqlash" usulining munaqqid tomonidan kashf etilishi va adib mahorati sifatida baholanishi ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilgan, munaqqidning ushbu talqinlariga yuqori baho berilgan [4: 27].

M.Qo'shjonov tahlil davomida yozuvchining vatan va millat taqdiri haqidagi qarashlari ham bevosita Otabek va Kumush kechmishlari bilan bog'liq holda rivojlantirilishiga e'tibor qaratadi. Ayrim fasllarda asar xronotopini belgilar ekan, tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalari bilan bog'lab tahlilga tortadi, uni realistlik asarning zaruriy shartlaridan biri deb hisoblaydi. "Har bir haqiqiy san'at asari tarixiydir. Tarixiylik shu bilan belgilanadiki, asar san'atkor tasviralayotgan davr taraqqiyotiga xos hayotning asosiy yo'nalish yo'llarini idrok etadi va uni to'g'ri tasvirlaydi. Shuning uchun tarixiylik ruhi bilan sug'orilmagan realistlik asar yo'q. Demak, realizmda tarixiylik asarning badiiy qimmatini belgilovchi asosiy shartlardan biridir" [4: 29].

M.Qo'shjonov romanda tarixiy voqelikning qahramonlar hayoti kesimida tasvirlanishi, ya'ni estetik o'zlashtirilishini yozuvchi mahorati sifatida yoritadi. Asarda Qo'qon xoni Xudoyorxon saroyida ro'y berayotgan voqea-hodisalar, Toshkent xoqoni Azizbekning soliq to'lashdan bosh tortib, isyon qilishi, xalqqa 32 tanga soliq solishi kabi voqealar ijodkorning tasavvuridagi hodisalar bilan birga sujet ipiga bir maromda tiziladi. Munaqqid asarning markaziy tugunini belgilar ekan, muhabbat liniyasi bilan tarixiy voqealar oqimidan markaziy tugun hosil bo'lishini ta'kidlaydi [4: 42].

5. Xalqaro tajribalarni o'rganish va o'zbek tili milliy korpusini shu asosda rivojlantirish.

O'zbek tili milliy korpusining mukammallashuvi lingvistik, ta'lim va til texnologiyalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova M. O'zbek tili milliy korpusining lingvistik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. BNC Consortium. British National Corpus (BNC). – 2007. <https://www.english-corpora.org/bnc/>
3. Xudoyberganova D. O'zbek tili leksikologiyasi va korpus texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2018.
4. Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. – London: Routledge, 1998.
5. Davies M. The Corpus of Contemporary American English (COCA). – 2008. <https://www.english-corpora.org/coca/>.
6. National Corpus – 2012. <https://www.tnc.org.tr>.

Dilobar BABAQULOVA,

Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

“AQLIY FAOLIYAT” TUSHUNCHASI VA UNING TILDA IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aqliy faoliyat tushunchasi va uning tilda ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda psixologiya va kognitiv lingvistika manbalariga asoslanilgan, kontent-tahlil va korpusiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalarga ko'ra, aqliy faoliyatning turli bosqichlari – qabul qilish, tushunish, xotirada saqlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish – semantik, sintaktik hamda pragmatik markerlar asosida tasniflangan. Ilmiy va ommabop janrlardagi korpus tahlili ushbu bosqichlarning ifodalanishida farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: aqliy faoliyat, kognitiv jarayon, til ifodasi, lingvistik marker, korpus tahlili.

Annotation. This article analyzes the concept of mental activity and its expression in language. The research is based on sources on psychology and cognitive linguistics using content analysis and corpus research methods. As a result, various stages of mental activity - perception, understanding, storing in memory, analysis, and formulation of a conclusion - were classified based on semantic, syntactic, and pragmatic markers. Corpus analysis of texts in scientific and journalistic genres revealed differences in the linguistic expression of these stages.

Keywords: cognitive activity; cognitive process; linguistic expression; linguistic marker; corpus analysis.

Аннотация. В данной статье анализируется понятие умственной деятельности и особенности её выражения в языке. Исследование основано на источниках по психологии и когнитивной лингвистике с применением методов контент-анализа и корпусного исследования. В результате различные этапы умственной деятельности – восприятие, понимание, хранение в памяти, анализ и формулирование вывода – были классифицированы на основе семантических, синтаксических и прагматических маркеров. Корпусный анализ текстов научного и публицистического жанров выявил различия в языковом выражении этих этапов.

Ключевые слова: умственная деятельность, когнитивный процесс, языковое выражение, лингвистический маркер, корпусный анализ.

Aqliy faoliyat – insonning tashqi va ichki ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va natija chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oluvchi murakkab kognitiv sistema bo'lib, e'tibor, idrok, xotira, tahlil hamda xulosa chiqarish bosqichlaridan tashkil topadi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bu jarayonlar sensor-motor, preoperatsional, konkret-operatsional va formal-operatsional bosqichlarda uzluksiz o'zgarib, psixologik strukturalarni shakllantiradi [1: 102]. Vygotsky esa aqliy faoliyatni ijtimoiy–madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq deb hisobladi: u kognitsiyani til orqali tashqi ijtimoiy muloqotdan ichki psixik jarayonga o'tkazuvchi vosita sifatida ko'radi [2: 57]. Luriyaning g'oyasiga binoan, madaniy vositalar til, ramzlar, asbob-anjomlar) orqali

amalga oshiriladigan mental transformatsiyalar kognitiv rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir [3: 120].

Kognitiv ilm-fan sohasida Fodor modullik nazariyasi orqali aqliy faoliyatning alohida funksional bloklarga (masalan, til moduli, vizual moduli, xotira moduli) bo'linishini taklif etadi; bu bloklarning o'zaro aloqasi kognitsiyaning murakkab jarayonlarini tashkil etadi [4: 22]. Til va fikr o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi Chomsky generativ gramatikasi doirasida ham tadqiq etilgan: u tilning ichki sintaksik tuzilishi universal kognitiv prinsiplar asosida shakllanishini ta'kidlaydi [5: 13]. Shuningdek, Lakoff va Johnson kontseptual metafora nazariyasi orqali murakkab kognitiv operatsiyalarni tushunish va ifodalash mexanizmlarini kadrlab, metaforik strukturaviy moslamalar

fikr jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi [6: 101].

Lingvistik tadqiqotlarda aqliy faoliyatni ifodalovchi til vositalari – semantik, sintaktik va pragmatik markerlar – tizimli ravishda tahlil qilinmagan. Bu yo'nalishda kontent-analiz va korpus-tahlil usullari qo'llanilib, til matnlarida kognitiv bosqichlarga mos keluvchi ibora-birliklar aniqlanishi va tasniflanishi zarur. Xususan, ma'lumotni qabul qilish (input), uni qayta ishlash (process) va natija chiqarish (output) bosqichlarini aks ettiruvchi lingvistik konstruksiyalar va semantik birliklar o'rganilishi lozim [1].

Ushbu tadqiqotning maqsadi – aqliy faoliyatning asosiy bosqichlarini aniqlash hamda ularni tildagi semantik, sintaktik va pragmatik markerlar asosida tasniflovchi nazariy–metodik bazani yaratish. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Psixologiya va kognitiv lingvistika adabiyotlarida aqliy faoliyat tushunchasini tahlil qilish.

2. Til matnlaridan kognitiv jarayonlarni ifodalovchi lingvistik markerlar tipologiyasini ishlab chiqish.

3. Ilmiy va ommabop korpuslarni solishtiruvchi tahlil orqali aqliy faoliyat bosqichlarining tildagi realizatsiya xususiyatlarini aniqlash.

Input – ma'lumot qabul qilish

• **Leksik markerlar:** *e'tibor qaratmoq / обращать внимание / pay attention* kabi fe'llar bevosita kognitiv jarayonning boshlang'ich bosqichi – tashqi stimullarga qarash va diqqatni yo'naltirishni ifodalaydi. Ular o'quvchiga yoki tinglovchiga “hozir mazkur ma'lumotga e'tibor bering” degan signallarni beradi.

• **Sintaktik markerlar:** *agar... unda... / если... то... / if... then...* konstruksiyalari shart–natija munosabatini ko'rsatib, avval qabul qilinishi kerak bo'lgan ma'lumotni (shartni) va undan keyin natijani aniqlaydi. Shu tariqa, matn ichida diqqatni bir bosqichdan keyingisiga o'tkazish mexanizmi vujudga keladi.

• **Pragmatik markerlar:** *alohida urg'u bilan / акцентировано / with emphasis* iborasi jarayonning muhimligini ta'kidlaydi, ya'ni ma'lumotni qabul qilish bosqichida aynan shu jihatga e'tibor berilsin, degan retorik topshiriqni beradi.

Process – tushunish, tahlil

• **Leksik markerlar:** “tahlil qilmoq” / “анализировать” / *analyze* kabi fe'llar ma'lumotni mental darajada qayta ishlash, ya'ni uni solishtirish, tasniflash yoki xulosa tayyorlash uchun tayyorlash jarayonini ifodalaydi.

• **Semantik – metaforik markerlar:** *aql devorini ochmoq / открывать двери разума / open the doors of mind* (Lakoff & Johnson, 1980) obrazli iborasi o'zida chuqur tushunish va kognitiv transformatsiya ma'nosini jamlab, abstrakt tahlil jarayonini ko'rgazmali tasvirlaydi.

• **Diskursiv – pragmatik markerlar:** taxmin qilmoq / *предположить / suppose* iborasi muallif yoki gapiruvchi tomonning fikr yuritish bosqichidagi ehtimolli, noaniq qarashlarini aks ettiradi va tinglovchiga “hozir biz bu jarayon qanday kechishini o'ylab ko'raylik” deb taklif qiladi.

Output – xulosa chiqarish

• **Leksik markerlar:** *xulosa qilmoq / делать вывод / draw a conclusion* kabi fe'llar aqliy jarayonning yakuniy bosqichini – oldingi bosqichlarda olingan natijani so'z bilan ifodalab, rasmiy yakun chiqarishni ifodalaydi.

• **Sintaktik markerlar:** *shunday xulosa chiqadi* yoki *natija holosidek* kabi tarkiblar natijaning mantiqiy bog'lanishini ko'rsatib, ma'lumot jarayonidagi bosqichlarni aniq ajratadi.

• **Pragmatik markerlar:** *menimcha, / no-моему, / in my opinion* – muallifning yakuniy bahosini yetkazadi, ya'ni xulosa bosqichida ham shaxsiy yoki diskursiv niyatning roli borligini signal qiladi.

Bu markerlar guruhi aqliy faoliyatning har bir bosqichini til darajasida kerakli darajada ko'rsatib, matnni yoki nutqni yanada tushunarli va mantiqan uzviy qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ilmiy matnlarda sintaktik va diskursiv markerlar (numune: shartlik, oxirgi izoh) ustun bo'lsa, ommabop maqolalarda semantik va metaforik iboralar (aql devori, eshiklar) kuchliroq namoyon bo'ladi. Nutqiy kontekstdagi markerlar esa yozmaga nisbatan yuqori chastota bilan uchradi. Bu pedagogika uchun semantik kartalar va sintaktik sxemalardan birgalikda foydalanish zarurligini, psixolingvistika uchun esa diskursiv modelni hisobga olgan holda tahlil qilishni ta'kidlaydi. Sun'iy intellektida esa bu markerlarning leksikal bazasini boyitadi hamda NLP modellari talqin aniqligini oshiradi.

Ushbu tadqiqotda Input–Process–Output modeli asosida aqliy faoliyat bosqichlarini semantik, sintaktik va pragmatik markerlar yordamida aniqlandi va ularning yozma hamda nutqiy korpuslardagi taqsimotini o'rganildi. Ilmiy va ommabop janr hamda uch til (o'zbek, rus, ingliz) bo'yicha ko'rsatkichlarning farqlari pedagogika, filologiya va SI sohalarida amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Kelgusida korpus hajmini kengaytirish, tarixiy-filologik tadqiqotlar bilan boyitish va ko'p tillik solishtirma yondashuvlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget J. Science of Education and the Psychology of the Child. – New York: Viking Press, 1970.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Luria A.R. Cognitive Development: Its Cultural and Social Foundations. – Cambridge: Harvard University Press, 1976.
4. Fodor J.A. The Modularity of Mind. – Cambridge: MIT Press, 1983.
5. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.
6. Lakoff G. Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Neuendorf K.A. The Content Analysis Guidebook. – London: Sage, 2017.
8. Biber D. Conrad S. Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
9. Miles M.B. Huberman A.M. Qualitative Data Analysis: An Expanded Sourcebook. – London: Sage, 1994.

Asliddin ISMATOV,
*Renessans ta'lim universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

INGLIZ XALQ ERTAKLARINING KOMMUNIKATIV STRATEGIYASI VA FONETIK XOSLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola xalq ertaklarida qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar va ularning fonetik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda ertak matnida uch turdagi kommunikativ strategiya – janrga xos tuzilma, stilistik va leksik vositalarni tanlash hamda adresatning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish usullari tahlil qilinadi. Mazkur vositalarning ertakning jozibadorligini oshirish, ritm va badiiy illyuziya yaratishdagi roli alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: xalq ertaklari, kommunikativ strategiya, fonetik vositalar, alliteratsiya, emotsional pauzalar, stilistik xilma-xillik, nutq konteksti.

Annotation. This article is dedicated to the study of communicative strategies used in folk tales and their phonetic features. It analyzes three types of communicative strategies characteristic of fairy tale text: genre structure, choice of stylistic and lexical means, and ways of influencing the addressee's worldview. The role of these devices in enhancing the expressiveness of the fairy tale, creating rhythm and artistic illusion is also emphasized.

Keywords: folk tales, communicative strategy, phonetic means, alliteration, emotional pauses, stylistic diversity, speech context.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению коммуникативных стратегий, применяемых в народных сказках, и их фонетических особенностей. В ней анализируются три типа коммуникативных стратегий, характерных для сказочного текста: жанровая структура, выбор стилистических и лексических средств, а также способы воздействия на мировоззрение адресата. Отдельно подчеркивается роль этих средств в повышении выразительности сказки, создании ритма и художественной иллюзии.

Ключевые слова: folk tales, communicative strategy, phonetic means, alliteration, emotional pauses, stylistic diversity, speech context.

Ertak nutqida kommunikativ strategiyaning uch turi ajratiladi:

1. Ertak nutqining janrli tashkil etilishi bilan bog'liq strategiya;

2. O'quvchiga ta'sir qilish uchun o'ziga xos stilistik va leksik vositalarni tanlashga qaratilgan strategiya (o'rganilayotgan ikki tilning ertak nutqida aytilgan strategiya mavjud, ulardan foydalanish so'z boyligi, til boyligi, stilistik xilma-xilligi bilan belgilanadi);

3. Ertak matnidagi vaziyat va adresatning ertak matnidagi vaziyatga munosabati va uning dunyoqarashini aniqlashga qaratilgan strategiya [3: 72].

Kommunikativ strategiyani muloqot maqsadlariga erishish rejasi bilan belgilanadigan dialogik muloqot sharoitida so'zlovchilardan birining xatti-harakat turi sifatida aniqlash mumkin [4: 183]. Kommunikativ strategiya doimo moslashuvchan va dinamikdir, chunki u muloqot davomida muntazam sozlanadi. So'zlovchining nutq harakatlari doimiy ravishda to'ldirilib, o'zgartirilib turiladigan nutq kontekstiga bevosita bog'liqdir.

Strategiyalar ma'lum bir muloqot sharoitida harakatlar maqsadi va ketma-ketligi o'rtasidagi munosabatlarga qarab nutq xatti-harakatlarining tez-tez o'zgarishiga yordam beradi [1: 159]. Keyin ma'lum strategiyalar va tegishli maqsadlar va harakatlar muayyan ijtimoiy institutlar va rollarga birlashtiriladi [2: 283], bu esa til aloqasini tahlil qilish uchun juda muhimdir.

Ingliz xalq ertaklarida o'zbek xalq ertaklaridan farqli ravishda, murojaat qiluvchi shaxs tomonidan qo'llanilgan fonetik vositalar grafik tasvirining matndagi ahamiyati

yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni quyidagi misollar orqali isbotlashga harakat qilamiz:

1. So'zni morfemalarga (bo'g'inlarga) cho'zish yoki ajratish. Misol uchun ingliz xalq ertagi "Johnny-cake" da bo'g'inlar pishirilgan pirogning maqtanchoqligini ko'rsatishga xizmat qiladi:

2. Alliteratsiyalardan foydalanish (ko'pincha takrorlarda). Masalan, ingliz xalq ertagi "Tom Tit Tot" da qofiya va alliterativ takrorlardan keng foydalaniladi. Bu esa uning jozibadorligini va qofiyaga moslashuvchanligini ta'minlaydi:

Alliteratsiya yordamida so'zning ikkinchi semantik ahamiyatsiz tarkibiy qismlari (Henny-Penny, Cocky-locky, Foxy-woxy) kyumulativ ertak nutqining umumiy ritmini tashkil qiladi. Chunki bu yerda ertakning iterativ parametri yetakchi hisoblanadi. Ingliz xalq ertaklarida belgi nomlari ko'pincha bir-biri bilan qofiyalanadi. Masalan: "Titty Mouse and Tatty Mouse" ertagidagi sichqon Titti va Tettilarni olaylik. Boshqa xalq ertaklari, xususan, milliy xalq ertaklarimizda bunday uslub namunalari ko'p uchramaydi.

3. Ertakdagi ma'lum jummalarni qalin harflar bilan yozish. Bu ham ertaklarda keng qo'llaniladigan va o'z funksiyasiga ega vositalardan biri. Undan asosan ertakning ma'lum qismiga urg'u berish va ertak o'quvchisining diqqatini qaratish uchun foydalaniladi.

4. Emotsional pauzalar. Ular so'zga diqqatni jalb qilish yoki uning situatsion xususiyatini (ikkilanishning fiziologik pauzasini) ko'rsatish uchun biron-bir muhim so'z oldidan uzoq pauzani ko'rsatishi mumkin. Bunday pauzalarning mavjudligi ertaklar tilining rang-barangligidan dalolat beradi. Sehrli, afsonaviy ertakda pauzalar hissiy shiddatini

bildiradi. Pauza ertak yaratishning qo'shimcha vositasidir. Shunday qilib, yuqorida ko'zda tutilgan fonetik-grafik vositalar ertak tinglovchilarni aqlbovar qilmaydigan

hikoya bilan o'ziga jalb etishda, mo'jizaning badiiy illyuziyasini yaratishda, sahna obrazini berishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coulmas F. Introduction: Conversational routine. – The Hague: Mouton, 1981. – 159 p.
2. Fritz G. Kohärenz: Grundlagen der linguistischen Kommunikations analyse. – Tübingen, 1982. – 283 s.
3. Городова Ю.С. Специфика сказочного дискурса в англоязычном эпосе. Выпускная квалификационная работа. – Белгород, 2017. – 72 с.
4. Романов А.А. Системный анализ регулятивных средств диалогического общения. – М.: Институт языкознания АН СССР, 1988. – 183 с.

Oybek NURJONOV,

*Qoraqalpog' davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

QORAQALPOG'ISTONDAGI O'ZBEK SHEVALARI EVFEMIZMLARINING ETNOMADANIY TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada evfemizmlarda aks etgan etnomadaniy xususiyatlar Qoraqalpog'iston hududidagi o'zbek shevalari misolida tahlil qilingan. Asosan urf-odat, marosim va an'analarga oid lingvomadaniy birliklar o'rganilgan hamda ularning xalqning madaniy ongidagi o'rnı yoritilgan.

Kalit so'zlar: evfemizm, tabu, urf-odat, an'ana, irim-sirim, lingvomadaniyat.

Annotation. This article analyzes the ethnocultural characteristics of euphemisms based on the Uzbek dialects spoken in the Karakalpakstan region. The study focuses on linguocultural units related to customs, rituals, and traditions, and highlights their significance in the cultural consciousness of the people.

Keywords: euphemism, taboo, custom, tradition, superstition, linguoculture.

Аннотация. В данной статье проанализированы этнокультурные особенности эвфемизмов на примере узбекских диалектов, распространённых в Каракалпакстане. Особое внимание уделяется лингвокультурным единицам, связанным с обычаями, обрядами и традициями, а также их значению в культурном сознании народа.

Ключевые слова: эвфемизм, табу, обычай, традиция, суеверие, лингвокультура.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini belgilab beruvchi o'ziga xos urf-odatları, dastur va an'analari bor, ular avloddan avlodlarga o'tib, asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Lekin ba'zi urf-odatlarimiz ijtimoiy tizim, jamiyat taraqqiyoti bilan o'zgarishi, hatto iste'moldan chiqib ketishi ham mumkin. Bu, albatta, har bir millatning e'tiqodi, dini va milliy mentaliteti bilan bog'liq. Millatning tilida saqlanib, sayqal topib kelayotgan etnografik evfemizmlarni tadqiq etishda esa xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatları, udumlari, irim-sirimları, ishonchi e'tiborga olinadi.

“*Evfemizm* so'zining lug'aviy ma'nosi yunoncha – “yaxshi gapirmoq” (biror narsa yoki hodisa haqida)” [6: 109]. Chunki “u yoki bu so'z biror sababga ko'ra ma'qul bo'lmay qolganda tabu va evfemizmlar paydo bo'ladi” [2: 108]. Biz ularni o'z nutqimizda yumshatib berishga harakat qilamiz.

Barcha xalqlar uchun o'lim eng katta baxtsizlik. Bunday xabar haqida insonlarga evfemizm yordamida yumshoq so'z va iboralar orqali yetkaziladi. Masalan, xalq afsonalariga ko'ra, Gulining vafot etgani haqidagi xabarni Alisher Navoiy Sulton Husaynga quyidagicha yetkazadi: “Sarvinig soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?”. Bunga javoban Sulton Husayn: “Sarvidin tobut yasab, gulidin kafan etmoq kerak”, – degan [4: 369]. Bu rivoyatning bir nechta variantlari bor, hammasida o'lim bilan bog'liq sovuq xabar mohirona bayon qilinadi.

Qadimdan xalqimiz sovuq xabarlarni yumshoq tarzda yetkazish an'anasiga juda katta e'tibor berib kelgan. Hozir ham *o'lmoq* leksemasi *vafot etmoq*, *olamdan o'tmoq*, *bandalikni bajo keltirmoq*, *qazo qilmoq*, *mangu uyquga ketmoq*, *tuproqqa qaytmoq*, *halok bo'lmoq* kabi shakllarda yetkazilib kelinmoqda. Demak, bunday bitta integral sema atrofida birlashgan lug'aviy birliklar ma'lum bir paradigma hosil qiladi. Muayyan paradigma tarkibiga kiruvchi a'zolar umumiy sema atrofida birlashishi bilan birga, o'zaro ma'lum differensial semasi bilan farqlanishi ham mumkin. Bu, albatta, shevalararo farqlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Hatto Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida ham ular hududiy jihatdan farqlanadi. Masalan, Xo'jayli-Qo'ng'iro't shevalarida katta yoshdagi kishi vafot etganida *qazo qildi*, *otamizdan ajralib qoldik*; Beruniy-To'rtko'l shevalarida *vafot etdi//olamdan o'tdi//bandalikni topshirdi//qazo qildi//tuproqqa qaytdi* kabi variantlaridan biri tanlanadi.

Bitta integral sema asosida birlashgan evfemizmlar ijobiy va salbiy bahosiga ko'ra farq qiladi. Masalan, *o'lmoq* so'zi *vafot etmoq*, *yer tishlamoq*, *halok bo'lmoq*, *kishi qo'lli bo'lmoq*, *harom qotmoq* kabi iboralar orqali beriladi. Shuningdek, ular yosh xususiyatiga ko'ra ham farqli qo'llaniladi. Masalan, yosh norasida chaqaloq vafot etganida *chitnadi*, *taqoni tugadi* kabi shakllardan foydalaniladi.

Evfemizmlar tilning ifoda imkoniyatlarini, boyligini ko'rsatuvchi lug'aviy birliklar hisoblanib, ular orqali har qanday sovuq xabar tinglovchiga yengil va mohirona yetkazilishi mumkin. Bu tushuncha haqida tilshunos A.Omonturdiyev: "ochiq aytish no'rin, noqulay, madaniyatsizlik, odobsizlik, axloqsizlik hisoblangan voqeliklarning xotirada salbiy ta'sirini yumshatish, kamaytirish, yopish, yashirish, mumkin qadar beozorroq tusga kiritish, tasviriy-evfemik uslubda bayon etish, tinglovchiga hissiy ta'sir o'tkazish, hayajon uyg'otish va shu bilan nutqiy mukammallikka, go'zallikka – til madaniyatiga erishish uchun qo'llanadigan vositalardan biridir" [5: 21] deb o'rinli ta'kidlagan edi.

Man qilingan, taqiq anglatuvchi evfemizmlar shevalarimizda ko'p uchraydi. Ular tabuga uchragan so'z yoki ibora o'rnida qo'llaniladigan evfemizmlardir. Tabu-diniy e'tiqod, irim-sirim, qo'rqish ta'sirida ma'lum so'zning ishlatilishini cheklash, man etish demakdir [6: 86].

Ma'lumki, turkiy xalqlar orasida qadimdan etnografik tabular keng iste'molda bo'lib kelgan. Masalan, *er* so'zi bilan bog'liq *begim*, *bu kishi*, *dadasi*, *xo'jayin* kabi. Bu, albatta, o'z eriga nisbatan hurmat ma'nosida ishlatilgan bo'lib, *begim*, *bu kishi* so'zlarida uslubiy xoslanish mavjud. Dastlab bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan N.Ismatullayev evfemizmlarni 6 ta ma'noviy guruhlariga ajratadi: 1) tabuga asoslangan; 2) irim-sirimlarga asoslangan; 3) qo'pol so'zlar; 4) so'zlashuv tiliga asoslangan; 5) uslubiy; 6) diplomatik munosabatlarda qo'llanadigan evfemizmlar [3: 24]. Keyinchalik X.Qodirova va Sh.Usmanova ularni quyidagicha tasnif qiladilar: 1) shaxs nomlari; 2) marosimlar bilan bog'liq; 3) inson tana a'zolarini ifodalovchi; 4) biomoddani anglatuvchi; 5) insonning jismoniy nuqsonlarini; 6) insonning ma'naviy nuqsonlarini va 7) insonning muomala madaniyatidagi nuqsonlarni ko'rsatuvchi evfemizmlar [7: 175–176]. Demak, ushbu

masalardan kelib chiqib o'zbek shevalaridagi evfemizmlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Shaxs nomlari bilan bog'liq evfemizmlar nikohdan keyin yuzaga kelgan qarindoshlik belgisiga aloqador bo'ladi. Bular: *er*, *xotin*, *qaynona*, *qaynbeka*, *qaynota*, *jezda*, *ovsin*, *boldiz*. Kelin, qayni (o'g'il bola), bekach (qaynisingil)larning ismlarini aytish man qilingani uchun ular tabu sanalgan. Ammo ularga har xil ismlar tanlanib, shu orqali murojaat qilingan. Hozir ham bunday evfemizmlar ko'pchilik turkiy tillar va dialektlarda saqlanib qolgan.

2. Marosimlar bilan bog'liq evfemizmlar *qo'lini so'ramoq*, *non sindirmoq*, *boshini bog'lamoq*, *qiz ayttirmoq*, *uzuk taqib kelmoq*, *boshini ikkita qilmoq*, *bo'yniga ola xurjun ildirmoq* kabi iboralar orqali ko'chma ma'nolarda obrazli tasvirlanadi. Ular ham ijobiy va salbiy tushunchalarni anglatuvchi etnografik atamalardan iborat bo'lgan. Jumladan, ijobiy ma'no *bo'yi cho'zilmoq*, *bo'yi yetmoq*, *uvali-juvali bo'lmoq*, *ko'zi yorimoq*, *bo'shanmoq*, *ikki jonini bir bermoq* kabi iboralar orqali berilsa, salbiy ma'no *oq qilmoq*, *ko'k rang kiymoq* (*motam paytida*), *oq ro'mol tortmoq* (*azador*) kabi iboralar orqali ifodalanadi [8: 87].

Xulosa qilib aytish mumkinki, etnografik tabular turli udum, irim-sirimlar orqali ham ifodalanadi. Masalan, xalqimiz orasida safarga chiqqan odam yo'lda oq tuyani ko'rsa, uning ishi o'ngidan keladi; agar oldidan mushuk kesib o'tsa, salbiy holat yuz beradi, degan tushunchalar ham keng tarqalgan. Shuningdek, har bir xalqda turli ijobiy va salbiy tushunchalar bilan bog'liq irimlar mavjud. Masalan, o'zbeklarda: supurgini, o'qlovni tikka qo'ymaslik, mehmonning orqasidan supurmaslik, suvga tupurmaslik kabi. Boshqa xalqlarda, jumladan, mo'g'ullarda qozondan pichoq bilan go'sht olmaslik, qamchisiga suyanmaslik; koreys va xitoylarda kosadagi ovqatga qoshiqni tiqib qo'ymaslik kabi irimlar ham etnografik tabular sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Лингвистический терминологический словарь. – М., 1966.
2. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Ismatullayev H. Hozirgi o'zbek adabiy tilida evfemizmlar: Nomz. diss. avtoref... – Toshkent, 1964.
4. Mallayev N. A.Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1974.
5. Usmanova Sh. Turli lingvomadaniyatlarda evfemizmlarning ifodalanishi. // O'zbek tili va adabiyoti, 2017, №3.
6. Hojiyev A.P. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
7. Gaybullayeva N.I. O'zbek tili tibbiy evfemizmlarining semantik guruhlari. – Nukus: Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi, 2019, №2. – B. 175–177.
8. Qodirova X. Abdulla Qodriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Nomz. diss. avtoref... – Toshkent, 2009.

Sitora TOJIDDINOVA,
O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi
davlat adabiyot muzeyi doktoranti

O'ZBEK NASRIDA "BOBURNOMA" VA BOBUR HAQIDAGI IJOD NAMUNALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" tarixiy-memuar asarining zamonaviy o'zbek nasriga ta'siri matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonning "Boburiynoma" ma'rifiy romani o'rganilgan. "Boburiynoma"da "Boburnoma"dan keltirilgan matnlar va ularning asarga qo'shgan hissasi tadqiq etilgan. Umuman, "vaqoe"ning zamonaviy nasrimizga ta'sirini o'rganish masalasi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: memuar, matn, matnshunoslik, ilmiy ekspeditsiya, safarnoma, taqlid, tahlil, ta'rif.

Annotation. The article examines the influence of Zahiriddin Muhammad Babur's historical-memoir work "Baburnama" on the development of modern Uzbek prose. Particular attention is paid to the work "Baburiynoma" by the renowned writer Khairiddin Sultan, examining its contribution to the comprehension and artistic reinterpretation of Babur's legacy. In a broader context, the role and significance of "vakoe" in shaping the aesthetic and substantive orientations of modern Uzbek prose are explored.

Keywords: memoirs, text, textual criticism, scientific expedition, guidebook, imitation, analysis, description.

Аннотация. В статье проводится текстологический анализ влияния историко-мемуарного произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Баburnама» на развитие современной узбекской прозы. Особое внимание уделяется произведению «Бабурийнома» известного писателя Хайриддина Султана, рассматривается его вклад в осмысление и художественное переосмысление наследия Бабура. В более широком контексте исследуются роль и значение «вакое» в формировании эстетических и содержательных ориентиров современной узбекской прозы.

Ключевые слова: мемуары, текст, текстология, научная экспедиция, путеводитель, подражание, анализ, описание.

"Boburnoma" nihoyatda tili shirali asar ekani, davr va makon tanlamas umrboqiyligi asrlar osha o'z tasdig'ini topgan. Sababi bu qomusiy asarning XXI asr adabiyoti, xususan, o'zbek nasriga ta'siri hamon yuqoridir. Asar haqida eng munosib e'tiroflardan birini yapon olimi Eyji Mano aytgan edi: "Uzoqni ko'ra oladigan davlat arbobi va sarkarda bo'lgan Bobur "Boburnoma" deb atalgan, yanada aniqrog'i, "Vaqoye" yoki "Voqealar bayoni" nomli ajoyib xotiranomasini meros qoldirgan. Boburning ijod yo'li ravon va aniq. Bu asarni hech ikkilanmasdan turkiy adabiyotning shoh asarlaridan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Boburnoma" noyob tarixiy manba sifatida taxminan XV–XVI asrlardagi Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston hayotiga doir ko'plab ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Asar ta'sirida Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma"si bitilgan".

Zamonaviy nasrimizda esa "Boburnoma" ta'sirini o'zbek romanchiligining asoschisi A.Qodiriy ijodidan boshlash mumkin. "O'tkan kunlar"ning "Majburiyat" faslida shunday so'zlar bor: "Kechlik oshni o'tkazgach, Hasanali o'z hujrasidan kiyinib chiqdi-da, Otabek yoniga kirdi. Otabek "Boburnoma" mutolaasi bilan mashg'ul edi". Hasanali asil niyatini bildirmay "hammomga borish" uchun ruxsat so'raydi. Otabek ko'zini kitobdan uzmay: "Yumishim yo'q, boraveringiz", [2: 38] deb javob beradi. Xalqimiz, hatto muallifning o'zi uchun ham sevimli obraz – Otabekning "Boburnoma"ni ko'z uzmay mutolaa qilishi Abdulla Qodiriy uchun ham bu asar juda qadrlil bo'lganini anglatadi. Tabiiyki, yozuvchini bu qomusiy asarning realistlik yo'nalishi, sof va go'zal tili, Boburga xos uslubi ilhomlantirgan bo'lishi mumkin. Bunday ta'sirlanishni adabiyotshunos B.Karimov to'la isbotlab bergan: "Abdulla Qodiriyning shoh asarida "Boburnoma"ning ta'siri borligi isbotlangani esa aynan "O'tkan kunlar"dan ilhomlanib, ham shaklan, ham mazmunan andoza olib, yozilgan zamonaviy

o'zbek nasri namunalarining juda ko'pligini hisobga olsak, o'q ildiz – "Boburnoma"ning ta'sir ko'lami nechog'lik kengligini tasavvur qilish mumkin. Zamonaviy nasrimizda Qodiriy vositasida Boburona uslub uchqunlari (fikrning sodda, aniq ifodalanishi, memuar yozish uslubi, portret va peysaj yaratishdagi an'analar)ning sezilishi shundan" [3: 93].

Boshqa jadid adiblar ijodida ham "Boburnoma" tili va uslubiga yaqinlashishni ilg'ash mumkin. Adabiyotshunos H.Abdullayevaning fikricha, "XX asrning birinchi choragida jadid adiblarimiz aniq belgilangan yo'nalish bo'yicha safar xotiralarini – M.Behbudiyning "Qasdi safar", A.Avloniyning "Afg'on sayohati", Cho'lponning "Vayronalar orasidan" – yaratdi. Millatparvar, jadid ijodkori Abdurauf Fitratning 1909-yilda "Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi" hamda "Hind sayyohi" asarlari ham safar mavzusida ekanligiga guvoh bo'lamiz. Jadid safarnomalari millat dardida, uning or-nomusi, g'ururi yo'lida jon kuydirayotgan sayyoh-muallif nuqtayi nazari shoyon ko'rinadi. Ammo bularning barini "Boburnoma" tipidagi nasr namunalarini sirasiga kiritib bo'lmaydi. Jadidchilik ruhida bu asarlarda "Vaqoye"ning ayrim unsurlarinigina ko'rish mumkin, xolos. Misol uchun, shoh asar kabi memuarlik, voqea-hodisalarning markazida muallif turishi va tadrijiylik jihatlari o'xshash, ammo asar g'oyasi va matn sturukturasi, bayon tarzi farqlanadi.

Bobur obrazining zamonaviy nasrda to'laqonli tasvirlanishida yozuvchi Pirimqul Qodirovning xizmati katta. "Yulduzli tunlar" romanining yozilishi va nashr etilishi o'z davrida katta jasorat edi. Tarixiy mavzularning badiiy talqiniga tashna xalqimiz bu asarni katta qiziqish va mehr bilan qabul qildi. Asar hanuz yosh kitobxonlarning hayrat va e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Kitobning ikkinchi nashriga

so'zboshi yozarkan, adib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bobur mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o'nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. "Yulduzli tunlar" ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga keldi... Xilma-xil fikr va mulohazalar changalzoridan tikanlarga tiralib o'tdim, yo'limdan adashib ketmaslik uchun doim tarix haqiqatiga, xususan, "Boburnoma"day asl manbalarga tayandim" [4: 5].

Boburning qomusiy asari hamma davrlarda ham eng ishonchli manbalardan bo'lib qoladi. Shu bois P.Qodirov eng asosiy manba sifatida unga suyanadi. Oradan yigirma yil o'tib, istiqlol davrida, ya'ni 1999-yil adibning bu tarixiy-badiiy asari qayta nashr etiladi. O'ttiz yil davomida "Yulduzli tunlar"ni yozish, tahrir qilish, qayta to'ldirish bilan mashg'ul bo'lgan muallif bu haqda shunday deydi: "Yillar davomida romandagi ayrim noaniqliklar va nuqsonlar haqida asosli tanqidiy fikrlar bildirilgan edi. Zokirjon Mashrabov boshliq Bobur ekspeditsiyasi jahonni kezib, ko'pgina yangi tarixiy faktlarni kashf etdi. Ular ham ushbu nashrda baholi qudrat hisobga olindi. Bundan o'ttiz yil muqaddam 1969-yilning yanvarida boshlangan bu ish shoyadki shu bilan nihoyasiga yetgan bo'lsa" [4: 5].

Yozuvchining uzoq yillik ijodiy mehnatlari samarasi o'laroq ushbu romanda Bobur obrazi to'la ma'noda ochib berilgan. Asarga asosiy manba sifatida "Boburnoma" va "Humoyunnoma" tanlangan. Badiiyat bo'yoqlari aro Mirzo Boburning buyuk shaxs, hukmdor, shoir, ota, o'g'il, aka kabi bir qancha rakurslardagi qiyofasi mufassal aks ettirilgan. Asarda Boburning ichki dunyosi, siyrati o'y-fikrlari misolida yorqin ochib berilgan bo'lsa, tashqi qiyofasi romandagi boshqa qahramonlar nigohi bilan tasvirlab berilgan. Masalan, onasi tilidan yoshlik-o'smirlilik yillaridagi tashqi ko'rinishi shunday tasvirlanadi: "Bobur onasi bilan yonma-yon borar ekan, uning bo'yi shu o'n oy ichida xiyla o'sganini, tez ulg'ayib o'n olti yoshida devqomat, pahlavon yigit bo'layotganini sezgan Qutlug' Nigorxonim ichida Yaratganga yana bir shukrona aytib qo'ydi" [4: 5].

Ayrim o'rinlarda esa muallif roviy sifatida asar bosh qahramonining suratini so'z vositasida chizadi: "Bobur mirzo otdan tushganda bo'yi o'sib, katta yigitlarga tenglashib qolgani bilindi. Qadam olishi ham xiyla salmoqli. Taxtga o'tirganidan beri o'tgan so'nggi uch yil uni juda tez ulg'aytirgan, ko'z qarashlari ko'pni ko'rgan odamlarnikiday vazmin. Faqat xipcha qomati va hali uncha to'lishmagan yelkalari endi o'n besh yoshga kirganini eslatib turardi" [4: 6].

Asarda Bobur obrazi surati-yu siyrati bilan kitobxon tasavvurida tugal gavdalanadi. Yozuvchining ijodkorona mahorati, tarixiy haqiqatga badiiy bo'yoqlar bilan zeb berishi, ayrim o'rinlarda esa mutlaq taxayyul erkiga izn bergani asar badiiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman olganda, ushbu roman Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy qiyofasi tugal yaratilgan zamonaviy nasrimizning nodir namunasidir.

Xurshid Davronning uch qismdan iborat "Samarqand xayoli" essesinde Bobur obrazi ko'p qirrali jihatlar bilan yorqin aks ettirilgan. Asarni adib esse deya atagan bo'lsa-da,

mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'rifiy-badiiy qissaday o'qiladi. Asar matni shu qadar ishonarliki, undan adib "Boburnoma"ni nafaqat o'qigan, balki Bobur shaxsi, ruhiyatini to'la his qilgani anglashiladi. Ayniqsa, Bobur qalbini tushunish holati Samarqandni tark etish lavhasini tasvirlash jarayonida yaqqol sezilgan va muallifning mahorati ayni shu tuyg'ularni kitobxonga ham yuqtira olishida ko'ringan. Xurshid Davron sulh sabab opasini dushman qo'lga tashlab ketgan Boburning "Boburnoma"da bu haqda yozmaganini nomus tuyg'usi bilan bog'laydi. Boburning or-nomusi oldidagi azoblarini badiiy ifodalaydi. Qolaversa, asar nafaqat "Boburnoma", balki "Shayboniynoma" va boshqa manbalardan foydalanib, voqea-hodisalar har tomonlama yoritilgani bilan e'tiroflarga munosib. Ushbu asarni "Vaqoye" matnidani juda samarali va o'rinli foydalanib yozilgan zamonaviy o'zbek nasrining go'zal namunasi, deya baholash mumkin.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim A.Qayumovning badiiy asarlar qatorida tilga olinishga munosib 2008-yilda "Zahiriddin Muhammad Bobur" (2008) ilmiy-badiiy nashri haqida ham ma'lumot bermoq joiz. Ushbu asarga muallif biror janr belgilamaydi. Zotan, olim odamning ko'ngil bitiklarini bir qolipga sig'dirish mushkul. Shu ma'noda biz ham janr masalasini soha mutaxassislariga qoldirgan holda asar matnining jozibali va kitobxonni o'z ortidan ergashtira oladigan ma'rifiy uslubi haqida fikr bildirmoqchimiz. Zotan, nashr muqaddimasida muallif yozadi: "Kitobxonni zeriktirib qo'ymaslik uchun tasvir shakli badiiylashtirildi. Albatta bunda muallifning xayolot mahsullari ham o'z o'rniga ega. Maqsad Boburning hayoti va ijodi to'g'risida muhtaram o'quvchilarimiz tasavvurini boyitmoq edi" [5: 3].

Asar Andijon shahri tasviri va iftorlik tadorigi lavhalari bilan boshlanadi. To'quvchi Mulla Alijon obrazi va uning atrofidagi ziyoli qatlam qiyofasi, suhbatlari vositasida Bobur yashagan davr ruhi akslantiriladi. Kitobxon voqealar rivojining ipga tizilgan marjon kabi tizimlili, tadjriyiligi his qilib, roviy – muallifga ergashadi. Asarda ayrim o'rinlarda ilmiy ma'lumotlarning tig'iz joylangani sezilsa-da, badiiylilik bo'yog'i unutilmaydi. Boburning sargardonlik yillari, ruhiy-jismoniy ahvoli ta'sirli tasvirlanadi: "Sangzor daryosi quvnaq oqadi. Uning zilol suvlari toshdan toshga urilib o'ynashayotgan to'lqinlar bilan to'la. Atrofdagi tog'lar keng dalalar bag'rida daryo yoqalab horg'in yo'l bosayotgan odamlar va otlarga beparvo boqadilar. Guruh oldida Bobur va Qosimbek qavchin. Har ikkalasining qo'lida ot tizginlari. Ularning ketidan otlari horg'in qadam tashlaydilar. Otlar ham ochlikdan shunday toliqqanlarki, endi ular odamlarni emas, odamlar otlarni tashimoqdalar" [5: 9]. Yigirma uch bo'limga ajratilgan asarda Umarshayx Mirzo vafoti haqidagi xabardan boshlanib, Mirzo Boburning vafotigacha bo'lgan davr yoritilgan. "So'ng" nomli oxirgi bo'limda Boburning vafoti va undan qolgan ilmiy-badiiy asarlar xususida xulosaviy fikrlar bayon etilgan. Ushbu asarni "Boburnoma" tipidagi zamonaviy nasrimiz namunalari qatorida sanashimizning bosh sababi, asar matni Boburona uslubda, "Boburnoma"dan ta'sirlanib qo'lga qalam olgan

xorazmshoh Abulg'ozī Bahodirxon ta'biri bilan aytganda, “besh yashar o'g'lon tushuna”digan tilda badiiy jilolar bilan ta'sirchan tarzda yaratilganidir.

Ayni mana shu o'rinda boburshunoslik ilmida ham, tarixiy asarlar yaratish borasida ham katta yangilik bo'lgan “Boburiynoma” ma'rifiy romani haqida ham ma'lumot bermoq joiz. Taniqli adib Xayriddin Sultonning ushbu asari “Boburnoma” tipidagi zamonaviy o'zbek nasrining eng yorqin namunasi. Asar 1992–1996-yillar davomida yozilgan, 1997-yili nashr etilgan [1: 152]. Asar muallifning Hazrat Bobur bilan bog'liq bolalik xotiralaridan boshlangan bo'lsa-da, kundalik shaklida 1974–1996-yillar mobaynida yozuvchining ko'rgan-kechirganlari bayon etiladi. Asosiy urg'u “Boburnoma” va Bobur siymosiga qaratilgan. Bosh maqsad Bobur nomidagi jamoat fondi ilmiy ekspeditsiyasining safar sarguzashtlarini va ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini badiiy ifodalash bo'lsa-da, asarda to'la ma'noda Boburning ma'naviy qiyofasi yaratilgan, shoh va shoirning davr va makon tanlamasi adabiy merosi zamonaviy o'quvchiga tanishtirilgan. Bu haqda P.Qodirov “O'zbekiston istiqloli sharofati bilan qaramlik go'vlari olib tashlandi. Ulug' ajdodlarimiz izidan jahon bo'ylab safarga chiqqan birinchi o'zbek ilmiy ekspeditsiyasi Zokirjon Mashrabov boshliq Bobur nomli xalqaro jamg'armaning fidoyilaridan tarkib topdi. Ekspeditsiyaning ilk safarlaridan birida qatnashgan taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” deb atalgan romani katta muvaffaqiyat qozondi” deya e'tirof etgan edi. Asar haqida tadqiqot davomida mufassal fikr yuritishimizni hisobga olib, gapni muxtasar qilamiz.

Shubhasiz, boburshunoslikda ham, bu buyuk shaxs haqida badiiy asarlar yaratilishi, chop etilishida ham Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi homiyligi va rag'batini alohida ta'kidlash kerak. Aynan ana shu e'tibor va rag'bat mevasi sifatida bugun adabiyotimizda safarnoma janridagi turkum asarlar paydo bo'ldi. Qamchibek Kenja yozgan “Hind sorig'a”, Andijondan Dakkagacha”, “Buyuklar izidan”, “Andijondan Bag'dodgacha”, “Buyuk Sohibqiron o'tgan yo'llarda” safarnomalari ana shunday asarlar sirasidandir. “Hind sorig'a” asari Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiyaning 1993-yil iyul-avgust oylaridagi uchinchi safari haqida. Asarda safar taassurotlari badiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Pirmqul Qodirov ushbu asar so'zboshisida nashrning ahamiyatga molik jihati haqida quyidagilarni bayon etadi: “Asar kundalik shaklida yozilgan. Unda tasvirlangan sarguzashtlar, yengib o'tilgan qiyinchiliklar, yangi-yangi o'lkalar va mamlakatlar manzarasi o'quvchini astoydil qiziqtiradi. O'nta bo'lsa o'zni boshqa, deganlaridek, Qamchibekning ushbu asari Bobur Mirzoga bag'ishlangan kitoblar orasidan o'ziga xos o'rin oladi, safarnoma janrini

ko'pgina yangiliklar bilan boyitadi. Asarning yana bir qiziqarli tomoni – unda tashqi olam tasviri bilan birga muallifning ichki dunyosi, safardoshlariga mehr-u oqibati, o'zga yurtlarda ko'p yashagan sari vatanni sog'inishi goh lirik, goh yumoristik buyoq bilan maroqli tarzda ifodalanadi” [6].

Umuman olganda, yozuvchi Q.Kenjaning yuqorida nomlari keltirilgan barcha asarlarida asosiy obraz sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur siymosi turadi. Muallif safar voqea-hodisalari tasviri orasida shoh va shoirning ulug' ma'naviy qiyofasini gavdalantirishga, o'zidagi kabi yuksak ehtirom tuyg'usini kitobxonga ham yuqtirishga harakat qiladi. Bevosita “Boburnoma”dan ilhomlanib, unga ergashgani, kerakli o'rinlarda safarnomalardan iqtiboslar keltirgani asarning ham ilmiy, ham badiiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

“Boburnoma” ta'sirida yozilgan zamonaviy nasr namunalari qatorida yozuvchi Durbek Qo'ldoshevning “Imperatorning tug'ilishi” asarini ham tilga olish lozim. Kitob Andijondagi “Hayot” nashriyotida 2015-yilda nashr etilgan. Asar 11 ta hikoyadan iborat bo'lib, Bobur mirzoning tavalludidan taxtga o'tirguniga qadar 12 yillik davr aks ettirilgan. Har bir yil haqida bittadan hikoya taqdim etilgan. Muqaddimada muallif “Bu yerda qalamga olingan voqealar, avvalo, “Boburnoma”ni uzoq yillar davomida, chuqurroq o'rganish natijasida chiqarilgan mantiqiy xulosalar, Andijon xalqi orasida bu shaxs to'g'risida shu kunga qadar so'zlab kelinayotgan ayrim rivoyatlar va boshqa bir necha manbalar asosida yozilgan badiiy-tarixiy qissa deb qabul qilgaysizlar” [7: 7] deydi. Ma'lumki, “Boburnoma” Mirzo Boburning taxtga o'tirishi voqealari bilan boshlanadi. “Imperatorning tug'ilishi” esa voqealar Mirzo Boburning tavallud kunidan boshlab, taxtga o'tirishi lavhalari bilan tugaydi. Shu bois bir qarashda asarda “vaqoye”ning ta'siri bo'lishi shubhaliday, ammo sinchiklaganda asarda Boburning “Boburnoma”da aytgan bolalik xotiralarini, voqealar, tafsilotlar, ma'lumotlardan ustalik bilan ijodkorona foydalanilganiga guvoh bo'lish mumkin. Misol uchun, Bobur Mirzo bolalik payti Samarqandga borgani va turkiy odatlardan bo'lgan kelinning “Yuzochdi” marosimiga qatnashgani haqidagi ma'lumot “Boburnoma”dan olingan va asardagi “Samarqand sori” deb nomlangan salmoqdor hikoyaga asos bo'lgan. Qolaversa, qissadagi deyarli har bir bo'lim “Boburnoma”dan iqtibos bilan boshlangan. Misol uchun, “Chindan keltirilgan sovg'a” hikoyasiga “Boburnoma”dan “Kichiklikdan beri Xitoy sorig'a havasim bor edi” jumlasini epigrafl qilingan.

Yuqoridagi tahlillardan ayon boladiki, zamonaviy o'zbek nasrida Boburnomadan foydalanib yoki ilhomlanib yozilgan ijod namunalari strukturasi, matn tarkibi, badiiy saviyasi jihatidan turlicha.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi (qayta ishlangan ikkinchi nashr) / Tahrir hay'ati: Qayumov A va boshq. – Toshkent: Sharq, 2017.
2. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994.
3. Bahodir Karim. Ikki daho – ikki bebaho (Bobur va Qodiriy). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.

4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Qayumov A. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
7. Burhoniddin Namiq. Bobur abadiyati. – Toshkent: Bayoz, 2018.
8. Olmos Xurramov. Roman kontekstida Bobur va boburiylar obrazi. // O'zbekiston til va madaniyat, 2023, №4.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Kuliyot. Nashrga tayyorlovchi: Mirzo Kenjabek. – Toshkent: Zilol buloq, 2021.
10. Kamchibek Kenja. Hind soriga. – Toshkent: Sharq, 2000.
11. Qo'ldoshev D. Imperatorning tug'ilishi. – Andijon: Hayot, 2015.

Salim DONIYOROV,

“Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, PhD

YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISH JARAYONLARINI YORITISHDA AN'ANAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada OAV konvergentsiyasi o'z ichiga oladigan tushunchalar va ularning ahamiyati tahlil qilingan, texnologik taraqqiyot keltirib chiqargan integratsiyalashuv jarayonining kechishi haqida mulohazalar keltirilgan. Muallif texnologik konvergentsiya bozorining yangi ishtirokchilari va bozor konsolidatsiyasi yoki sanoat konvergentsiyasi bilan bog'liq jihatlariga ahamiyat qaratgan. Shuningdek, O'zbekistonning ko'plab yetakchi bosma nashrlari o'z gazetalarini elektron versiyalarini tarqatishni ham yo'lga qo'ygani, uning ahamiyatli tomonlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar: media, OAV konvergentsiyasi, “yangi media”, blogosfera, ijtimoiy tarmoqlar, auditoriya, kontent, kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, digitalizatsiya, milliy segment.

Annotation. The article analyzes the concepts encompassed by media convergence and their significance. It presents reflections on the integration process driven by technological advancement. The author highlights aspects related to new players in the technological convergence market and issues of market consolidation or industrial convergence. The article also explores the importance of the fact that many of Uzbekistan's leading print publications have begun distributing electronic versions of their newspapers.

Keywords: media, media convergence, “new media”, blogosphere, social networks, audience, content, communication, digital technologies, digitalization, national segment.

Аннотация. Аннотация. В статье рассматриваются ключевые понятия, охватываемые феноменом медийной конвергенции, и раскрывается их значимость в условиях стремительного технологического развития. Анализируется процесс интеграции медиасреды, обусловленный цифровыми трансформациями, с акцентом на появление новых участников в сфере технологической конвергенции и тенденции к консолидации медиарынка (индустриальной конвергенции). Особое внимание уделяется переходу ведущих печатных изданий Узбекистана к распространению электронных версий, что свидетельствует о структурных изменениях в системе национальных СМИ.

Ключевые слова: медиа, конвергенция СМИ, «новые медиа», блогосфера, социальные сети, аудитория, контент, коммуникация, цифровые технологии, дигитализация, национальный сегмент.

Mahalliy media sohasida konvergentsiya muhim xususiyatlariga ko'ra “yangi media” deb ham ataladi va odatda ommaviy axborot vositalarining internet versiyalari, internet ommaviy axborot vositalari, internet TV va internet radio, mobil TV, blogosfera, ijtimoiy tarmoqlar, virtual hamjamiyatlar, virtual o'yinlar va boshqa manbalarni o'z ichiga oladi.

Ba'zan “konvergent OAV” atamasi “yangi media” atamasining sinonimi hisoblanadi [1]. Ilmiy muhitda “yangi media” tushunchasi yangi nisbiy parametr ekani sababli ta'rifda chalkashliklar yuzaga kelishining oldini olish uchun ko'pincha qo'shtirnoq bilan ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari, zamonaviy sharoitda axborot haliyam ming yillar muqaddam bajargan funksiyalarini bajarishda davom etmoqda. Har kim xavfsizlik, ma'lumot va ijtimoiylashuv tuyg'usini saqlab qolish uchun unga muhtoj. Shunday qilib, axborot, uni almashish insondan hayvongacha va o'simlikkacha bo'lgan har qanday tirik mavjudot hayotida muhim rol o'ynaydi. Taniqli olim, filologiya fanlari doktori Muxtor Xudoyqulovning ta'kidlashicha, bu so'z lotincha “informare” dan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z “tushuntirish”, “biror narsa haqida tushuncha berish”

deya tarjima qilinadi. Shu bilan birga, konsepsiyaning mohiyati ancha keng va amalda substansiya, materiyaning o'zaro birgalikdagi harakati shartidir; o'zaro birgalikdagi harakatning barcha turlarini tavsiflaydi [2].

Mutaxassislar konvergentsiyaning eng yaqin ma'nodoshi qo'shilish ekanini ta'kidlaydi. Nafaqat texnologiyalar, balki turli OAV ham birlashadi. Texnologik konvergentsiya yana bir tushuncha – digitalizatsiya, raqamli vositaga o'tish bilan ham bog'liq. Turli OAV konvergentsiyasi ushbu ommaviy axborot vositalarini qanday aniq atashni qiyinlashtiradi (internet radio, internet televideniye va boshqalar).

Iqtisodiy-sanoat darajasida ommaviy axborot vositalari konvergentsiyasiga texnologik taraqqiyot keltirib chiqargan iqtisodiyotning ilgari bir-biriga sust bog'liq bo'lgan uch sohaning integratsiyalashuvi jarayoni sifatida qaralishi lozim [3]. Bular media (an'anaviy bosma OAV, televideniye va radio, shuningdek, media kompaniyalar uchun ham, to'g'ridan to'g'ri auditoriya uchun ham kontent mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar), kompyuter (axborot texnologiyalari) va kommunikatsiya sanoati (telekommunikatsiya, telefoniya, efirga uzatish

texnologiyalari)dir. Professional daraja deganda har xil turdagi medialar tarkibining qo'shilish jarayoni tushuniladi, bunda barcha turdagi tahririyatlarning yakuniy natijasi mazmunni raqamli formatda ishlab chiqarish bo'ladi. Bu gazetami, radiomi, televideniyesi, muhim emas.

So'nggi 30 yil mobaynida raqamli texnologiyalarning asosiy xususiyati ularning konvergensiya bo'ldi. Umum qabul qilingan ta'rif yo'q, lekin umuman olganda, konvergensiya innovatsiyalar sanoatning aniq belgilangan chegaralari kesishmasida paydo bo'lganda yuzaga keladigan hodisa sifatida ko'rish mumkin va buning ta'siri ancha keng evolutsion taraqqiyotga olib keladi. Innovatsion taraqqiyot jarayonidagi texnologik konvergensiya har qanday texnologiyani amalga oshirishning yangi usullarini to'plash va tarqatishni qo'llab-quvvatlovchi murakkab bilimlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ta'rifdan foydalanib, konvergensiya har qanday sohada mavjud bo'lishi mumkin, ammo yaqin tarix davomida favqulodda tez o'zgarishlarning, garchi bir-biriga zid natijalar bilan bo'lsa-da, raqamli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan. Texnologik konvergensiya bozorning yangi ishtirokchilari va bozor konsolidatsiyasi yoki sanoat konvergensiya bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ushbu ikki ma'noda tushunish bozorlar va jamiyat uchun oqibatlarini talqin qilishni juda murakkablashtirib yuboradi [4].

Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida respublika va mintaqaviy darajada axborot sohasi va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga, fuqarolarning xolis va ishonchli ma'lumot olish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Mass-media faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va ularning jahon media sohasida munosib o'rin egallashi uchun muayyan qonunchilik bazasi ishlab chiqildi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi", so'ng 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilinishi munosabati bilan har tomonlama va jadal rivojlanish uchun istiqbollar belgilab olindi. Mamlakatimiz OAV tomonidan yetakchi xorijiy mamlakatlar ommaviy axborot vositalariga joriy etilayotgan ilg'or yo'nalishlarni o'zlashtirish vektoridagi ishlar yangicha stimulgacha ega bo'ldi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar asosida ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi rolini, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilishni kuchaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlariga oid ma'lumotlarni taqdim etishning zamonaviy shakllarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini 2023-yil 27-iyundagi kasb bayrami tabrigida Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday dedi: "Biz Yangi O'zbekistonning yangi jurnalistikasini yaratish vazifasini o'z oldimizga qo'ygan ekanmiz, bu boradagi milliy an'analarimiz bilan birga rivojlangan davlatlar tajribasini ham har tomonlama

o'rganishimiz, ommaviy axborot vositalari bo'yicha dunyodagi yetakchi oliygohlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va media kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirishimizni hayotning o'zi talab etmoqda" [6]. Shu nuqtayi nazardan ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning global axborot makoniga integratsiyalashgan media sohasi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining umum tarqalgan elektron "triadasi": televideniye, radio va internet bilan ham gavdalanadi. Konvergensiya jarayonida ushbu ro'yxat sifat jihatdan keng tarqalgan "elektron gazeta" bilan to'ldirildi.

2000-yillardan boshlab amalda ekrandagi nisbatan operativ ma'lumotlarga ega matnlar elektron gazeta deb hisoblana boshlandi. Keyinchalik elektron nashrlar ommaviy axborot vositalarining yangi turiga aylandi, shu bilan birga internet keng ma'noda ommaviy axborot vositasi sifatida ko'riladigan bo'ldi. Elektron tarmoqni OAV hodisasi sifatida o'rganishda ikkita yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Birinchisida elektron ommaviy axborot vositalariga tematik, maqsadli yoki boshqa xususiyatlarga ko'ra bo'linishga, ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan barcha tarmoq makoni kiradi;

- Ikkinchi yo'nalishda elektron ommaviy axborot vositalariga professional jurnalistlar tomonidan yaratilgan gazetalar, jurnallar, axborot agentliklari kiradi. Ular ham, o'z navbatida, bosma nashrlarning elektron versiyalariga va elektron nashrlarning o'ziga bo'linadi.

O'z-o'zidan, elektron ommaviy axborot vositalarining O'zbekiston media bozorida yangi texnologiyalar sifatida tarqalishi ma'lum darajada OAV haqidagi tasavvurni o'zgartira boshladi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi aloqalarni amalga oshirish, taqsimlash, namoyish qilish va saqlash usulining o'zini o'zgartirdi. Yangi texnologiyalar ilgarigidan ko'ra ko'proq axborot, ma'lumotlarni tarqatish va olish imkonini berdi. O'zbekistonning ko'plab yetakchi bosma nashrlari zamon talablariga tezlikda javob qaytarib, o'z gazetalarining elektron versiyalarini yaratishga harakat qilgani bejiz emas. 10–12 yil oldin, raqamli versiyani juda ko'p odamlar olishi mumkinligi ayon edi. Elektron gazeta qulayroq: sevimli nashrni uyda, ishda yoki mobil telefondan o'qish mumkin. Keyinchalik muhokama qilinadigan ba'zi nodavlat nashrlari nashr etishga imzolashidan oldin gazetalarining elektron versiyalarini taklif qila boshladilar. O'quvchini xabardor qilish samaradorligi oshdi, bu elektron matbuotning tezligidan past bo'lgan bosma nashrlar uchun juda ahamiyatlidir.

Gazeta va jurnallar uchun elektron ommaviy axborot vositalarining yana bir afzalligi – ularning interaktivligi bo'lib, o'quvchilar bilan muloqot rejimida o'zaro suhbatlashish imkonini beradi. Shu munosabat bilan bugungi kunda tarmoq ommaviy axborot vositalarining rivojlanish segmentidagi innovatsiyalar uchun O'zbekiston bosma nashrlari veb-saytlarini to'ldirishni o'rganish, zamonaviy media-sferani o'zgartirish sharoitida gazetalarning kommunikativ strategiyalari samaradorligini

tahlil qilish bo'yicha tadbirlar, ayniqsa, dolzarbdir. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda O'zbekiston bosma nashrlari veb-saytlarining tarmoq OAVning rivojlanayotgan segmentida innovatsiyalar bilan to'ldirilishini o'rganish, zamonaviy media sohasi transformatsiyasi sharoitida gazetalarning kommunikativ strategiyalari samaradorligini tahlil qilish bo'yicha faoliyat ham dolzarblik kasb etmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining internetga ko'chishi axborot jarayonlarining tubdan yangi turlari paydo bo'lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan ijodiy faoliyatning maxsus turi sifatida multimedia tarkibini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bois bosma nashrlarning veb-versiyalari orqali zamonaviy axborot makonida jurnalistik materiallarni nashr etishning eng keng tarqalgan modellarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda bosma ommaviy axborot vositalarining kommunikativ makonini jadal rivojlantirish zarurati o'tgan o'n yillik boshlarida yaqqol namoyon bo'ldi, bugungi kunda ushbu masalaning dolzarbligi oshib bormoqda. Bunday jarayonlar so'nggi paytlarda axborot maydonining tuzilishi, auditoriyaning qaysi mediani afzal ko'rish, OAV va aholining texnologik jihozlari tubdan o'zgargani natijasida yuzaga keldi. Hozir respublikamizda 1500 dan ortiq ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ko'plab nashrlar o'z veb-saytlariga ega. Shu bilan birga, ushbu saytlarning ishlashi media-sferaga ta'sir qilish mexanizmlari to'g'risida tizimlashtirilgan tasavvurning yetishmasligi yuzaga chiqadi. Chunki konvergent jurnalistikaning ushbu segmenti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ilmiy tadqiqotlar hali ishlab chiqilgan metodologiya va konseptual asosga ega alohida yo'nalish sifatida shakllanmagan.

Internetning milliy segmentida bosma ommaviy axborot vositalarining veb-versiyalarining ishlash darajasini, ular foydalanadigan kommunikativ strategiyalarni, ular ishining samaradorligini aniqlash uchun mazkur tadqiqot muallifi bir qator baholash mezonlariga amal qilishga qaror qildi. Ular orasida ishtirokchilar, internet-kontentning noyoblighi, yangilanish chastotasi, multimediadan foydalanish (fotosuratlar, audio va video materiallar), interaktivlik, ijtimoiy tarmoqlarda profillarning mavjudligi belgilovchilar bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi matbuoti tomonidan media makonning mediakonvergentsiyasi sharoitida yangi platformalarni o'zlashtirish bilan bog'liq boshqa parametrlarga ham e'tibor qaratildi.

Masalan, tashqi mustaqil o'lchash uchun mo'ljallangan internet xizmatlaridan foydalangan holda sayt trafikni tekshirish shuni ko'rsatdiki, barcha saytlar ham bunday hisoblagichlardan foydalanmaydi va agar sayt egasi kirishni ommaviy ko'rishdan yashirgan bo'lsa, uni ishonchli tekshirish imkonsizdir. Shuni ta'kidlash kerakki, kirish hisoblagichi saytlarni kirish bo'yicha saralab, ma'lum darajada reyting vazifasini bajarishi, shuningdek, katalog sifatida ishlatilishi mumkin, chunki reytinglar odatda tematik tarzda tuzilgan bo'ladi.

Mediametrik ko'rsatkichlardan internet OAVning ommaviy axborot faoliyatining kontent jihatlariga o'tish, va umuman, saytlarni rivojlantirishning ikkita asosiy strategiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi holda, elektron versiya bosma nashrning shunchaki boshqa shakldagi raqamli muqobilidir. Bunday holda veb-resurs gazeta mazmuni bilan bir xil bo'ladi. Odatda bunday saytlar past kirishga ega. Afsuski, bunday strategiya O'zbekistonning kommunikatsiya muhitida keng tarqalgan. Bunga amaldagi qonunchilik ma'lum darajada yordam beradi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunida 27-modda davriy bosma nashrning elektron versiyasiga bag'ishlanadi.

Normativ hujjatda davriy bosma nashrning elektron shakli davriy bosma nashrni tarqatish usullaridan biridir, deya belgilangan. Shu bilan birga, tegishli davriy bosma nashrning bosma va elektron shakllarining mazmuni aynan bir xil bo'lgan hamda qonunchilik talablariga rioya etilgan taqdirda, davriy bosma nashr tahririyati davriy bosma nashrning elektron shaklini mustaqil ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazmasdan tarqatishga haqli ekani keltiriladi. Davriy bosma nashr tahririyati davriy bosma nashrning elektron shakli tarqatilishi to'g'risida ro'yxatdan o'tkazuvchi organi yozma shaklda xabardor qilishi shart. Aks holda, yuqorida keltirilgan qonunda ko'rsatilgandek, elektron versiya faqat bosma nusxani to'liq takrorlashi mumkin, normativ hujjatda ko'rsatilgan bandlar bundan mustasno. Davriy bosma nashrning bosma shaklida mavjud bo'lgan reklama xabarlarining elektron shakldan olib tashlanishi va (yoki) butunlay yoki qisman almashtirilishi, shuningdek, elektron shaklda ifodalangan materiallar hajmining bosma shaklidagiga nisbatan qisqartirilishi mazmunning aynan bir xilligi buzilishi deb qaralmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Интернет-СМИ. Теория и практика: Учебное пособие для студентов вузов / Под ред. М. Лукиной. – Москва: Аспект Пресс, 2016.
2. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. – Toshkent: Tafakkur, 2010.
3. Anholt S. Brand New Justice: the upside of global branding. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2017.
4. Вартанова Е.Л. К чему ведет конвергенция СМИ?. Москва: Информационное общество, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841077>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. <https://president.uz/ru/lists/view/6442>.

Gulnora NARIMOVA,

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
o'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti*

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARNING FUNKSIONAL TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilini o'qitishda pedagogik va psixologik jihatlarning nazariy asoslari yoritiladi, talabalarga ona tilini chuqurroq o'rgatish, ularning diqqat, xotira, qiziqish va motivatsiyasiga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi. Ta'lim mazmuni asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo'llashning metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Mazkur yo'nalishdagi yetuk pedagog, psixolog, metodist va olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilib, tahliliy yondashuv va shaxsiy munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tilida o'qitish, tafakkur, tasavvur, og'zaki nutq, yozma nutq, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalar, mustaqil fikrlash, muloqot qilish, psixologik omillar, integrativ, kommunikativ, differensial, akmeologik.

Annotation. The article covers the theoretical foundations of pedagogical and psychological aspects of teaching Uzbek language, emphasizing the need to teach students' native language more deeply, paying attention to their memory, interest, and motivation. Based on the content of education, the methodological features of forming knowledge, skills, and abilities and their application in practice are analyzed. The scientific views of leading educators, psychologists, methodologists, and scientists in this area are studied, and an analytical approach and personal attitude are expressed.

Keywords: Uzbek language learning, thinking, imagination, oral speech, written speech, speech and communication competencies, independent thinking, communication, psychological factors, integrative, communicative, differential, acmeological.

Аннотация. В статье освещаются теоретические основы педагогических и психологических аспектов преподавания узбекского языка, подчеркивается необходимость более глубокого обучения студентов родному языку, обращая внимание на их память, интерес и мотивацию. На основе содержания образования анализируются методические особенности формирования знаний, умений и навыков и их применение на практике. Изучаются научные взгляды ведущих педагогов, психологов, методистов и ученых в этом направлении, выражается аналитический подход и личное отношение.

Ключевые слова: обучение на узбекском языке, мышление, воображение, устная речь, письменная речь, речевые и коммуникативные компетенции, самостоятельное мышление, общение, психологические, интегративные, коммуникативные, дифференциальные, акмеологические факторы.

Ta'lim tizimida o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmunini chuqur o'zlashtirish soha mutaxassislaridan pedagogik jarayonni modellashtirish hamda metodik loyihalash kabi nazariy va amaliy faoliyatni talab etadi. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv mashg'ulotlari davomida o'zbek tilining nufuzini oshirish dolzarb vazifalardan biri. Bu borada huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmonida [1] ko'plab muhim vazifalar belgilangan. Farmonga muvofiq, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek tilini o'qitishda talaba-yoshlarning qiziqishlari, imkoniyatlari, kognitiv yondashuvlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning motivlariga, psixologik holatiga e'tibor qaratish ham muhimdir. Shu nuqtayi nazardan o'quv jarayonida, birinchi navbatda, fanga nisbatan qiziqish uyg'otish ayni muddao. Buning uchun pedagogik-psixologik omillarning samaradorligini ta'minlash hamda integrativ, kontekstli, kommunikativ, differensial, akmeologik, innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Ta'lim jarayoni subyektlarining kognitiv faolligini oshirish, o'quv mashg'ulotlarini an'anaviy va no'an'anaviy shakllarda tashkil etish, zamonaviy hamda ilg'or pedagogik metod va texnologiyalarni qo'llash dars jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylangan. Ta'limda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan maqsadga muvofiq hamda unumli foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustahkam

bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kabi omillarga e'tibor qaratish orqali erishiladigan ijobiy natijalarni sanab o'tamiz:

- o'quv jarayonida talabalarining diqqatini jamlash;
 - o'zbek adabiy tili me'yorlarini egallash bo'yicha qiziqishni oshirish;
 - mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yodda saqlashni tizimlashtirish va xotirani yanada mustahkamlash;
 - o'quv materialini o'rganishga oid algoritmik mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish va o'quv-ta'limiy vositalarni mustaqil bajarishlari uchun ularga motivatsiya berish;
 - o'quv predmeti doirasidagi termin va leksik birliklarning semantik xususiyatini o'rganish, lug'at ustida ishlash, shuningdek, so'zlarning yozilishi va talaffuzini xotirada qoldirish;
 - so'zlarning tarjimasini tez tushunish ko'nikmasini nazorat qilish;
 - talabani so'z birikmasi, gap va kichik matnni yaratishga yo'naltirish;
 - ko'rgazmali vositalardan foydalanish;
 - pedagogik-metodik jihatdan o'quv mashg'ulotini samarali tashkil qilish va ularni rag'batlantirish;
 - xato va kamchiliklar ustida interaktiv tarzda ishlash.
- O'zbek tilini innovatsion texnologiya va zamonaviy metodlardan foydalangan holda o'qitishda talabalarining psixologik tayyorgarligiga ham e'tibor qaratish zarur. Psixologik yondashuv tilni puxta o'rganishga ko'maklashadi. Avvalo, diqqatni jamlashga ahamiyat berishi kerak. Talabalarda topqirlik, sezgirlik, mehnatsevarlik,

tashabbuskorlik, raqobatbardoshlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi. Mantiqiy fikrlash, xotirani rivojlantirish, mulohaza qilishning yo'l va vositalari esa ta'lim jarayonida yetakchi rol o'ynaydi.

“Xotira – atrof muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon, ... barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunoncha mnema xotira) faoliyatidir” [4: 417]. Umuman olganda, o'zbek tilini o'rganishda xotirani rivojlantirishning o'рни beqiyos. Chunki o'quv darsligidagi nazariy-amaliy, ilmiy-metodik ma'lumotlarni yodda saqlash, sohani mukammal egallashga xizmat qiluvchi axborotlar bilan ishlashda xotiraning o'рни beqiyos.

Leksik va sintaktik birlik va vositalarni qayta esga olish orqali talabani bilimi mustahkamlanadi, nutqi rivojlanadi, fikrlash doirasi o'sadi. Rus akademigi I.P.Pavlov fikricha, “... fikrlash tufayli inson “borliqning hokimiga” aylangan bo'lsa, hayvonlar abadiy “tabiat quli” bo'lib qolaverdilar. Shu bois, tafakkur voqelikni bevosita so'z yordamida umumlashma tarzda aks ettirish jarayonidir. Atrof-muhitdagi hodisaning tashqi ifodasi sezgi, idrok, tasavvur jarayonida yorqin, obrazli tarzda... aks etadi. Tafakkurda inson ularning murakkab bog'lanishlarini anglab yetadi” [2: 202]. Tevarakatrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisaga o'z tasavvurida muayyan tafakkur paydo bo'ladi hamda mazkur jarayon zahirida sezgi va idrok qilish kabi psixologik faoliyat o'z ifodasini topadi.

A.V.Petrovskiyga ko'ra, “tafakkur – ijtimoiy muhit asosida vujudga kelgan munosabat bo'lib, nutq bilan chambarchas bog'liq, muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir” [3: 202]. Tafakkur qilish biror voqelikning ishtirokchisi bo'lish yoki uni tahlil qilish asnosida aniqlashadi va umumlashtiriladi.

O'zbek tilini o'rgatishda ta'lim jarayoni subyektlariga motivatsiya zavq bag'ishlaydi. Darsda ko'proq og'zaki nutqdan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ular hali yozish va o'qishdan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabalarning o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun mahalliy va xalqaro tajribalarga tayanilgan zamonaviy materiallardan foydalanish ularning kommunikativ, pragmatik kompetentligini rivojlantiradi.

Ma'lumki, til o'rganishda og'zaki nutq, ya'ni tinglab tushunish va gapirishni shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib, yozma nutq – o'qish va yozuv og'zaki nutqni rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda o'z tili va o'zbek tilining grammatikasi o'rtasidagi o'xshashliklar, differensial xususiyatlar misollar, mashq va topshiriqlar orqali tushuntirilishi o'rganuvchi va o'rgatuvchi uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. O'quvchilar ingliz tili darsliklaridagi qiziqarli topshiriqlarni bajarishda so'zlarning leksik ma'nosini bilishi, rangli rasmlar orqali o'z fikrini erkin bildirishi ularda darsga nisbatan qiziqishni oshiradi. Ingliz tili darslarida so'z zaxirasini boyitish bilan birga, kommunikatsiyani ham o'stirib borish lozim. Tinglovchi va so'zlovchi gap tuzish va fikr almashishni maqsad qilar ekan, lug'at boyligi zaruriy vositadir.

Til o'rganish jarayonining muhim omillaridan biri – vaqtdan unumli foydalanish. Buning uchun faqat kitob o'qish bilan cheklanmay, suhbatlashish, eshitish, yozish usullaridan foydalanish ham kerak. IELTSda talaba shu to'rt tamoyilda imtihondan o'tadi. IELTS bu – xalqaro imtihon turi bo'lib, undan yaxshi natijaga erishgan talaba universitetga kirish, ishga joylashish kabi ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'ladi. Imtihonni ingliz tilida, yuqori tajriba va salohiyatga ega chet ellik mutaxassislar oladi.

Demak, ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va xalqaro metodologiyalar asosida o'qitish zarur. Bu jarayon, o'z navbatida, o'quvchilarning xotirasi, voqelikka munosabati, keng qamrovli tahliliy fikrlashi, tasavvur etish qobiliyati, ijodiy tafakkuri, og'zaki va yozma nutqi, shuningdek, mustaqil izlanish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4561730>.
2. Петровский А.В. Общая психология, изд. 2, перераб. и доп. - М.: Просвещение, 1976. - 479 с.
3. Петровский В.А. Психология неадаптивной активности. – Москва: Российский открытый университет, 1992.
4. G'oziyev E.F. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010.

Nilufar OMONOVA,

Navoiy davlat universiteti 3-kurs talabasi

ATOIY SHE'RIYATIDA TABIAT BILAN BOG'LIQ POETIK OBRAZLAR TASVIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Atoiy she'riyatida tabiat mavzusining yoritilishi, xususan, peyzaj janridagi tabiiy manzaraning vosita sifatida tutgan o'рни tahlil qilinadi. Lirik qahramonning ruhiy-ma'naviy olamini ochib berishda tabiat tasviridan san'atkorona foydalanish holatlari yuzasidan mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: shoir, peyzaj, lirika, obraz, tabiat, mavzu, mahorat, g'azal.

Annotation. The article examines the role of nature as a medium in landscape lyrics, as well as the artist's mastery in revealing the spiritual world of the lyrical hero through illuminating the theme of nature in Atai's poetry.

Keywords: poet, landscape, lyrics, image, nature, theme, skill, gazele.

Аннотация. В статье рассматриваются роль природы как медиума в пейзажной лирике, а также мастерство художника в раскрытии духовного мира лирического героя через освещение темы природы в поэзии Атаи.

Ключевые слова: поэт, пейзаж, лирика, образ, природа, тема, мастерство, газель.

Milliy adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda yetishib chiqqan ulkan so'z san'atkorlaridan biri Atoiydir. XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida yashagan shoir yetuk zamondoshlari kabi badiiy ijodi bilan turkiy adabiyot va adabiy til ravnaqiga hissa qo'shdi. Uning badiiy mahorati, g'azallarining soddaligi va xalqona uslubda yaratilgani borasida ko'p mulohazalar bildirilgan.

Atoiy g'azallarida tabiat tasvirining go'zal manzaralarini ko'ramiz. U tabiatdan "hech kimning nigohi tushmagan" manzaralarni topa olgani uchun yangicha tashbehnlarni g'azallariga singdiradi. Zero adabiyotshunos Ergash Ochilov aytganidek, "aslida shoirning shoiriligi hamma ko'rib, hech kim e'tibor bermaydigan narsalardan ham go'zallik topib, barchaning e'tiborini unga jalb eta olishda. Ko'zga tashlanmaydigan narsani diqqat markaziga ko'chirishda. Shoir hayotni, tabiatni, odamlarni sinchkovlik bilan kuzatadi va tevarak-atrofdan, turmushdan o'z fikrlarini go'zal va ta'sirchan ifodalash uchun hech kim kutmagan tashbehlar topib, hammani hayron-u lol qoldiradi" [1: 177]. Atoiy aynan shunday shoirlardan biri edi. Uning g'azallarida tabiat – fasllar, gul-u rayhonlar, bulbul-u to'tilar butun go'zalligi bilan namoyon bo'ladi:

*Mujda berdi subhidam zulfung nasimidin sabo,
Jon muattar bo'ldi, ko'nglum topti yuz turluk safo* [2: 25].

Tongda shabada esishi, atrofga xushbo'y hid taratishi, undan jon safo topishi hammaga ayon. Ammo bu tonggi sabo oshiqqa yori zulfining xabarini keltirmoqda. Bu esa oshiqqa xursandlik baxsh etadi.

Atoiyning ayrim oshiqona, diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azallarida tabiat manzaralari tasvirlansa, ba'zi g'azallari to'liq tabiat tasviriga bag'ishlangan. "Yoz faslidur vale men yorsiz", "Bahor o'ldi, kel ey gulruh, gulistonlar sari keza", "Xazondek ayladi baxtim, bu yil fasli bahorimni", "Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi" deb boshlanuvchi g'azallarida asosiy e'tibor yoz, bahor fasllarining ta'rifiga qaratilgan. Shoir bahorni ulug'laydi, uni go'zallik, suhbat, shodlik, bulbullarning nag'malari, gulning bulbulga iltifot ko'rsatish fasli deb biladi, yoriga esa bahor kelganidan darak beradi:

*Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo'ldi.
Qilay nola, boqib guldek yuzungga,
Chu bulubullarg'a afg'on vaqti bo'ldi* [2: 265].

Bahor – gullar fasli. Bulbul – gul oshig'i. Oshiq ham o'z yorini gulistonga chorlaydi. Shoir xuddi gul-u bulbul kabi shodlig-u aysh vaqti kelganini bildirmoqda:

*Gul-u bulbul bikin gulbunlar ichra,
Nishotu ayshni pinhon vaqti bo'ldi* [2: 265].

Shor merosini o'rgangan olim S.Sayfulloh shunday yozadi: "Atoiy she'riyati jonli, hayot bilan hamnafas, tabiat bilan uyg'undir. Tabiat go'zalligi, nafasat, bahordagi uyg'onish shoirni hayratga soladi, ichki olamini junbushga keltiradi va yashash mohiyati haqida o'yga toldiradi" [2: 14].

"Tabiat Sharq she'riyatining beshigi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Xususan, lirikani Sharq xalqlari adabiyotida gul-u bulbullarsiz, bog'u bo'stonlarsiz, sarv-u shamshodlarsiz tasavvur etish qiyin" [3: 73] degan edi professor A.Hayitmetov. Bu fikrlar Atoiy g'azaliyotiga ham tegishli. Chunki g'azallarida nabotot – o'simliklar dunyosining tasviri juda ko'p uchraydi. Gullar, daraxtlar, bog'u bo'stonlar, o'simliklar shoir fikrlarini asoslovchi vositalardir. *Lola, nastarin, rayhon, binafsha, g'uncha, qizil gul, lolazor, gulg'uncha* kabi gul-u bo'stonlarni; *sarv, tubi, sanubar, daraxt, tol, shamshod, chinor* kabi daraxtlarni eslatuvchi obrazlar ma'shuqaning qaddi-qomati, yuzi, sochi, xol va ko'zlarini tasvirlashda tashbeh vazifasini bajaradi, oshiqqa xos holatlarni bayon etishda ishlatiladi.

*Oh o'tturdi firoq ul gul uzorimdin yiroq,
Lola yuzluq, sarv bo'yluq, to'g'ri yorimdin yiroq* [2: 121].

Hayotda gul, lola ko'inishi, rangi, hidi, go'zalligi bilan mashhur. Sarv esa to'g'ri o'sadigan daraxt sifatida ma'lum. Tabiatdagi shu go'zalliklar ma'shuqaga tashbehlanaadi. Yorning yuzi – gul. Bunda gulning nafisligi, rangi asos qilib olingan. Lirik qahramon yoridan ayrilgan. Firoq uni shu

holga solgan. Oshiq gul yuzli, lola yuzli, sarv bo'yli yoridan ayirgani uchun nadomat chekadi.

Boshqa bir o'rinda oshiq yorini lolazorga o'xshatsa, o'zini andalib – bulbulga qiyoslaydi:

*Nola qilsam har zamon etmang, ey ushshoqkim,
Andalibi benavollik, lolazorimdin yiroq* [2: 121].

Lirik qahramon ushshoqlarga – oshiqlarga murojaat qilib, “bulbul lolazoridan ayrilsa, fig'on tortganidek, men ham yorimdan yiroqlashsam, nola chekaman, bunda meni ayblamang”, deydi.

Boshqa bir baytda esa oshiq o'z yorini lola, nasrin – nastarin, sunbul, rayhondan ham ustun qo'yadi:

*Yod qilmas zulfu ruxsori xatingni ko'rgali,
Lola-u nasrin-u sunbul birla rayhondin ko'ngul* [2: 142].

Inson go'zal narsalarga talpinadi. Bog', gulzor, gullar, sarv-u sunbullar kishining ko'ngliga quvonch baxsh etadi. Ammo oshiq yorining zulf, ruxsor, xatini ko'rganida bularga e'tibor bermaydi. Bu yerda ma'shuqaning yuzi lola va nastarindan, zulfi sunbuldan, xati (lab ustidagi miyiqalar) rayhondan ustun qo'yilmoqda.

Atoiy g'azallarida ko'plab hayvon, qush va hasharotlar nomi ham keltiriladi. *Shahboz, bulbul, andalib, tovu, to'ti, anqo* kabi qushlar; *it, o'hu* kabi hayvonlar; *parvona, chibin* kabi hasharotlar lirik qahramon va ma'shuqaga xos jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. “Tabiat bilan bog'liq tasvir hamda ifodalar ko'proq shoirning ichki kechinmalari bilan parallel holda berilishi Navoiy davrigacha muayyan an'ana tusini olgan, deyish mumkin. O'zbek mumtoz lirikasining bizga ma'lum manbalarida bu hol ko'proq ishqiy xarakterdagi, vasf tipidagi g'azallarga to'g'ri keladi” [5: 40]. Atoiy g'azallarida ham hayvonot olami, ularga xos sifatlar, holat va xatti-harakatlar ma'lum bir g'oyaviy maqsadga xizmat qiladi. Ma'lumki, qadimda qush ovlari bilan ovga chiqish rasm bo'lgan. Burgut, lochin, shahboz kabi qushlar o'zlariga nisbatan kichikroq qushlarni ovlash uchun uchirilgan. Atoiyning quyidagi baytida shunga ishora bor:

*Ko'ngullar qushlarin sayd etmak ichra,
Ko'zung shahbozini sayyod o'qurlar* [2: 90].

baytga ko'ra, ma'shuqa va uning ko'zi – shahboz. U oshiqlar ko'nglini ovlash uchun ovga chiqqan.

Shoirning boshqa bir baytida yor husn bobida tovuqga o'xshatiladi:

Ey husnu malohat chamani sahnida tovu,

Ko'zumdin ucharsen, netayin, bolu parim yo'q [2: 120].

Mumtoz adabiyotimizda eng ko'p tilga olinadigan qush – bulbul. Bu qush oshiqlar timsoli. Baytda bahor, gul, yomg'ir, bulbul tushunchalari yonma-yon keladi. Atoiy g'azallarida ham bunga shohid bo'lamiz:

*Yo rab, meni ul sarvu xiromondin ayirma,
Bulbulni o'shal bog'u gulistondin ayirma* [2: 210].

Lirik qahramon Ollohga murojaat qilib, uni “sarvi xiromon”i, ya'ni sevgilisidan ayirmasligini o'tinmoqda. Bu xuddi bulbulni “bog'u gulistondan” ayirishday gap. Bu yerda oshiq – bulbul, ma'shuqa – bog'u guliston deb baholanmoqda.

Quyidagi baytda esa bulbul bahor kelganida sayrashni boshlashi tasvirlanadi:

*Gar niqob olsang yuzingdin, nola qilsam ne ajab
Kim, gul ochilsa bo'lur payvasta bulbul g'ulg'uli* [2: 229].

Atoiyning bir baytida anqo tilga olinadi. Anqo – kamyob, hammaga ham ko'rinavermaydigan afsonaviy qush. Qadrli, kam uchraydigan narsalar unga nisbatan beriladi:

*Anqodurur jahonda vafo, bulbuli faqir,
Bilmay, ko'ngulni guli hurramg'a bog'ladi* [2: 267].

Shoir fikricha, jahonda vafo anqodir. Oshiq buni anglamay ma'shuqaga ko'ngil bergan.

*Biz firoqning birla soz ettuk, raqibing vasl ila,
O'tga parvona kerak, ore asal yerga magas* [2: 105].

Yuqoridagi baytga ko'ra, oshiq firoqda – ayriliqda qolgan. Raqib esa visolga erishgan. Parvona o'zini o'tga uradi, magas esa asalga. Mazkur baytda oshiq parvonaga (u o'zini olovga, chiroqqa, sha'mga urib, halok bo'ladi), raqib magas – chivinga (qayerda shirinlik bo'lsa, o'zini urgani uchun) tenglashtirilgan. Quyidagi baytda ham sha'm va parvona tilga olingan:

*Ko'p kishi da'vo qilur sham'i jamoling mehrini,
Yo'q yana mendek, yonar bir ichkuyar parvonasi* [2: 239].

Ma'shuqaning oshiqlari ko'p. Uning visolini istaganlar talaygina. Lekin sha'mning parvonasi bo'lish, yor ko'yida parvonadek kuyish faqat haqiqiy oshiqqa xos.

Aytish mumkinki, Atoiyning lirik asarlari o'quvchilarning badiiy didi, dunyoqarashini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov Bir hovuch dur. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Atoiy. Devon (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi Sayfiddin Sayfullah). – Toshkent: Fan, 2008.
3. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
4. Jo'rayev H. Navoiy lirikasida an'anaviylikka munosabat. – Toshkent, 2011.

Gulbahor ERNAZAROVA,

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SHE'RIYATDA MUMTOZ MOHIYAT: MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIK

Annotatsiya. Xalqimiz madaniyati va adabiyotining hayotbaxsh an'alarini saqlab kelayotgan mumtoz adabiyotning zamonaviy she'riyatga ijodiy va ijodiy ta'sirini tadqiq etish kun tartibidagi muhim masalalardan biriga aylangan. Maqolada ularning o'ziga xos jihatlari va farqli belgilari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, uslub, she'riyat, an'ana, metod.

Annotation. Studying the positive and constructive influence of classical literature, which preserves the life-giving traditions of Uzbek culture and literature, on contemporary poetry has become one of the important issues on the agenda. The article provides information on their specific aspects and distinctive features.

Keywords: classical literature, poetry, style, tradition, method.

Аннотация. Изучение позитивного и созидательного влияния классической литературы, сохраняющей живительные традиции культуры и литературы узбекского народа, на современную поэзию стало одним из важных вопросов повестки дня. В статье приводятся сведения об их специфических аспектах и отличительных чертах.

Ключевые слова: классическая литература, поэзия, стиль, традиция, метод.

Adabiyot tarixini o'rganib shunga ishonch hosil qilish mumkinki, kishilik jamiyatida muayyan bir ta'limot, konsepsiya, metod, yo'nalish, oqim goh kuchayib, goh zaiflashib, ba'zan butunlay unutilib ketishga mahkum bo'lgan. Bu esa ifoda usullarining voqelikni qamrab olish ko'lamini, an'alarining hayotbaxshligi, badiiyati, g'oyaviyligi, unga bo'lgan talab va ehtiyojning muhimligi kabi bir qator masalalar bilan chambarchas bog'liq. Romantizmning klassizm, klassizmning realizm, realizmning modernizm, modernizmning postmodernizm, postmodernizmning globallashuv davri adabiyotlari bilan o'rin almashganidek, ular bag'ridagi oqim, yo'nalish, ta'limotlar ham ba'zan ustuvor, ba'zan passiv adabiy usullar sifatida ko'zga tashlanadi. Biroq biror-bir xalq adabiyoti turli davrlarda "izm"lar ta'sirida bo'lsa-da, milliy, an'anaviy ildizlaridan butunlay uzilib ketolmaydi. Ushbu milliylik, an'anaviylik o'zidan keyingi davr adabiyoti namunalarida u yoki bu tarzda o'zligini namoyon etib turadi. Bu rang-baranglik, ayniqsa, XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'tgan asr boshlari ko'p asrlik feodalizm hukmronligidan so'ng qoloqlik va tanazzulga tushib qolgan Turkiston xalqlari hayoti jahonning bemisl taraqqiyoti bilan to'qnash keldi. Bu davrda Yevropaning bir qator taraqqiy etgan mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy hayotning aks-sadosi sifatida syurrealizm, avangardizm, dadaizm, imanizm, futurizm singari turli modernistik oqimlar paydo bo'lgan edi.

"Jadid adabiyoti – an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir. Aslida bu davrda jadid adiblaridan tashqari diniy adabiyot vakillari, saroy adabiyoti (Buxoro amirligida) ham faoliyat ko'rsatdi" [2: 7]. Jadid adabiyoti milliy adabiyotimiz tarixidagi mumtoz va zamonaviy adabiyot ro'baro' kelgan joyda paydo bo'lgan o'tish davri adabiyotidir. Undagi yangilik, novatorlik, o'ziga xoslik – garchi G'arb adabiyotining ma'lum ta'sirida bo'lsa-da, aynan mumtoz adabiyot bag'ridan yetishib chiqdi. 20-yillarda nazariy jihatlari asoslanib, 1934-yilda rasman e'tirof etilgan socialistik realizm aqidalari mazkur

adabiyotni boshqa bir o'zanga solib qo'ydi. Biroq bu davrda ijod qilgan Sadridin Ayniy, G'afur Gulom, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda kabilari, birinchidan, mumtoz adabiyotdan yaxshi xabardor edilar (ularning adabiyot tarixiga oid yozgan maqola, ilmiy maqola, risola, monografiya singari janrlardagi tadqiqotlari shundan guvohlik beradi), ikkinchidan, ular mumtoz mohiyatni she'rlariga singdirishga harakat qildilar.

Sosrealizm davrida Sharq mumtoz adabiyoti an'analari ruhida yozilgan she'rlarga bee'tibor qaralardi. Shu bois Charxiy, Boqiy domla, Sayfiy, Anisiy, Ulfat, Bokir, Alham kabi shoirlarning aksariyat asarlari qo'lyozma holda qolib ketdi va deyarli o'rganilmadi. Nomi qayd etilgan va etilmagan yana o'nlab shoirlarning adabiy merosi chop etilib, tadqiq qilinsa, XX asr o'zbek she'riyatining manzarasi o'zgacha qiyofa kasb etgan bo'lardi.

Yangi davr o'zbek she'riyatida voqelikni poetik idrok etishda tasavvufiy ohanglar – ramzlar, simbolik obrazlar, rindona qarashlar, olam va odam butun marakkabliklari va ziddiyatlari bilan falsafiy talqin etilar, so'fiylarning hikmatlari, ibratlari, lutflari, muborak nomlari imo-ishoralar tilida yashab qoldi, hozirgi she'riyat poetikasida mustahkam qaror topdi.

Ijodiy ta'sir ruhiyatda kechadigan murakkab jarayon. Bu ta'sir san'atkor qalbiga singib, uning xos tabiatiga aylanadi hamda oddiy nigoh bilan ilg'ash qiyin bo'lgan bir shaklda namoyon bo'ladi. O'zbek she'riyatini donishmand shoiri Abdulla Oripovning "Haj daftari" turkumiga kirgan she'rlari payg'ambarimiz hadislariga hamohang tarzda yuzaga kelgan bo'lsa, Asqar Mahkam she'r va dostonlarida diniy-tasavvufiy va falsafiy-tasavvufiy tajriba va qarashlar uyg'unlashib ketadi. Abduvali Qutbiddin she'riyatida bo'lsa tasavvufiy falsafa modern shakllarda izhor etilgan.

Milliy ozodlik, taraqqiyot, ma'rifat, islohat kabi g'oyalar bilan maydonga chiqqan jadidlar o'tgan asr boshlarida adabiyotda bir qator yangilanish va o'zgarishlar an'anasini boshlab berishdi. Socialistik realizm tamoyillariga

muvofiglashtirilgan davr adabiyotidagi yakranglik o'tgan asrning 60–70-yillariga qadar davom etdi. Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Muhammad Ali kabi shoirlarning she'riyatida jadid adiblari kuylagan g'oyalar, adabiy usullar bo'y ko'rsata boshladi. 70-yillar avlodi deya nom olgan Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Abdulla Sher kab ijodkorlar esa bu yangilanishlar an'anasini yanada kengaytirdilar.

Istiqlol arafasi va undan keyingi o'n yilliklar o'zbek she'riyati janriy rang-baranglik, uslubiy o'ziga xoslik, poetik g'oya va ifoda tarzining xilma-xilligi bilan jadidlar davri adabiy jarayonini esga soladi. Bu davr adabiyotining eng xarakterli belgilaridan biri – katta-kichik shoirlarning aksariyatida tasavvuf ruhidagi asarlarning paydo bo'lishi edi.

80-yillarda adabiyotga kirib kelgan Asqar Mahkam, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Eshqobil Shukur, Abduvohid Hayit, Halima Ahmedova, Zebo Mirzolar ijodida mumtoz ruh modern shakllarda ifodaga tortilgani e'tiborlidir. Ular ijtimoiy mavzulardan chekindi, asosiy e'tiborni ko'ngilga qaratdi; shartli ma'nodagi "sof lirika" yaratishga harakatlar boshlandi. Ularning ijodida mumtoz an'anaviy janrlarni ko'rmaymiz. Umuman olganda, XX asr o'zbek she'riyati janrlarini Jamol Kamol ta'biri bilan aytganda, "universal she'rlar" deb atash to'g'riroq bo'lardi. Obrazli qilib aytganda, g'arbona shakl sharqona mazmun bilan uyg'unlashdi. Istiqlol arafasi va undan keyingi davr she'riyati "kollektiv men"dan shaxsiy "men" tomonga yuzlandi. Tabiiyki, bu jarayon she'riyatda mumtoz mohiyatning maqomini kuchaytirdi, she'riy janr va shakllar borasida rang-baranglik, kompozitsion – uslubiy xilma-xillik hosil qildi.

O'tgan asrning 80-yillarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mafkuraviy vakuum necha o'n yilliklar davomida ishonib kelingan e'tiqodning, ateistik g'oyalarning, bir qarashda gumanistik tuyuladigan shior va ideologik qarashlarning mo'rt va omonatligini ko'rsatdi. Natijada ma'lum muddat publitsistik chaqiriq ruhidagi she'rlar ham maydonga keldi va o'z o'rnini asta-sekinlik bilan ko'ngil she'riyatiga bo'shatib berdi. She'riyatda tasavvufiy ohanglar, avvalo, obrazlar timsolida ko'rina boshladi. Shoirilar so'fiy shoirlar obraziga murojaat qilish orqali kishilarda so'natotgan ishonch va e'tiqod tuyg'usini mustahkamlashga, milliy o'zlikni anglashga, ulug' ajdodlar ruhidan madad olishga da'vat eta boshladilar. Sinfiy kurashga asoslangan sosrealizm aqidalari o'rniga mumtoz she'riyatga xos nafsga qarshi kurash g'oyasi she'riyatda o'zligini tasdiq eta bordi. Mazkur xususiyat, ayniqsa, Asqar Mahkam va Abduvali Qutbiddin she'riyatida pafos darajasiga ko'tarildi.

Zamonaviy she'riyatda voqelikning poetik manzaralarini gavdalantirishda tasavvufiy talqinlarning muhim ahamiyat kasb etishini Abdulla Oripov she'rlari misolida ham ko'rish mumkin:

*Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar, siz bukun
Yassaviy xok-poyidan aylab oling tumorlar [3: 91].*

Milliy o'zlik tuyg'usiga putur yetgan, diniy qadriyatlar unutilayotgan ateistik mafkura hukmronligi davrida Abdulla Oripovning o'z zamonasi dardlariga Yassaviy siymosidan davo izlashi g'oyat o'rinli va jasoratli harakat edi. Chunki Yassaviy ham o'z davrida "nafs ilgi"dan qutulmoq, atrofda to'lib-toshgan fisq-u fujurlarga barham bermoq yo'llarini izlagan. Yomonlik, nodonlik, jaholat, molparstlik illatlariga rivoj bergan dunyoni yurakdan quvishga da'vat etgan.

Bir qator shoirlar ijodini mumtoz adabiyot bilan qiyosiy o'rganish hozirgi o'zbek she'riyatining asl ildizlarini ochishga xizmat qiladi. Abdulla Oripovning "Ruhim", "Ishonch", "Savob", "Sen uzoq yashaysan", "Qonuniyat", "Olomonga", "Xotiro", "Ona sayyora" kabi she'rlari shunga asos beradi. "Sharq hikoyasi", "Tulki falsafasi", "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" esa Fariddin Attor, Jaloliddin Rumi asarlaridagi she'riy hikoyatlarni esga soladi.

Asqar Mahkam she'riyatida ham bunday adabiy ta'sirni uchratish mumkin. Uning "Tavajjuh" dostoni shoh va shoir Zahriddin Muhammad Boburning ko'ngil hasratlariga bag'ishlangan bo'lib, shoh, ammo qismatning quli bo'lgan "darvesh" Boburning borlig-u yo'qlikka xitobi, Yaratganga iltijosi, taqdir va o'z ko'ngliga yog'dirgan malomatidek jaranglaydi:

*Lovullar oy aro falak dog'lari,
Sirg'alar bulutlar uzra bir tobut.
Poyida daryolar yotmishdir o'lib,
Ustida yaproqlar qo'rg'oshin sovut.
Qamishzor chayqalar lashkargoh kabi,
Qoniga belanib qo'ymaydi azal.
Ko'z yoshlar sizilib oqqan jismdan
Tikilar sipohlar yozmishi – ajal... [1: 219].*

Bobur timsolida hayotiy voqea-hodisalar hamda insoniy munosabatlardagi chigallik va fojiaivlikni falsafiy tafakkur sintezidan o'tkazish o'z mohiyat bilan olamga va odamga falsafiy poetik nazar solishni taqozo etardi. Falak dog'larini, bulutlar uzra sirg'alib borayotgan tobutlarni, o'lik daryolarni, qo'rg'oshin sovutga o'xshash daryo sirtini ko'rgandek bo'lamiz. Shoir bunda xalq qissachiligi an'analarga sodiq qolib, asar sujetini ham nasriy, ham she'riy tarzda rivojlantiradi.

Demak, istiqlool arafasi va undan keyingi davr adabiyotida necha o'n yilliklar davomida yetakchi bo'lib kelgan ijtimoiylik mavzusi o'z o'rnini ko'ngil she'riyatiga bo'shatib berdi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu esa o'z navbatida, ijodiy izlanishlar, tajribalar miqyosini kengaytirdi, natijada tasavvuf ta'limoti, modernizm an'alarini o'qib-o'rganish va ijodiy o'zlashtirish kuchaydi. Shu tariqa hozirgi o'zbek she'riyatida mumtoz an'alar qaror topa boshladi, uslublar va ifoda tarzi ranginlashdi, olam va odamni talqin etishga munosabat o'zgardi, poetik mazmun teranlik va originallik kasb etdi, yangilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahkam A. Haq. – Dushanbe: Adab, 1998.
2. Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari. – Toshkent: Universitet, 1993.
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.

Nargisa AKHMEDOVA,

Teacher the Department of Languages
University of Science and Technology

INNOVATIVE LANGUAGE TEACHING STRATEGIES FOR ART STUDENTS: USING MINIATURE PAINTINGS TO BUILD CREATIVE COMPETENCE

Annotation. This article describes effective methods of organizing English lessons for students through the study of miniatures by Kamoliddin Behxzod, an eminent miniature painter and leading figure of the Eastern Renaissance, founder of the Herat School of Miniature Painting, and renowned artist honored with the title “Second Moni”. The study analyzes teaching strategies specifically tailored to students specializing in the visual arts, emphasizing practical insights and specific instructional techniques.

Keywords: creative competence, motivation, student ability, logical thinking, task-based learning, self-study, creative thinking, learning experience, conversational English, independent learning.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq Uyg'onish davrining yetakchi vakili, Hirot miniatura maktabining asoschisi va “Ikkinchi Moni” faxriy unvoniga sazovor bo'lgan taniqli rassom Kamoliddin Behxzodning miniaturalarini o'rganish orqali talabalarga ingliz tili darslarini tashkil etishning samarali usullari bayon etilgan. Tadqiqotda tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus moslashtirilgan o'qitish strategiyalari tahlil qilinib, amaliy yondashuvlar va aniq o'qitish usullariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kreativ kompetensiya, motivatsiya, talabalar qobiliyati, mantiqiy fikrlash, topshiriqlar asosida o'qitish, mustaqil ta'lim, kreativ fikrlash, o'quv tajribasi, ingliz tilida so'zlashuv, mustaqil ta'lim.

Аннотация. В данной статье описываются эффективные методы организации уроков английского языка для студентов посредством изучения миниатюр Камолитдина Бехзода – выдающегося художника-миниатюриста, ведущего представителя Восточного Возрождения, основателя Гератской школы миниатюрной живописи и признанного мастера, удостоенного почётного звания «Второй Мани». Исследование анализирует стратегии преподавания, специально адаптированные для студентов, обучающихся по направлению изобразительного искусства, с акцентом на практические подходы и конкретные методики обучения.

Ключевые слова: творческая компетенция, мотивация, способности студентов, логическое мышление, обучение на основе заданий, самостоятельное обучение, креативное мышление, учебный опыт, разговорный английский, независимое обучение.

In the 21st century, proficiency in foreign languages, particularly English, has gained significant importance across all fields, including the arts. As education continues to evolve, greater emphasis is placed on cultivating creativity and independent thinking among learners. For students pursuing visual arts, creativity is not merely intrinsic to their artistic practices but also essential to their educational experiences. Consequently, English language instruction tailored specifically to future artists must transcend traditional approaches by integrating innovative methods designed to foster artistic and creative competencies.

This article explores how the works of Kamoliddin Behxzod—a prominent figure of the Eastern Renaissance and founder of the Herat School of Miniature Painting—can be effectively incorporated into English language classes to enhance students' creative abilities. By examining specific teaching strategies such as the Structural Approach, Suggestopedia, and the Direct Method, the study demonstrates how Behxzod's miniatures can function as powerful instructional tools in creating a dynamic, engaging, and culturally enriched learning environment. Utilizing such visually stimulating and culturally relevant content, students are encouraged to express themselves creatively, think

critically, and build deeper connections between language learning and their emerging artistic identities [4: 56].

We can clearly state that the demand for proficiency in foreign languages has reached unprecedented levels in the 21st century. In contemporary pedagogy, there is a growing need for innovative and creative approaches to teaching students.

Creativity provides an engaging and effective foundation for lesson organization, particularly when employing innovative technologies. Through creative competencies, students become motivated toward innovation, develop independent thinking skills, and continuously broaden their worldview. In today's modern context, creative thinking holds significant value. One might inquire about the specific fields in which creativity is most prominent [1: 26].

In response, it is evident that nearly all branches of art, particularly visual arts, require a creative approach. Moreover, creativity significantly influences the effectiveness with which educators structure their lessons. If a teacher can successfully cultivate and strengthen the creative competencies of students specializing in artistic disciplines, particularly painting, that teacher will be highly valued in today's educational landscape.

problem-solving challenges, and interdisciplinary modules all contribute positively to the development of language skills, higher-order thinking, and professional communication abilities. Moreover, integrating AI technologies aligns closely with the existing technological competencies of ICT students, thereby enhancing the relevance and effectiveness of their learning experiences. Successful implementation requires competent instructors, appropriate curricular frameworks, and strong institutional support. Challenges identified include insufficient instructor expertise in artificial intelligence, inadequate personalised instructional resources, and misaligned assessments. Future research should investigate the long-term effects and scalability of deep learning-based English instruction across diverse institutions and geographical contexts.

Deep learning provides a suitable educational framework for teaching English to ICT students. By emphasising meaningful learning, interdisciplinary integration, and technological mediation, this method aligns well with the cognitive profiles and professional needs of ICT learners. Educational institutions aiming to enhance ICT students' English language skills should integrate deep learning principles into their curricula, while simultaneously providing staff with training and access to AI-driven resources. Further empirical research is recommended to evaluate long-term outcomes and continually refine educational frameworks.

References

1. Azizova G. ESP Implementation for ICT Students in Uzbekistan: Challenges and Prospects. // Journal of Foreign Language Education and Technology, 2022, 10(2), pp. 56–67.
2. Biggs J., Tang C. Teaching for quality learning at university. 4th ed. – McGraw-Hill Education, 2011.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and language integrated learning. – Cambridge University Press, 2010.
4. Jensen E., Nickelsen L. Seven powerful strategies for deep learning. – East China Normal University Press, 2010.
5. Lin C., Chen H., Zhang Y. Adaptive learning in ESP through AI tools. // Educational Technology & Society, 2020, 23(1), pp. 45–59.
6. Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education. – Macmillan, 2008.
7. Wang S., Vasquez C. Web 2.0 and second language learning: What does the research tell us? // CALICO Journal, 2012, 29(3), pp. 412–430.
8. Xu J. AI-enhanced feedback in ESP writing: Challenges and innovations. // Computer Assisted Language Learning, 2022, 35(4), pp. 645–662.
9. Yang J., Zhang C., Li X. Deep learning applications in language education: A review. // Journal of Educational Computing Research, 2021, 59(6), pp. 1071–1093.

Makhliyo KAMOLOVA,

Jizzakh Polytechnic Institute, assistant

MAIN CONTENT OF DESIGN AND CONSTRUCTORY COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS

Annotation. This article discusses the essence, content, and components of project-design competence within the context of engineering education at technical higher education institutions. Project-design competence refers to an individual's capability to develop projects aimed at solving specific problems, creatively implement ideas, formulate constructive solutions, and most importantly, put these solutions into practice.

Keywords: higher education institution, engineer, competence, project-design competence, knowledge, skills, abilities, personal qualities.

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalaridagi muhandislik ta'limi jarayonida loyihalash-konstruktorlik kompetentligining mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlari haqida so'z yuritiladi. Loyihalash-konstruktorlik

kompetensiyasi deganda shaxsning muayyan muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish, g'oyalarni ijodiy amalga oshirish, konstruktiv yechimlarni shakllantirish va eng muhimi, ushbu yechimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati tushuniladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, muhandis, kompetensiya, loyiha-loyihalashtirish kompetensiyasi, bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность, содержание и компоненты проектно-конструкторской компетенции в контексте инженерного образования в технических вузах. Проектно-конструкторская компетенция – это способность индивида разрабатывать проекты по решению конкретных задач, творчески реализовывать идеи, формулировать конструктивные решения и, что самое важное, применять эти решения на практике.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, инженер, компетенция, проектно-конструкторская компетенция, знания, навыки, умения, личные качества.

Today, enhancing educational quality in Uzbekistan is closely linked to the effective integration of information technologies and modern educational practices in the development of young professionals. Supporting students' growth into qualified specialists according to their fields of interest underscores the necessity of cultivating their competencies and prioritizing their development.

Competence, as a concept, can be defined as a cohesive combination of knowledge, skills, abilities, and personal attributes that enable an individual to perform effectively within a specific area of activity. It involves not merely the acquisition of knowledge, but the capability to apply that knowledge accurately and efficiently in practical contexts.

The main components of competence include:

- **Knowledge:** theoretical information, concepts, and rules.
- **Skills:** practical experience in carrying out specific tasks.
- **Abilities:** inherent psychophysical capacities, such as rapidly assessing problem situations.
- **Personal qualities:** characteristics such as responsibility, initiative, sociability, and tolerance.

A teacher's pedagogical competence is demonstrated not only by their teaching ability, but also by their understanding of student psychology, effective use of technology, well-organized lessons, and successful achievement of educational objectives.

Thus, competence represents an integration of theoretical knowledge, practical training, experience, and personal attributes. It signifies not merely the possession of knowledge but the capacity to apply it effectively.

Within modern educational systems, certain competencies extend beyond theoretical knowledge and are prominently revealed through practical activity. Among these essential competencies is project-design competence, which holds particular significance in the context of contemporary scientific and technological advancements, especially within the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) educational framework. Project-design competence refers to an individual's ability to develop projects aimed at solving specific problems, creatively apply ideas, propose constructive solutions, and—most importantly—successfully implement these solutions. This competence encompasses the learner's capability to transfer theoretical knowledge into real-world contexts, exhibit innovative thinking, make independent decisions, and collaborate effectively in team settings.

The concept of competence and approaches aimed at fostering competence development among students have been extensively explored by various scholars.

For instance, J.A. Hamidov conducted research focusing on technologies for creating and employing modern didactic teaching tools in the training of future vocational education teachers. His work presented a conceptual approach to teaching general professional disciplines based on contemporary didactic tools, as well as the scientific and pedagogical foundations underlying their development and effective use [11].

O.Kh.Turakulov also contributed systematic research in this area. Turakulov's studies examined "the organizational and structural models of the informational educational environment, textual and digital educational materials, mathematical models, multimedia teaching resources, practical software packages, instructional and methodological resources tailored to specific disciplines, the selection of optimal teaching methods, innovative educational components, and software platforms for conducting practical and laboratory sessions" [8].

Furthermore, Uzbek scholars have placed particular emphasis on defining information technologies, which underpin modern digital technologies. According to X.A.Turakulov, "Information technology comprises systematically organized and structured methods for collecting, processing, storing, presenting, systematizing, transmitting, and facilitating user-friendly interaction with information, implemented through computer and telecommunication resources and associated software applications to address specific system-related issues" [9].

I.Kh.Nasriddinov and A.R.Khodzhaboev further note that information technology encompasses not only computer-based tools but also technical innovations and the rapidly advancing field of artificial intelligence [7].

Additionally, O.K.Filatov defines information technology as "a set of tools and methods designed to automate structures and processes across various domains, including educational, scientific, social, industrial, agricultural, administrative, organizational, and management activities" [10].

According to O.Kh.Turakulov, information technology encompasses processes of collecting, storing, processing, and transmitting information across all spheres of human activity. The extensive computerization of information processing constitutes the core of modern information technologies. Consequently, computers and their

peripheral devices are central to contemporary information technologies, providing essential technical support.

Several researchers (for example, V.L.Matrosov and I.A.Zimnyaya) have emphasized that the application of the project method in education promotes the development of students' active engagement, constructive-practical thinking, and creativity-oriented problem-solving skills.

Project-design competence, therefore, encompasses not only technical expertise but also integrates methodological approaches, creative thinking, and organizational skills. Specifically, it comprises the following key components:

- An understanding of the theoretical foundations underpinning project activities;
- The capability to formulate constructive and innovative solutions;
- Proficiency in utilizing technological tools and resources;
- Mastery of effective teamwork strategies;
- Competence in applying information technologies effectively.

Understanding the theoretical foundations of project activity means a scientific and theoretical understanding of the processes of organization, planning, implementation, and control of activities related to the project (project).

In other words, this is related to the project's activities:

- basic concepts (project, goal, task, result, etc.),
- principles (purposefulness, logic, systematicity, effectiveness, etc.),
- methods and approaches (analysis, planning, management methods),
- scientific theories and models (project management theory, design in education, innovation theory, etc.)

means knowing such elements and forming project activities based on them.

The ability to formulate constructive solutions is understood as the ability to propose and implement appropriate, clear, and practical solutions to existing problems or tasks.

This ability includes:

1. Correct understanding of the problem - analyzing the situation and identifying the main problem.
2. Logical and creative approach - the use of scientific, logical, and creative methods in finding a solution.
3. Being viable and practical - the proposed solution should be feasible, realistic, and effective.
4. Assessment of alternatives - the ability to compare different solution options and choose the most optimal one.
5. Decision-making - making a decision on the justification of a decision and its implementation.

For example, if a teacher has the ability to form constructive solutions, they can correctly analyze the problems arising in the educational process, choose and implement effective pedagogical approaches.

The ability to use technological means is understood as the skill and ability to purposefully and effectively use

modern information and communication technologies and other technical means.

This skill includes:

1. Use of technical means - the correct use of computers, laptops, projectors, interactive whiteboards, printers, tablets, and other equipment.
2. Knowledge of information and communication technologies - working with the Internet, email, online platforms (Google Classroom, Zoom, Moodle, etc.).
3. Use of software - skills in using Microsoft Office (Word, Excel, PowerPoint), graphic and multimedia programs.
4. Application of interactive educational technologies - enrichment of the educational process through multimedia presentations, video lessons, test platforms, simulators.
5. Information security - skills in ensuring the security of personal data, passwords, and software.

In short, this skill means not only a person's knowledge of technologies, but also the ability to work effectively using them. For example, if a teacher has the skills to use technologies, they can conduct a lesson in an interactive way, organize distance learning, and increase student interest.

Mastering the teamwork style means mastering and practicing methods of effective collaborative work in a group, mutual understanding with others, sharing responsibility, and working together towards a common goal.

This ability includes:

1. Ability to work collaboratively - establishing relationships with others, actively communicating, and participating in the performance of a common task.
2. Role and task allocation - the ability to fairly and purposefully distribute tasks among team members.
3. Collective problem-solving - the application of a collective approach to resolving disagreements, accepting the diversity of opinions, and finding solutions.
4. Responsibility is the feeling of personal responsibility for the work of the team and the conscientious fulfillment of one's duties.
5. Mutual respect and tolerance - respectful attitude towards the opinion of team members, being cultured in communication.

Mastering the teamwork style is one of the skills in demand, especially in the modern labor market, and plays an important role in building an effective team and implementing successful projects.

Effective use of information technologies means the purposeful, productive, and effective use of modern information and communication technologies (ICT). In this activity, technologies serve to create convenient and quick solutions for acquiring knowledge, working, communicating, and solving problems.

Effective use of information technologies means the purposeful, productive, and effective use of modern information and communication technologies (ICT). In this activity, technologies serve to create convenient and quick solutions for acquiring knowledge, working, communicating, and solving problems.

This concept includes:

1. Proper and purposeful application - the use of technologies at the right time, for the right task (for example, using Internet resources when preparing a lesson or using PowerPoint when creating a presentation).

2. Saving time and resources - automation of the work process through information technologies, reduction of paperwork, achieving quick results.

3. Analysis and sorting of information - the ability to select reliable and accurate information from a large amount of data on the Internet.

4. Use of interactive tools - use of video conferences, online platforms, electronic tests, simulation and multimedia resources.

5. Ensuring information security- protection of personal and official data, protection from dangerous websites and viruses.

In short, the effective use of information technologies means not only the launch of technology, but also its rational, productive, and useful application.

In conclusion, it can be said that design competence serves to enrich the content of education through practical activity.

The development of students' design and engineering competence serves as an important factor in the training of future engineers in technical higher educational institutions.

References

1. Asqarov I.B. Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning mohiyati. // Xalq ta'limi, 2017, №2.
2. Begmatov B.Y. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda tarmoqlararo integratsiyalab o'qitish asosida talabalar amaliyoti tadqiqi. / "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Namangan, 2023.
3. Begmatov B.Y. Problems of ensuring interaction between higher education institutions and production enterprises. // Innovative scientific research in XXI century, International Scientific and Current Research Conferences. – Austin, 2023, №1.
4. Begmatov B.Y. Methodology for conducting experimental work on the basis of network integration. // International Conference on Multidisciplinary Research & Practice, International Scientific and Current Research Conferences. – Chicago, 2023, №1.
5. Begmatov B.Y. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy moslashuv jarayonida amaliyotning ahamiyati. // The Journal of Academic Research in Educational Sciences, 2021, 2(10).
6. Begmatov B.Y. The attitudes of the students of Jizzakh Polytechnic Institute to production practice (in terms of the results of social research). // Journal of Higher Education Theory and Practice, 2023, 23(4).
7. Насриддинов И.Х., Хаджабоев А.Р. Новая информационная технология. / Орта maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining rahbar, pedagog va muhandis-pedagog kadrlarini malakasini oshirishning ilmiy-pedagogik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2003.

To'lqin **PARDAYEV**,

Alfraganus universiteti xorijiy tillar kafedra o'qituvchisi

BADIIY XRONOTOP NAZARIYASINING JANRLAR KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Badiiy xronotopning chegaralarida sarguzashtlar qahramonlarni ketma-ket sinovlarga giriftor etadi. Bunday xronotopda yetakchilik va hokimiyat faqat tasodifga bog'liq. Shu bois, mazkur dunyoga xos muayyanlik va konkretlik mumkin darajada chegaralangan bo'ladi.

Kalit so'zlar: badiiy xronotop, Uyg'onish davri, badiiy axborot.

Annotation. Within the framework of the artistic chronotope, adventures subject the heroes to successive trials. In such a chronotope, leadership and power depend solely on chance. Therefore, the concreteness and concreteness inherent in this world are limited to a certain extent.

Keywords: artistic chronotope, Renaissance, artistic information.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности художественного хронотопа, в рамках которого сюжетные приключения выступают в качестве последовательных испытаний для героев. Указывается, что в подобной пространственно-временной организации повествования категории лидерства и власти оказываются обусловленными случайностью, что в свою очередь приводит к частичной утрате конкретности и определённости мира, представленного в художественном тексте.

Ключевые слова: художественный хронотоп, эпоха Возрождения, художественная информация.

Ingliz romanchilik maktabi uzoq tarixiy taraqqiyot yo'llarini bosib o'tgan. O'rta asrlardagi risarlik romanlarining mavzu-mundarijasida ham qahramonlik eposidan ibtido olgan voqealar silsilasi turadi. Ingliz adibi **Tomas Melorining** bizgacha yetib kelgan "Arturning o'limi" romani muallif vafotidan keyin do'sti Vilyam Kekston nomi bilan nashr qilinadi. Keyinchalik asarning qo'lyozmalari ham topilgan. 1947-yili ularni adabiy sinchi Y.Vinaver nashr etgan.

Yana bir mashhur ingliz Uyg'onish davri adabiyotining ilk namoyandalaridan biri, yozuvchi va faylasuf **Tomas Mor**

(1478–1535) o'z davrida qirol Genrix VIII saroyida yuqori lavozimlarni egallab, bosh vazir sifatida ham faoliyat yuritadi. Bir nechta tillarda erkin gaplasha oladigan adib saroy amaldorlarining tuxmat-u bo'htonlari ortidan qatl qilingan. Undan meros bo'lib qolgan "Utopiya" – hayoliy mamlakat haqidagi romanda go'zal bir jamiyat tasvirlangan. U yerda huquq va erkinliklar, maqsadlar kafolatlangan. Yozuvchi ana shunday mamlakat qurish istagida bo'lgan. Ammo bu asaridan keyin u ko'plab ta'qiblarga uchray boshlaydi. Chunki bosh qahramon Gitlodey bilan qilingan

suhatda o'zi orol yaratib, unda davlat tuzish umidi aks ettiriladi. Boshqacha aytganda, asar markazida o'zining qismati haqida so'z boradi. T.Mor shu qismatni ko'zlab ijod qilgani romanning mohiyatida aks etadi.

Ingliz adabiyoti rivojida realistik roman janrining asoschisi **Daniel Defo** (XVIII asr)ning o'rne beqiyos. U 1660-yili Londondagi savdogar (fabrika sohasida) oilasida dunyoga keladi. Unga shon-shuhrat keltirgan asar "Robinson Kruzo"dir. Yozuvchi uni 60 yoshga to'lish arafasida e'lon qilgan. Robinson Kruzo kimsasiz orolda 28 yil insoniy bardosh, kuch, jasorati bilan umr kechiradi. Ana shu umr uning har qanday davrda irodali shaxs bo'la olish ilmini teran o'zlashtirganini ko'rsatadi. Bu davr romanlarining aksariyatida qahramon, jasur obrazlar bor. Ularda ozodlik, mutelikdan yiroq bo'lish, inson o'laroq yashab o'tish istagi barq uradi. D.Defo bu kabi gumanistik konsepsiyani ilgari surgan, lekin uslubi va g'oyalari bilan boshqa yozuvchilardan keskin farq qila olgan.

Ingliz nasrining yana bir ulug' yozuvchilaridan biri **Jonatan Svift** (1667–1745) kinoyaviy-satirik prozasi bilan shuhrat qozongan. U o'z asarlarida inqirozga yuz tutgan feodal tuzumning asl qiyofasini fosh qilgan, Angliyaning tashqi siyosatda olib borayotgan mustamlakachilik aqidalarini keskin qoralab, diniy aqidaparastlikni keng miqyosda tanqid ostiga olgan. Bu borada fantaziya va haqiqat uyg'unlashgan "Gulliverning sayohatlari" asari katta shuhrat qozongan. Roman 4 qismdan iborat bo'lib, har bir qismida Gulliver obrazi markaziy o'rnida turadi. Asarda badiiyat, satira, realistik oqim takomili o'ziga xos tarzda ifodalanadi:

"Biz Bristoldan 1699-yil 4 mayda yo'lga chiqdik. Avvaliga sayohatimiz juda muvaffaqiyatli bo'ldi, hamroh shamol kemamizni oldinga yo'naltirdi. Ko'p o'tmay Ost-Indiya tomon yo'l oldik. Xuddi shu paytda dahshatli bo'ron ko'tarildi. Dovul bizni Vandimen yeridan (Avstraliyaning janubi-sharqiy tomonida joylashgan Tasmaniya orolning eski nomi) shimol-g'arb tomonga qarab surib ketdi... Ekipajimizdagi o'n kishi o'ta charchash hamda maza-matrasiz ovqatdan vafot etdi, boshqalar ham haddan tashqari holdan toygandi. 5-noyabr kuni (o'sha yerlarda yozning boshlanishi) qattiq shamol kemamizni hamon oldinga haydab borishda davom etdi: hamma yoqni qalin tuman qoplagandi. To'satdan kemadan qandaydir yarim kablet uzoqroq masofada to'lqinlar urilib pishqirayotgan joy ko'rindi. Shiddatli shamol kemani o'z og'ushiga olib, qoya sari surib boraverdi; biror chora ko'rish uchun vaqt o'tgan edi. Kema shitob bilan borib toshga urildi va bir zumda chil-chil bo'ldi" [1: 7].

Keltirilgan lavha orqali badiiy axborot – Gulliver sayohatining ilk kunida ro'y bergan qiziqarli sarguzashtdan xabar topamiz. Muallif barcha voqelikni o'zidan ayro tasavvur qilolmaydi. Liliputiya mamlakatiga sayohatdagi ilk voqelik xronotopida u imperator va mahaliy aholining yashash tarzi hamda urf-odatlarini birma-bir sanab o'tadi. Liliputlar asirga tushgan qahramonning xarakterini obdon o'rganib olishadi. Yozuvchi esa har bir voqelikka kinoyaviy-satirik munosabatini bildirib ketadi. Natijada,

roman voqeligi asta-sekin ochila boradi, uslub shiddatli va tekis tus oladi.

"Jonatan Svift... umidsizlik va alamlarga to'la og'ir hamda uzoq hayot kechirdi. Yozuvchining otasi yosh Jonatan tirikchilik vajidan xotini bilan Angliyadan Irlandiya markazi Dublinga boradi. Biroq og'lining tug'ilishidan bir necha oy muqaddam uni bevaqt o'lim olib ketadi. Og'il tug'ilgach, ota xotirasi uchun uni Jonatan deb nomlashadi. Ona chaqalog'i bilan nochor kun kechiradi. Sviftning bolalik yillari g'am-g'ussada o'tdi. Uzoq yillar muhtojlikda, badavlat qarindoshlarining ahyon-ahyonda beradigan ozgina yordami bilan kun kechirishga to'g'ri keldi. Svift o'n to'rt yoshida maktabni bitirgach, hali o'rta asrlar tartib-qoidalari hukm surayotgan, ilohiyot asosiy dars hisoblangan Dublin universitetiga kiradi" [2: 262–263], deb yozadi rus yozuvchi va adabiyotshunosi Yevgeniy Berandis. Haqiqatdan ham, og'ir-bosiq va bolaligidanoq boshidan musibat arimagan, kambag'al oila farzandi Jonatan Svift hayotining eng muhim damlarida yolg'iz qolishga va o'zini shu tariqa tiklashga urinadi. Bir muddat yuqori lavozim egalari yonida yordamchi, kotib bo'lib ishlagan. Biror ijodiy g'oyasi, rejasi haqida hech kimga churq etmagan. O'ta sirli va vazminkor bu qalamkash amaldorlarni jiddiy tanqid qilar, hazil-mutoyibalari esa London bo'ylab shov-shuv bo'lardi.

Gumanist yozuvchilar feodal tuzumning qulashi va yangi davrning boshlanishi oralig'ida ijod olamiga kirib kelgandi. Jonatan Svift va Daniel Defoning romanlari ingliz nasrida katta burilish yasadi. Ularning asarlarida badiiy makon va zamon muammosi keyingi davr ingliz nasrida katta maktab bo'lishi tasvirning quyuqlashuvi, qahramonlarning tabiiy harakati, inson iztiroblarining chuqur tahlili, har bir xarakterda inson matlabi, mehr-shafqat va oqibat tuyg'ularining yashashi, davlat va jamiyat birligining yakdilligini saqlashga intilishning mahorat bilan tasvirlanishiga bog'liq.

G'arbiy Yevropa, jumladan, rus adabiyotining rivojida Sharq adabiyotining roli va ta'siri katta. Masalan, "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Panchatantra" singari Sharqning yetuk asarlari XI asrlardan boshlab grek, ispan, nemis, ingliz, golland tillariga tarjima qilina boshlagan" [3: 66], deya qayd etadi Professor S.Mirvaliyev. Aytish joiz, bu adabiy ta'sir, adabiy aloqalar zamirida har bir xalq adabiyoti o'zining tadrijiy tendensiyalari bilan shuhrat qozonadi. Chunki biror xalq adabiyotining tadrijiy rivoji o'sha xalq yozuvchilarining yoki millat iste'dodlarining sa'y-harakatlari bilan bevosita bog'liq.

Professor Uzoq Jo'raqulov epos va roman, doston hamda tragik janrlar xususida shunday yozadi: "Antik yunon adabiyotida Gesiodning poleteistik (ko'pxudolilik) qarashlar aks etgan (yunon ma'budlari haqidagi) "Teogoniya" asari ancha mashhur. Bu asar muallif yashagan davrgacha maydonga kelgan turli mazmundagi mifologik qissa va hikoyalardan tarkib topgan. Keyinchalik Ovidiy va Apulyeylar ham Gesiodga ergashib "Metamorfozalar" nomli asar yozishgan. Bu asarlar Gesiod asaridan qator tarixiy voqealar, shaxslar haqidagi axborotlarni qamrab olgani bilan farq

qilsa-da, umumiy strukturasiga ko'ra o'nlab mustaqil mif va hikoyalarni bir jild ostida jamlagani bilan sintetizm prinsipini namoyon etadi. Ushbu asarlardagi mustaqil badiiy shakllarni birlashtirib turgan narsa metamorfoza – evrilish konsepsiyasi va mualliflarning poletistik e'tiqodidir” [4: 37–38]. Darhaqiqat, sarguzasht asarlarda muhim va kutilmagan voqea kun, yil, oy va ba'zan undan ham uzoq vaqtda bo'lib o'tadi. Jonatan Svift ham o'z asarida vaqtning intensiv ko'rinishiga amal qiladi. Qahramonlarni to'qib chiqarar ekan, diqqatini davlat va xalq o'rtasidagi devorlarni “buzib tashlash”ga, “imperatorlar”ning o'yinlariga barham berishga qaratadi.

Badiiy xrontopning ingliz risarlik romanlaridan keyin uchinchi Renessansdagi holati va takomili satirik-sarguzashtlik xususiyati bilan alohida ahamiyatga egadir. Kinoyaviy-parodik usul Jonatan Sviftning yangi davr an'analarni yanada o'ziga xos tarzda boshlab berganini ko'rsatadi:

“Ozodlik olgach, eng avvalo, mamlakat poytaxti Mildendni tomosha qilish uchun ijozat so'radim. Imperator paysalga solmay darhol ijozat berdi, lekin aholiga ham, ularning uylariga ham hech qanday ziyon-zahmat yetkazmasligimni qattiq tayinladi. Shahar aylanish niyatim borligi haqida varaqa tarqatilib, aholi xabardor qilindi.

Poytaxt balandligi ikki yarim fut, uni kamida o'n bir dyum kyeladigan devor bilan qurshalgan. Devor ustida ikkita ot qo'shilgan kareta bemalol yurishi mumkin. Biri ikkinchisidan o'n fut masofada joylashgan, ko'kka bo'y cho'zgan mustahkam minoralar shahar ostonasini mudofa qilardi.

G'arbiy darvoza ustidan hatlab o'tib, ikkita katta ko'chadan yonlab, sekin-sekin yurdim. Etagir uylarning tom va bo'g'otlariga ziyon yetkazishidan qo'rqib, kaftanimni ilgariroq yechib qo'ydim. Uylarga yashirib olish va hech qayoqqa chiqmaslik haqida farmon berilganiga qaramay, aholi ko'chalarda bemalol aylanib yurardi. Shuning uchun juda ehtiyotkorlik bilan yurib, ulardan birontasini bosib olmasman deb oyog'im ostidan ko'z uzmadim. Yuqori qavat derazalari va uylarning tomiga odam to'lib ketgandi. Umrin bino bo'lib, bunchalik ko'p odam to'planganini ko'rmagan bo'lsam kerak” [1: 33].

Romanda imperator va aholi, xalqning og'irini battar og'irlashtirgan tizim tanqid qilinar ekan, Jonatan Sviftning asl niyati Angliyaning siyosiy va ijtimoiy hayotini, ayrim mansablarining, umuman, butun boshqaruv tizimidagi nuqsonlarni fosh qilgani seziladi. Gulliverga lilliputlar

hayoti qanchalik ayanchli ko'ringan bo'lsa, pahlavonlar kechirgan turmush ham shu qadar nochor bo'lib tuyuladi.

Ingliz xalqi yozuvchini odamlarni sevmasklikda ayblaydi. Biroq u asarni yozishda temir iskanjada umr kechirayotgan Angliya xalqining ichki ozodligi hamda mustamlaka siyosatini bas qilish zaruratiga konseptual urg'u bergan. Har qanday konkretlashtirish avantiyurga xos ravonlikka, erkinlikka soya solgan, tasodifning mutlaq hokimlik missiyasini chegaralagan bo'lar edi. Hatto oddiygina maishiy konkretlashtirish ham insoniy turmushni, inson hayotiga oid zamonni o'zining qonuniyatlari, tartib-intizomi, munosabatlar talabi bilan cheklab qo'yar, voqelik bunday tartib-intizomlar, qonuniyatlar, munosabatlar talabi ostida o'ralashib qolardi. Oqibatda tasodif hokimiyati mutlaq chegaralanar, sarguzashtlar uzviy doiraga torayar, butun faoliyat doirasi makon va zamonning shu nuqtasida aylanib qolar edi” [5: 63]. Darhaqiqat, sarguzasht romanlarda makon va zamon talqini ham fantastik konsepsiyaga evrilib boradi. Gulliverning qiziqarli sayohatlari, lilipputlarga, imperator va uning mulozimlariga bergan bahosi ham zamona bilan omuxta. Chunki imperator kaltabin qarorlari bilan odamlarni “mazax” qiladi, mulozimlar qattiqqo'l, hokimiyatda faqat diktatura hukm suradi, birgina kishining qarori butun mamlakat bo'ylab tarqaladi, odamlar mute va o'z haq-huquqlaridan mosuvo. Demak, liliputlarning mamlakatida qattiq kolonial rejim hukmron. Jonatan Svift romanda juda g'aroyib tasvir usulini topgan, shuning uchun asardagi mavzular eskirmadi, qadr-qimmatini yo'qotmadi.

Xulosa shuki, ingliz nasrida badiiy xrontop shakllari o'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiyotidan keyin, Angliyaning mustamlakachilik siyosati avj olgan davrlarda yanada rivojlandi. Har bir yozuvchi o'z davrining og'riqlari va nozik masalalarini chuqur idrok etgan, jamiyatdagi adolatsizlik va zulmni fosh etishga harakat qilgan. Bunday badiiy tasvirlarda makon va zamon o'rtasidagi munosabatlar orqali har bir obrazning xarakteri o'ziga xos tarzda ochib beriladi. Masalan, “Gulliverning sayohatlari” kabi asarlarda butun dunyodagi o'zgarishlar keng ko'lamda aks ettiriladi, ijtimoiy voqealar turli prizmalarda yoritiladi. J.Svift garchi og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda ijod qilgan bo'lsa-da, asrida hayotning o'ziga xos tantanasini ifoda etadi. Chunki u bu jarayonlarni o'z boshidan kechirdi, ingliz nasridagi tarixiy-ijtimoiy o'sish va o'zgarishlarning bevosita ishtirokchisiga aylandi. U voqelikni “sayr va sayohat” tamoyili asosida teran idrok etishga jur'at topgan kam sonli mutafakkirlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Svift J. Gulliverning sayohatlari (Rus tilidan Sotiboldi Yo'ldoshyev tarjimasini). – Toshkent: Yosh gvardiya, 1974.
2. Berandis Y. Jonatan Svift va uning “Gulliverning sayohatlari” romani. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1974.
3. Mirvaliyev S. O'zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969.
4. Jo'raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xrontop poetikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2017.
5. Baxtin M. Romanda zamon va xrontop shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

Ravshan NIYAZOV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,*

AMERIKA BELLETRISTIKASIDA JON GRISHAMNING HIKOYA METODI

Annotatsiya. Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi Jon Grishamning detektiv romanlaridagi badiiy qurilmalar va hikoya metodi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor muallifning yuridik realizm, axloqiy pozitsiya, ijtimoiy adolat va insoniylik kabi konsepsiyalarni badiiy vositalar orqali qanday ifodalagani hamda detektiv janrni ommaviy, lekin g'oyaviy jihatdan teran shaklga aylantirishdagi yondashuviga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Jon Grisham, detektiv adabiyot, hikoya metodi, badiiy qurilma, yuridik realizm, axloqiy pozitsiya, dramatik struktura, adabiy etik realizm.

Annotation. This article analyzes the artistic devices and narrative method of John Grisham's detective novels. The main attention is focused on how the author expresses concepts such as legal realism, moral position, social justice, and humanity through artistic means, as well as the approach to transforming the detective genre into a mass, but ideologically profound form.

Keywords: John Grisham, detective literature, narrative method, artistic device, legal realism, moral position, dramatic structure, literary ethical realism, conflict centralization.

Аннотация. В данной статье анализируются художественные приемы и метод повествования детективных романов Джона Гришема. Основное внимание уделяется тому, как автор выражает такие концепции, как юридический реализм, моральная позиция, социальная справедливость и человечность посредством художественных средств, а также подходу к превращению детективного жанра в массовую, но идеологически глубокую форму.

Ключевые слова: Джон Гришэм, детективная литература, метод повествования, художественное построение, юридический реализм, моральная позиция, драматическая структура, литературно-этический реализм, централизация конфликта.

Jon Grishamning personajlari psixologik jihatdan murakkab sahxslar ekanligi bilan ajralib turadi. Muallif turli nuqtayi nazarlardan hikoya qilish orqali o'quvchini personajlarning holatiga olib kiradi. Bu texnika orqali o'quvchi sudlanuvchi, advokat, sudya yoki tergovchi pozitsiyasini chuqur anglaydi. Buni "Qotillik vaqti" asarida yaqqol kuzatish mumkin. Grishamning hikoya metodida, birinchi navbatda, ko'zga tashlanadigan jihat bu – **sodda, lekin chuqur konfliktli narrativ struktura** bo'lib, voqealar real hayotga yaqinlashtirilgan, qahramonlar esa ideal emas, balki muammolari, zaif tomonlari va ichki kurashlari bilan ochiq-oydin tasvirlangan. Masalan, "Ko'cha advokati" (1998) romanida bosh qahramonning huquqiy tizim ichidagi kasbiy yo'nalishini o'zgartirishi, jamiyatning marginal qatlamlari bilan tanishuvi orqali hikoya insoniy o'zgarish va axloqiy uyg'onish bilan kechadi. Adabiyotshunos L.Binder bu haqda shunday yozadi: "Grisham o'z qahramonlarini voqelikning axloqiy bosimiga duchor qiladi. Ularning tanlovi – syujetning harakatlantiruvchi kuchidir, faktlar emas" [1: 91].

Yozuvchinnig hikoya uslubida muhim o'rin tutadigan ikkinchi unsur bu – **dialogga asoslangan dinamika**. Sud jarayonlari, tergov bosqichlari, guvohliklar, advokatlarining nutqlari nafaqat syujet rivoji, balki dramatik intensivlikni oshirish, fikrlar to'qnashuvini sahnalashtirish vazifasini bajaradi. Bunga yorqin misol "Pelikanlar ishi" (1992) romanidir. Undagi konspiratsiyalarga asoslangan syujetda asosiy harakatlar qarama-qarshi pozitsiyalarning muloqotiga asoslangan. A.Nussbaum ta'kidlaganidek: "Grisham muloqotni dramaturgik vosita sifatida ishlatadi. U orqali nafaqat syujet harakatlanadi, balki axloqiy vaziyatlar sinovdan o'tkaziladi" [2: 104].

Adib romanlarining badiiy qurilmalari orasida kontrast obrazlar va axloqiy dualizm alohida o'ringa ega. Yaxshi va yomon, adolat va zo'ravonlik, qonun va mafkuraviy tajovuz o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar nafaqat voqeaviy darajada, balki estetik va semantik qatlamlarda ham qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. "Hibsxona" (1994) romanida o'lim jazosi masalasi atrofida vujudga kelgan murakkab dramatik kompozitsiya inson, jinoyat, kechirim va tizim adolati kabi tushunchalarni muhokama qilishga sabab bo'la oladi. R.Veysberg bu haqda shunday yozadi: "Grisham jinoyatni emas, jinoyat ortidagi insoniy dramani markazga oladi. U syujet vositasida adolatning qonuniy emas, balki axloqiy asoslarini izlaydi" [3: 149].

Grisham asarlari foreshadowing – oldindan ishora, ichki monolog va voqeaviy soddalik ortidagi murakkab g'oya orqali hikoya chuqur semantik qatlamlarga ega bo'ladi. Ularda real muammolar: sog'liqni saqlash tizimi ("Sudlashuv"), suddagi korrupsiya ("Quloq"), iqtisodiy adolatsizlik ("Kulrang tog") ko'tarilgan bo'lib, bular hikoyani voqelik bilan uzviy bog'laydi. J.Vayt bu jihatni quyidagicha izohlaydi: "Grisham adabiy realizmda axloqiy qarorlar imkoniyatini dramatik jihatdan ko'rsatadi. Uning hikoya metodida muammo ko'tarish – g'oyaviy pozitsiyani ifodalash shaklidir" [4: 93].

J.Grishamning badiiy qurilmalari va hikoya metodi detektiv adabiyot doirasida huquqiy adolat, insoniy axloq va ijtimoiy mas'uliyat muammolarini dramatik vositalar orqali ifodalovchi kuchli estetik sistemani yaratadi. Romanlari o'quvchini nafaqat syujet oqimiga shong'itadi, balki ma'naviy baholashga ham undaydi. Adib ijodida badiiy qurilma va hikoya metodi detektiv janrning huquqiy-adabiy modifikatsiyasi sifatida namoyon bo'lib, unda sujet voqelikdan

ajralmagan, balki ijtimoiy strukturaviy adolatsizliklar bilan ichki bog'liq dramatik konstruksiyaga aylanadi. Asarlaridagi badiiy uslub, ayniqsa, hikoya shaklining huquqiy ong bilan gibrid tarzda birlashuvi uni zamonaviy Amerika adabiyotida alohida pozitsiyaga olib chiqadi. Syujetlarda nafaqat jinoyat va tergov jarayoni, balki huquqshunos kasbining axloqiy mohiyati, qonun bilan adolat o'rtasidagi nomuvofiqliklar ham muammo obyektiga aylantiriladi.

J.Grisham badiiy qurilmalari va hikoya metodida zamonaviy detektiv janrning soddalashtirilgan voqeaviy modeli o'rniga, murakkab ijtimoiy-huquqiy struktura dramatik va axloqiy o'rganish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Syujet faktlar emas, balki tanlov, pozitsiya va axloqiy jarayonlar orqali rivojlanadi. Yozuvchi o'z uslubi bilan badiiy va ijtimoiy pozitsiyani ifoda etuvchi adabiy makonni yaratadi. Uning hikoya metodida huquqshunoslikning dramatiklashtirilgan versiyasi ustuvorlik qiladi. Ayniqsa, "So'ngi nafas" (2000) romanida korrupsiya, adliya tizimidagi siyosiy manipulatsiya va ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat ongini boshqarish masalalari yuridik uslubda emas, balki badiiy tahlil asosida ochib beriladi. Adabiyotshunos A.Xunt bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: "Grisham voqeani real faktlardan emas, balki voqealarning tizimdagi ta'sir kuchidan kelib chiqib dramatishtiraydi. U hikoya qilish orqali huquqni tushunishga emas, adolat tomon yo'naltirishga intiladi" [5: 174]. Yana bir jihat – qonuniylik va adolat o'rtasidagi tafovutni hikoya markaziga olib chiqishdir. "Begunoh odam" (2006) asari hujjatli roman bo'lishiga qaramasdan, unda Grishamning badiiy metodiga xos xususiyatlar – dramatik kuchlanish, axloqiy shubha, jamiyatdagi empatiya va zo'ravonlik mexanizmlari badiiy vositalar bilan yoritiladi.

Adib sujetlarida axborot bilan to'yingan realistlik muhit mavjud. Bu o'zini texnik tafsilotlarning bevosita ifodasida emas, balki real ijtimoiy va institutsional kontekstda hikoyaning joylashtirilishida namoyon qiladi. Uning qahramonlari ko'pincha yosh, tajribasiz, biroq kuchli ichki e'tiqodga ega huquqshunoslarlardir. Ular orqali muallif jamiyatdagi adolat va qonun o'rtasidagi ziddiyatni aniqlaydi. "Ko'cha advokati" (1998) romanida bu yondashuv badiiy ifodasini topadi. J.Balkin shunday yozadi: "Grisham real huquqiy muhitni o'z holicha emas, balki tanqidiy estetik chiziq orqali tasvirlaydi. Bu yerda hikoya – tizim ustidan yuritilayotgan surunkali sud" [6: 187]. Shuningdek, adib hikoya metodida ijtimoiy funksiyalashgan dramatism prinsipiga tayanadi. Sujetga xos barcha dramatik burilishlar individual qahramonlar o'zgarishi emas, balki

jamiyatdagi mavjud institutlar faoliyatining tanqidi orqali shakllanadi. "Quloq" (2016) romanida korrupsiyaga botgan sud tizimi sujetning asosiy dramatik markaziga aylanadi, bu orqali muallif sud hokimiyatining real imkoniyatlari va zaifliklarini ochib beradi.

J.Grishamning badiiy qurilmalari va hikoya metodi zamonaviy detektiv janr doirasida huquqiy realizm va adabiy dramatishtirishning sintezi asosida shakllanadi. U hikoyaning estetik strukturasini orqali sud-huquq tizimi, vijdon va ijtimoiy adolat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Uning hikoya metodi voqeani "qonuniy fakt" sifatida emas, balki "insoniy dramatishtirish" shaklida tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda badiiy vositalarning kuchli ijtimoiy funksiyasi mavjud. Masalan, "Himoyachi" (2019) romanida noto'g'ri hukm qilingan mahbusni ozod qilish harakati atrofida sud tizimidagi zaifliklar, irqiy kamsitish, korrupsiya va advokatura instituti mas'uliyatsizligi tanqid qilinadi. Grisham bu yerda hikoya dinamikasini bir yoqlama faktlar orqali emas, shaxsiy guvohliklar va ichki monologlar orqali shakllantiradi. Adabiyotshunos K.Greenfiyeld bu jihatni shunday ta'riflaydi: "Grisham hikoya metodida sud jarayonini sujetning zamonaviy metaforasi sifatida qo'llaydi: u yerda haqiqat sud qarorida emas, balki u qarorga olib kelgan jarayonlarda yashiringan" [7: 1649].

Grisham badiiy qurilmalarining yana bir ustun jihati – samarali til vositalari orqali qonuniy terminologiyani badiiy kontekstga moslashtirishdir. U sud jarayonidagi texnik tafsilotlarni murakkablashtirmay, o'quvchiga sodda, tushunarli, lekin chuqur axloqiy yuklama bilan taqdim etadi. Bu esa uslubini ommaviy detektiv adabiyotdan ajratib turadi. J.White bu jihatni quyidagicha izohlaydi: "Grisham qonunni huquqshunos emas, yozuvchi sifatida ifodalaydi. Uning hikoyalari qonunni tushuntirmaydi, uni badiylashtiradi, bu orqali uni insoniyatga yaqinlashtiradi" [8: 81].

Adibning badiiy qurilmalari va hikoya metodi – detektiv adabiyot doirasida yuridik muammolarni estetik va axloqiy nuqtayi nazardan yoritishga qaratilgan murakkab tizim. Uning hikoyalari dramatik kuch qonundan emas, qaror va tanlovlardan, faktlardan emas, axloqiy nuqtayi nazardan kelib chiqadi. J.Grisham ijodi zamonaviy adabiyotda sud-huquqiy tanqidning badiiy shaklga aylangan eng yetuk namunalardan biridir. Detektiv romanlarda avtobiografik metod va kasb etikasi mualliflarning shaxsiy hayoti va professional tajribasi orqali badiiy realizmni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Binder L. Literature, Law, and Morality. – Princeton: Princeton University Press, 2001.
2. Nussbaum M. Poetic Justice: The Literary Imagination and Public Life. – Boston: Beacon Press, 1996.
3. Weisberg R. The Failure of the Word: The Protagonist as Lawyer in Modern Fiction. – New Haven: Yale University Press, 1984.
4. White J. B. Heracles' Bow: Essays on the Rhetoric and Poetics of the Law. – Madison: University of Wisconsin Press, 1985.
5. Hunt A. The Critique of Law: Adorno, Foucault, and Modernity. – London: Pluto Press, 1992.
6. Balkin J. Cultural Software: A Theory of Ideology. – New Haven: Yale University Press, 1998.
7. Greenfield K. Private Choices, Public Meaning: Conflict of Laws and the Political Economy of Choice of Law // Yale Law Journal, 1999.
8. White J. B. Heracles' Bow: Essays on the Rhetoric and Poetics of the Law. – Madison: University of Wisconsin Press, 1985.

Turaxon QORAXONOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiyot kafedrasida 1-bosqich magistranti

SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA MUHABBAT CHIZGILARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shavkat Rahmon ijodida muhabbat mavzusining tasviri, poetik obrazlar orqali ifodalanishi hamda shoirning ruhiy kechinmalar bilan bog'liq badiiy yondashuvi tahlil etilgan. Muallif "kapalak", "bulbul", "atirgul", "qor", "bahor" kabi obrazlar asosida muhabbatning murakkab va chuqur ma'naviy mohiyatini ochib beradi, uni sof, azobli, lekin ilhomlantiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi.

Kalit so'zlar: Shavkat Rahmon, she'riyat, badiiy obraz, ruhiy kechinma.

Annotation. This article analyzes the depiction of love in Shavkat Rahmon's work, its expression through poetic imagery, and the poet's artistic approach to spiritual experiences. Based on images like "butterfly", "nightingale", "rose", "snow", "spring" the author reveals the complex and profound spiritual essence of love, portraying it as pure, tormenting, yet inspiring power.

Keywords: Shavkat Rahmon, poetry, artistic image, spiritual experience.

Аннотация. В данной статье анализируется изображение темы любви в творчестве Шавката Рахмона, ее выражение через поэтические образы и художественный подход поэта к духовным переживаниям. На основе таких образов, как «бабочка», «соловей», «роза», «снег», «весна», автор раскрывает сложную и глубокую духовную сущность любви, изображая ее как чистую, мучительную, но вдохновляющую силу.

Ключевые слова: Шавкат Рахмон, поэзия, художественный образ, душевное переживание.

Muhabbat mavzusining o'zbek adabiyotidagi o'rne. O'zbek adabiyotida muhabbat mavzusi qadimdan asarlarning markazida bo'lgan. Bu mavzu orqali ijodkorlar inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularni, ichki iztiroblarni, hayotning ma'nosini, ba'zida esa jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni yoritgan. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotida muhabbat ko'proq ilohiy mohiyatda talqin qilingan. Masalan, Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Majnun Layliga bo'lgan muhabbatini insonni Haqqa yetaklaydigan ruhiy poklanish yo'li sifatida tasvirlaydi. Bunday yondashuvda muhabbatga jismoniy emas, balki ma'naviy va tasavvufiy kuch sifatida qaraladi.

Bobur she'riyatida ham muhabbat gohida quvonch, gohida iztirob manbayi sifatida namoyon bo'ladi. Uning lirik g'azallarida sevgi, vafosizlik, sadoqat va hasrat asosiy tuyg'ular sifatida ifodalanadi. U yashagan davr adabiyotida muhabbat ko'proq ichki kechinma, ruhiy tajriba bilan uyg'un holda aks etgan:

*Vaslining qadrini chun bilmadi bu telba ko'ngul,
Hajrining tiyg'i aning yuragini tilsa kerak [1].*

XX asr boshlariga kelib adabiyotda realizm kuchaygani sababli muhabbat mavzusi ham yangicha talqin qilina boshladi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida Otabek va Kumush obrazlari orqali sevgi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Bu asarda muhabbat nafaqat shaxsiy tuyg'u, balki jamiyatdagi o'zgarishlar, qadimiy urf-odatlar, ayol huquqlarini ko'rsatgan. Cho'lpon va Fitrat kabi jadidlar esa muhabbatni milliy uyg'onish, erkinlik va shaxsiy tanlov nuqtayi nazaridan talqin qilishgan.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida muhabbat mavzusi yanada chuqur psixologik va falsafiy tahlil asosida yoritiladigan bo'ldi. Shavkat Rahmon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar bu tuyg'uni hayotning mohiyati, ma'naviy izlanish, ba'zan esa fojiaiy iztirob deb baholagan. She'rlarida muhabbat ruhiy holat, ichki

olamning aks-sadosi sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, Shavkat Rahmon she'riyatida inson va borliq o'rtasidagi nozik ko'priq sifatida talqin etiladi. Nasriy asarlarda ham muhabbat ijtimoiy masalalar bilan bog'langan holda ochib berilmoqda. Ularda ajralish, yolg'izlik, iztirob muhim mavzularga aylanyapti. Yozuvchilar muhabbat orqali nafaqat ikki inson o'rtasidagi munosabatni, balki shaxsning o'zini anglash jarayonini ko'rsatishga harakat qilmoqdalar [2]. Mumtoz adabiyotda bu tushuncha ilohiylikka intilgan bo'lsa, jadidlarda erkinlik va tanlov timsoliga aylandi, zamonaviy ijodkorlar nazarida esa ruhiy va falsafiy yuksalishning ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Shavkat Rahmon 1950-yil 12-sentabrda O'sh viloyatining Qorasuv tumaniga qarashli Pomir mahallasida tug'ilgan. Moskvadagi Adabiyot institutini tugatgan (1975). Dastlabki she'riy to'plami – "Rangin lahzalar" (1977). "Yurak qirralari" (1981), "Ochiq kunlar" (1984), "Gullayotgan tosh" (1985), "Uyg'oq tog'lar" (1986), "Hulvo" (1988), "Saylanma" (1997) singari she'riy kitoblari e'lon qilingan. F.G.Lorka ("Saylanma", 1979), X.R.Ximenes, A.Alberti she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "...Shavkat Rahmon 46 yoshida (1996-yil 2-oktabr) olamdan o'tdi. Ruh – birlamchi, deymiz, jism – ikkilamchi. Borliqning intihosi yo'qligini va aksincha, yo'qlikning ibtidosi bo'lmasligini aqlan his qilib turamiz. Xayolan esa Shavkat Rahmon go'yo jisman hayotdek, O'sh pirimning bahavo tog'larida ko'm-ko'k osmonga tikilib, maysazorda ag'anab yotgandek tuyulaveradi" [3]. Ushbu maqolada Shavkat Rahmonning muhabbat mavzusiga ijodiy yondashuvi, hayotiy kechinmalari va ruhiy holatlari she'rlarda qanday aks etgani, muhabbatning tasviri hamda bu obrazlarning estetik va ma'naviy aahmiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, she'rlaridan keltirilgan namunalar orqali o'zbek she'riyatidagi ruhiy teranlik, lirizm va shaxsiy tuyg'ular ifodasi yoritiladi.

“Shavkat Rahmon “adabiyot uchun hamma narsani bo‘yniga olgan shoir” sifatida tanilgan. U zamonning siyosiy sharoitidan qo‘rqmasdan, haqiqat va adabiyot yo‘lini saqlab, turli tahdid va bosimlarga dosh berdi. Hayoti davomida adabiy murosasiz, haqiqatparvar ijod usulini tanladi, buni o‘zini ham, adabiyot maydonidagi hamkasblarini ham qaysar talab bilan davom ettirdi” [4]. Shoirning shaxsiy hayotidagi ruhiy kechinma, iztirob va ichki kurashlar uning ilmiy-adabiy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lgan. U ruhiyat oldidagi burchini adabiyot oldida diniy ibodat kabi his qilgan, bu tasavvur “Adabiyot ibodati” sarlavhasi bilan tanilgan maqolada asosiy tamoyil sifatida berilgan. Bu burch tufayli shoir muhabbat mavzusiga yanada psixologik og‘irlik bilan qaragan. Shavkat Rahmon muhabbatni nafaqat shirin tuyg‘u, balki inson ruhining sinov maydoni, kechinma va ichki azob manbasi sifatida ko‘rsatadi. U she‘rlarida bu tuyg‘uni ideal romantik tasvir emas, balki murakkab ruhiy hodisa sifatida ochish tarafdori bo‘lgan [7]. Boshqacha aytganda, muhabbatni romantik tuyg‘u emas, balki **hayotning mohiyati, ruhiy ehtiyoj, yuksalish va iztirob** sifatida talqin qiladi. Buni bir necha she‘rlari misolida ko‘rib chiqamiz.

KAPALAK

*Qizigan sadolar so‘nadi,
qush kabi cho‘chiydi xayoli.
Ko‘ksiga kapalak qo‘nadi,
qitig‘i uyg‘onar ayolning.
Yonog‘i lovillab qiziydi,
kapalak aylanar ro‘yida,
ohlari bo‘g‘ziga tizildi,
parishon soylari bo‘ynida
Atirli o‘tlarga ko‘milar,
tikilib qoladi osmonga,
mastona ko‘zlari yumilar,
kapalak yoqardi juvonga [6: 18].*

She‘rda muhabbat ko‘ngilga bexabar kirib kelgan, ayol qalbini titratgan nozik tuyg‘u sifatida tasvirlangan.

*Ko‘ksiga kapalak qo‘nadi,
qitig‘i uyg‘onar ayolning.*

Obrazlar: kapalak – muhabbat, soya – ichki titroq, osmonga tikilish – orzu va iztirob, mastona ko‘z – sevgi holati.

Umumiy mazmun: Muhabbat ayol qalbining uyg‘onishi, og‘ir emas, balki go‘zal va sirli laha.

ARMON

*Kuylolmadim,
yaproqlar kabi,*

*quruq shoxday titrar ovozim –
so‘lib qoldi bahorim tag‘in,
suvga cho‘kdi yana bir yozim.
Kuzak keldi
bag‘rimni dog‘lab;
qo‘lin cho‘zdi giyohga, gulga,
sayradilar so‘ng bora, bog‘lar
to‘lib qoldi o‘lik bulbulga...
Qorlar yog‘di,
og‘ridi jonim,
uxlayotgan bog‘lar poyida
kuylolmasdim, undan yomoni
yashil edim qantar oyida.... [6: 35]*

She‘rda bexato, sof muhabbatga yetishilmagan, **ichki iztirob, kechikkan bahor** va **so‘nib borayotgan umid** motividagi armon tasvirlangan. Bu muhabbat yuksak tuyg‘u emas, balki hayot davomida yo‘qotilgan iliqlik, yetishilmagan quvonch sifatida berilgan.

*Kuylolmadim yaproqlar kabi,
quruq shoxday titrar ovozim...*

Bu misralarda muhabbat shoir qalbida kuylanmay qolgan qo‘shiq, yotgan ilhom, so‘nib borayotgan ichki olov sifatida ifodalanadi.

Obrazlar: bahor – muhabbat va yoshlik; kuzak, qor, quruq shox – sovuq, ayriliq, bevasl hayot; bog‘dagi o‘lik bulbul – muhabbat umidining o‘chishi; suvga cho‘kkan yoz – yo‘qotilgan quvonch, vaqt timsoli.

Umumiy mazmuni: Muhabbat bu she‘rda kechikkan armon, aytilmay qolgan izhor, kuylanmagan qo‘shiq va hayotdan yitgan issiqlik sifatida tasvirlanadi. Bu muhabbat – og‘riq va tan olishdir.

QIZGUL

*Qizil atirgulni
tishlab olgan qiz,
tizlarin quchoqlab o‘tirar xumday.
Asriy muzliklarning g‘ullarin yanchib,
sahroyi samumga aylandim zumda.
Shunda u jilmaydi.
O‘jar sochlarin
shu‘laviy qo‘llari asta boyladi.
Bulbulday sayroqi buloqqa do‘nib,
siniq ko‘zlarimga rasmin joyladim.
Qiz cho‘zdi horigan oyoqlarini,
zangori sayhonday bag‘rimni ochdim,
ulkan chinor kabi oltin oftobdan
tangachalar yasab,
ko‘ksiga sochdim.
Shunda yuragimga umrini qo‘ydi,
unutdi kunlarning zil toshlarini,
butun ganjinasin
to‘kdi kaftimga –*

*billur zarrasiday
ko'zyoshlarini [6: 75].*

She'rda muhabbat go'zallik, estetik zavq, ilhom va qalb hayajonini uyg'otuvshi sifatida berilgan. Ayol siymosi bilan bog'langan bu sevgi shoir qalbida ijobiy portlash, ruhiy tetiklashishga sab bo'ladi.

*Shunda yuragimga umrini qo'ydi,
unutdi kunlarning zil toshlarini...*

Bu misralarda muhabbat sevgan inson orqali hayotga ma'no beruvchi hodisa sifatida tasvirlanadi.

Obrazlar: qizil atirgul – muhabbatning jonli va ehtirosli timsoli; sahroyi samum – muhabbat yetishmovchiligi, ichki kuyish; ko'zyoshi – billur zarra – sof, beg'ubor his; bulbul, buloq, chinor, oftob – muhabbat orqali uyg'ongan hayotiy kuch.

Umumiy mazmuni: Bu she'rda muhabbat ko'rkam, ruhan poklovchi, quvvat beruvchi tuyg'u sifatida beriladi. U shoirni quruqlikdan buloqqa, muzlikdan oftobga aylantiradi. Bu – totli va azobli sevgi.

Shavkat Rahmon o'zbek zamonaviy she'riyatida muhabbat mavzusiga eng chuqur yondashgan ijodkorlardan biridir. "Kapalak", "Armon" va "Qizgul" kabi she'rlarida bu mavzu turli badiiy obrazlar orqali chuqur ifodalangan: kapalak – yurakdagi uyg'onish, bahor va bulbul – so'nib borayotgan umid, qizil atirgul va billur ko'zyoshlar – sevgi va sadoqatning sof timsoli sifatida gavdalanadi. Shoirning muhabbat haqidagi qarashlari, u yaratgan badiiy manzaralar bugungi yoshlar uchun ham muhim. Chunki bu she'rlar orqali o'quvchi insoniy tuyg'ularni anglaydi, ichki dunyosi bilan yuzlashadi, sevgi degan tuyg'uning og'riq va go'zalligini his qiladi. Ayniqsa, hozirgi zamon kishisining yolg'izlik, ruhiy izlanish, sadoqat kabi kechinmalari fonida shoir she'riyati yosh avlod uchun ruhiy tayanch bo'la oladi. Umuman olganda, Shavkat Rahmon nafaqat yurakdan, balki yurak haqida yozgan shoirdir. Uning ijodi inson tuyg'ularining eng samimiy va badiiy ifodasidir. U muhabbatni timsollar, ohang, sezgi va poetik obrazlar orqali sezdiradi, aytmaydi; his qiladi, majbur qilmaydi. Shu bois uning she'rlari yuraklarga yaqin, she'rga oshno qalblarga tanish, teran va bardavomdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburshunoslik. Yor yuzumni ko'rub dardu g'amim bilsa kerak... <https://baburid.uz/library/39>.
2. Shavkat Rahmon. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-she'riyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/shavkat-rahmon-1950-1996>.
3. Nabijon Boqiy. Xotiralaridan. (Avtorning shaxsiy esdaliklari asosida olingan iqtiboslar).
4. To'xtasimov N. Zamonaviy o'zbek she'riyati va muhabbat. – Toshkent: Yozuvchi, 2015.
5. Asqar Mahkam. Adabiyot ibodati (Shoir Shavkat Rahmon hayoti va ijodiga chizgilar). <https://www.ziyouz.com>.
6. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1997.

Musayeva Nozima

*PhD student, Tashkent Institute of Irrigation and
Agricultural Mechanization Engineer*

TRENDS IN PODCAST-ASSISTED L2 LISTENING: A BIBLIOMETRIC OVERVIEW (2019–2025)

Annotation. This bibliometric review analyzes scholarly literature on second-language listening comprehension using Scopus-indexed publications. A total of 1033 articles from 2019 to 2025 were examined, 74 reanalysed. Using VOSviewer programs, we demonstrated the results of our study and generated a scientific map that represented the interconnections among bibliometric data pieces. This study aims to explore trends in research on teaching listening skills through podcasts and identify top journals, keywords, and top-cited publications. This analysis identifies the most significant works and their authors, informing future research and aiding in developing more effective training tactics for L2 education. It is vital for educators and researchers to proactively communicate their study outcomes and work with peers across various institutions and nations to guarantee that these findings reach a broader audience.

Keywords: podcast, listening comprehension, bibliometric review, L2 listening, EFL.

Annotatsiya. Ushbu bibliometrik tahlil ikkinchi til sifatida tinglab tushunish mavzusidagi ilmiy adabiyotlarni, xususan, Scopus ma'lumotlar bazasiga kiritilgan nashrlarni o'rganadi. Unda 2019 yildan 2025 yilgacha chop etilgan jami 1033 ta maqola tahlil qilindi, shundan 74 tasi chuqur qayta ko'rib chiqildi. VOSviewer dasturidan foydalanib, tadqiqot natijalari vizual ko'rinishda taqdim etildi va bibliometrik ma'lumotlar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni aks ettiruvchi ilmiy xarita yaratildi. Ushbu tadqiqot podcastlar orqali tinglab tushunish ko'nikmalarini o'rgatish bo'yicha ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, yetakchi jurnallar, muhim kalit so'zlar hamda eng ko'p iqtibos keltirilgan nashrlarni o'rganishni maqsad qiladi. Tahlil asosiy ilmiy asarlar va ularning mualliflarini ajratib ko'rsatib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim tavsiyalar beradi hamda ikkinchi til ta'limida samarali trening metodlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun o'z natijalarini faol ravishda tarqatish, shuningdek, turli muassasalar va mamlakatlardagi hamkasblar bilan hamkorlik qilish juda muhim, chunki bu natijalar kengroq auditoriyaga yetkazilishi lozim.

Kalit so'zlar: podkast, tinglab tushunish, bibliometrik sharh, L2 tinglash, EFL (ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish)

Аннотация. Данный библиометрический обзор анализирует научную литературу по восприятию на слух второго языка, используя публикации, индексируемые в базе Scopus. В общей сложности было рассмотрено 1033 статьи за период с 2019 по 2025 год, из которых 74 были повторно проанализированы. С помощью программного обеспечения VOSviewer были представлены результаты исследования и создана научная карта, отражающая взаимосвязи между элементами библиометрических данных. Целью исследования является выявление тенденций в изучении навыков аудирования через подкасты, определение ведущих журналов, ключевых слов и наиболее цитируемых публикаций. Анализ позволяет определить наиболее значимые работы и их авторов, что способствует дальнейшим исследованиям и разработке более эффективных методик обучения в сфере изучения второго языка. Для преподавателей и исследователей важно активно распространять результаты своих исследований и сотрудничать с коллегами из разных учреждений и стран, чтобы обеспечить более широкое распространение полученных данных.

Ключевые слова: подкаст, понимание на слух, библиометрический обзор, L2 слушание, EFL (английский как иностранный язык).

Listening is a fundamental yet frequently undervalued skill in language acquisition. The primary purpose of listening is to connect with others, to understand and be understood [3: 4]. Listening is a receptive skill and a cognitively demanding process influenced by linguistic proficiency, working memory, motivation, and contextual understanding. Purdy and Borisoff define listening as “an active and dynamic process involving attention, perception, interpretation, memory, and response to the verbal and nonverbal needs, concerns, and information others communicate” [6: 14]. Azmi Bingol et al. defined listening comprehension as the ability to perceive and recognise spoken language through the auditory system and then assign meaning to the message to understand it fully [2: 34]. However, the emergence of digital tools, especially podcasts, has granted learners access to real, engaging, and flexible auditory resources that were scarcely conceivable a decade ago. Podcasts, characterized by their portability and accessibility, allow learners to engage with authentic language use, diverse accents, and real-world speech patterns, making them a valuable resource in

language education. They effectively develop listening comprehension, a fundamental skill in language acquisition, particularly in contexts where traditional teaching resources may be limited [4: 13]. Moreover, podcasts often integrate multimodal resources such as transcripts, videos, and online tasks, creating comprehensive learning environments that address diverse learning styles and preferences [5: 22]. The interaction of digital literacy skills, research instruments, and learning styles can improve the students' meta-cognitive strategies, which is vital for improving listening skills [1: 9].

This study adopts a bibliometric analysis approach using metadata extracted from the Scopus database. Using the Scopus database, the primary bibliographic online resource, we extensively searched from 2019 to 2025 applying the keywords “listening” and “podcast” across all nations. We employed multiple programs to visualise the data, including a CSV file, Microsoft Excel 2021, RIS, VOS Viewer, and Map Chart, each fulfilling a distinct role in our investigation.

Results and discussions




Fig.1. The distribution of articles due to subject areas

The chart illustrates the distribution of publication types.

It can be clearly stated that overall, 1033 articles relate to social sciences with these keywords.




Fig.2. Annual production of articles based on listening skills

The chart presents data on the number of papers published annually from 2019 to 2025. Obviously, a large

number of articles, 210 articles, were published in 2023, while this number decreased to 184 in 2024.




Fig. 3. Top journals publishing on podcasts in Education

The chart presents data on the distribution of publications across various academic journals. National Institute of Education and Nanyang Technological

University domains in terms of publications, reaching 13 and 12. University of Oxford stands in 3rd place on this table with 11 articles.




Fig. 4. Top authors with their articles

In this pie chart, Aryadoust. V domains with eight articles, while Hamada. L., Kim, Y.S. published six articles related to the development of listening skills. The other authors, namely Itzchakov, Bozorgian and others, have four articles in this sphere.




Fig. 5. Network map of top keywords based on the total link strength

The keyword analysis yielded 296 keywords. After excluding general keywords with a low relevance score and those with low occurrence, 50 items were finally identified. Each resulting keyword is represented as a node based on the total link strength, creating a network map of all keywords. The core keywords are closely connected with words like blended learning, L2 listening, metacognitive awareness, etc.

This bibliometric analysis provides a thorough overview of the development and present status of research on using podcasts to improve listening skills in various educational settings and nations. Recent bibliometric analyses indicate that incorporating podcasts into language education has proven effective. Research regularly highlights the significance of podcasts in improving listening comprehension, a crucial ability in language acquisition [8: 23]. Listening can be receptive, constructive, collaborative, or transformative. It is still a changing process that depends on the situation and is affected by communication goals and society norms [7: 156]. Podcasts are well-known for helping people improve their listening abilities by exposing them to real speech patterns, accents, and language use

in real-world situations [4: 11]. Much research shows that podcasts can help students stay interested and motivated. Podcasts give students dynamic and self-paced chances to study, which allows them to become more independent. Podcasts also commonly work with other learning materials, like transcripts, films, and online exercises, to support a more complete approach to language development.

This bibliometric review underscores the vitality and diversity of second-language listening research over the past five years. Future studies may benefit from longitudinal data, collaboration mapping, and more fine-grained citation analyses to further enrich the field's understanding. The findings reveal significant trends in podcast research, including contributions from leading authors, journals, and institutions. To summarize, podcasts have emerged as an innovative and adaptable educational tool, bridging gaps in traditional language instruction and fostering inclusive learning. As technological advancements continue, podcasts are well-positioned to play an increasingly crucial role in global education, making learning more accessible, personalized, and culturally responsive.

References

1. Arono et al. Exploring the effect of digital literacy skill and learning style of students on their meta-cognitive strategies in listening. // International Journal of Instruction. Gate Association for Teaching and Education, 2022.
2. Bingol A.M., Celik B., Yildiz N., Tugrul Mart C. Listening comprehension difficulties encountered by students in second language learning class. // Educational and Instructional Studies in the World, 2014, 4(4), Article 01. ISSN: 2146–7463.
3. Buch. How to teach listening? – Harlow: Pearson Longman, 2010.
4. Davydenko O. Using BBC Learning English Podcasts to develop university students' listening skills. // E-mentor, 2021, 5, 26–35.
5. Hew K.F. Use of audio podcast in K-12 and higher education: A review of research topics and methodologies. // Educational Technology Research and Development, 200957(3), 333–357.
6. Purdy M., Borisoff D. Listening in everyday life: A personal and professional approach (2nd ed.). – Lanham: University Press of America, 1997.
7. Rost M. Teaching and researching listening (2nd ed.). – London: Pearson Longman, 2011.
8. Vandergrift L., Goh C.C. M. Teaching and learning second language listening: Metacognition in action. – Routledge, 2012.

Ravshan NIYAZOV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ZAMONAVIY AMERIKA ADABIYOTIDA DETEKTIV JANRNING TURLARI VA O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada detektiv janrning adabiy-tarixiy shakllanishi, tarkibiy xususiyatlari hamda janr ichida vujudga kelgan asosiy turlari (klassik detektiv, noir detektiv, psixologik, polisiyaviy, sud-advokat detekivi, postmodern va metafikitiv detektiv) har tomonlama tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: detektiv janr, klassik detektiv, noir detektiv, metafiksiya, bilish modeli, jinoyat syujeti, tergov strukturalari, gnoseologiya, axloqiy kod, zamonaviy adabiyot, postmodernizm.

Annotation. This article analyzes the literary-historical formation of the detective genre, its structural features, and the main types that have emerged within the genre (classic detective, noir detective, psychological, police, court-lawyer detective, postmodern, and metafictional detective) comprehensively.

Keywords: detective genre, classical detective, non-fiction detective, metaphysics, cognitive model, criminal plot, investigative structure, epistemology, moral code, modern literature, postmodernism.

Аннотация. В данной статье рассматривается литературно-историческое формирование детективного жанра, его структурные особенности, а также основные типы, возникшие внутри жанра (классический детектив, нуар, психологический, полицейский, судебно-адвокатский детектив, постмодернистский и метафизический детектив) во всех аспектах.

Ключевые слова: детективный жанр, классический детектив, нуар детектив, метафизика, модель познания, криминальный сюжет, следственная структура, гносеология, моральный кодекс, современная литература, постмодернизм.

Detektiv janrning turlari va o'ziga xosligini tahlil qilishda bu janrni boshqa badiiy shakllardan ajratib turuvchi asosiy belgilar, struktural qurilma, narrativ mantiq va ijtimoiy-ma'naviy funksiyalar alohida e'tiborni talab etadi. Detektiv janr o'z mohiyatiga ko'ra axborotning bosqichma-bosqich ochilishi, sirning mavjudligi, tergov mexanizmining bosqichli harakati va haqiqatga yetishish jarayonini taqdim etadigan murakkab semiotik model. Taniqli fransuz faylasufi M.Merlo-Ponti ushbu struktura haqida shunday yozadi: "Detektiv roman – haqiqatning sirga aylantirilgan, sirning esa haqiqatga aylantirilgan shakli. U o'quvchini voqealarning sintaktik izchilligi orqali bilish jarayoniga jalb qiladi" [1: 288].

Detektiv janrda uchraydigan asosiy turlar ichida klassik detektiv, psixologik detektiv, polisiyaviy detektiv, sud-advokat janri, noir yoki qora detektiv va metafikitiv detektiv asarlar alohida ajralib turadi. Klassik detektivlar A.K.Doyle, A.Kristi an'anasida shakllangan bo'lib, ularning asosiy belgisi tergovchi shaxsining yuqori intellektual darajasi va mantiqiy tahlil orqali haqiqatga erishishidir. Bu janr formulasi haqida P.Van Dine shunday deydi: "Haqiqiy detektiv romanda jinoyatni tergovchi hal qiladi, u voqeani emas, faktlar va dalillarni anglash asosida muammoni ochadi" [2: 135].

Psixologik detektiv asarlar jinoyatni inson ruhiyatining murakkabligi orqali izohlaydi. Bu turda jinoyat sabablari, motivatsiyalar va ichki inqirozlar alohida urg'u bilan tahlil qilinadi. I.Grelling fikricha, "psixologik detektiv janri zamonaviy insonning ma'naviy iztiroblarini jinoyat orqali ifodalovchi allegoriyadir" [3: 76].

Polisiyaviy detektivlarda individual tergovchining o'rnini butun tizim – politiya xodimlari, ekspertlar, kriminalistlar egallaydi. Bu holat detektivni ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog'laydi. J.Scaggs bu haqda quyidagicha izohlaydi:

"Polisiyaviy detektivlarda axloqiy kuch emas, balki texnik vositalar, prosedural mexanizmlar orqali jinoyatga qarshi turiladi. Bu, ayniqsa, zamonaviy xavfsizlik tushunchasining adabiy modelidir" [4: 98].

Noir (yoki "qora") detektiv janrida esa syujetlar ko'proq ijtimoiy buhon, korrupsiya, mafkuralar ziddiyati, shaxsiy yuksalish va qulash mavzulari bilan bog'liq bo'ladi. Bu janrda tergovchi qahramon ko'pincha o'zi ham jamiyatdagi axloqiy inqirozdan mustasno bo'lmaydi. F.Chandler bu turni "inson axloqi bilan korrupsiyalashgan tizim o'rtasidagi g'alaba qozonmaydigan qarama-qarshilik" [5: 43] deb ta'riflaydi.

Metafikitiv detektiv janrda esa jinoyat syujeti o'zini tanqid qiluvchi, o'z strukturalari ustida mulohaza yurituvchi shaklga aylanadi. Bu janr postmodernizm ruhida shakllanib, o'quvchidan haqiqat haqida emas, haqiqat qanday aniqlanadi degan savol ustida fikr yuritishni talab etadi. B.Mchale shunday deydi: "Postmodern detektiv roman bu – tergov jarayonini bilishning chegaralarini aniqlovchi estetik eksperimentdir" [6: 169].

Maqolada qo'llanilgan tadqiqot metodologiyasi asosan struktural tahlil, komparativ adabiy yondashuv, gnoseologik va ideologik tahlil, shuningdek, janrshunoslik prinsiplariga asoslanadi. Muallif detektiv janrga oid turli shakl va ko'rinishlarni adabiy matnlar, nazariy qarashlar va falsafiy konsepsiyalar yordamida o'rganadi. Tahlil jarayonida Umberto Eko, Tzvetan Todorov, Linda Hutcheon, Fredric Jameson kabi tadqiqotchilar nazariyalariga tayanilgan, detektiv janrning har bir turi semantik, narrativ va madaniy-falsafiy aspektlarda o'zaro solishtirilib baholangan.

Detektiv janrning o'ziga xosligi va uning turlarini tahlil qilish zamonaviy adabiy tanqid doirasida faqat syujet asosidagi tafovutlarga emas, balki janrning madaniy-falsafiy, gnoseologik va ijtimoiy kodlari asosida turlanishiga ham urg'u beradi. Bu janrning o'ziga xosligi, eng avvalo,

uning bilish strukturasi bilan bog'liqdir: unda haqiqat va yolg'on, jinoyat va adolat, muammo va yechim qarama-qarshiligi dramatik zaminga aylanadi. Taniqli tadqiqotchi K.Freeman ta'kidlaganidek, "detektiv asar bu – voqelikni mantiqiy konstruksiya asosida qayta tashkil etish, ya'ni zamonaviy inson uchun adolatga bo'lgan intellektual ishonchning badiiy modeli" [7: 44].

Detektiv janr turlari madaniy, axloqiy va gnoseologik funksiyalariga ko'ra ajraladi. Masalan, klassik detektiv – "bilish" janridir; u jinoyat, tergov, dalil, yechim kabi qat'iy tartib asosiga quriladi. Ushbu struktura asosida "Sherlok Holms maktabi" deb yuritiladigan an'ana shakllangan. D. Knight bu haqda shunday yozadi: "Klassik detektivda tergov – axloqiy akt: jinoyat adolatli yo'l bilan fosh etilishi kerak, tergovchi esa haqiqatning ramziy vakilidir" [8: 59].

Detektiv janr o'zining narraziv konstruksiyasi, axloqiy dualizmi, syujetdagi sir-asror strukturalari va epistemologik intensivligi bilan boshqa badiiy janrlardan tubdan farqlanadi. Bu janrning o'ziga xosligi faqat jinoyat va uning tergov atrofiga shakllanadigan dramatik qurilmada emas, balki jinoyatni tushunish, uni anglash va asoslashga qaratilgan madaniy-gnoseologik harakatda mujassamdir. Shu bois B.Tzvi ushbu janrni "badiiy bilishning detektiv shakli" deb ta'riflaydi: "Detektiv asarda o'quvchi voqealarni emas, bilimni izlaydi, tergovchi esa bilim ishlab chiqaruvchi falsafiy-sub'yektiv figura" [9: 42].

Janr turlarini aniqlashda uning semantik va sosiokulturologik differensiallashuvi yetakchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, klassik detektivda bilish – haqiqatga olib boruvchi mantiqiy yo'l. Bunda odatda tergovchi tartib va axloq timsoli sifatida talqin qilinadi. D.Sayers ushbu model haqida shunday deydi: "Klassik detektiv – axloqiy ilohiyotning sekulyar ko'rinishidir; tergovchi jinoyat ustidan g'alaba qozonadi, chunki u haqiqat tarafdori" [10: 13].

Psixologik detektivda esa jinoyat – ruhiy inqirozning badiiy ifodasi. Bu turning diqqat markazida voqelik emas, balki inson ichki dunyosi, noaniq motivlar, ruhiy ziddiyatlar turadi. S.Rimmon-Kenan ta'kidlaydi: "Psixologik detektivda tergov voqeasi tashqi emas, ichki sahnada kechadi; jinoyatga sabab izlash aslida shaxsning o'zini anglash harakatidir" [11: 96].

Yana bir qiziqarli tur feministik detektiv bo'lib, u klassik

janrni patriarxal kodlardan ajratishga intiladi. Ayol tergovchi ko'pincha erkaklar qurgan jinoyat dunyosiga qarshi turuvchi obraz sifatida tasvirlanadi. S.Walton bu haqda shunday yozadi: "Feministik detektiv romanlar nafaqat jinoyat fosh etiladigan asarlar, balki jinoyatning gender kodlari tahlil qilinadigan adabiy forumdir" [12: 71].

Detektiv asarlarning turlari ularning syujetdagi bilish strategiyasi, axloqiy pozitsiyasi va madaniy funksiyasiga qarab farqlanadi. Klassik detektivda (Arthur Conan Doyle, Agatha Christiye) voqelik mantiqiylik, deduktiv metod va haqiqatga bo'lgan qat'iy ishonchga quriladi. Janrning bu turida tergovchi faqat jinoyatni emas, balki jamiyatdagi axloqiy muvozanatni tiklovchi ramziy shaxsga aylanishi bilan ajralib turadi.

Jinoyat trillerida esa zamon, harakat va xavf muhitining ustuvorligi bilan jinoyat voqeasi realistik va psixologik darajada sahnalashtiriladi. Bu turdagi detektivlar ko'pincha, jinoyatga sabab bo'lgan ijtimoiy inqirozlar, shaxsiy travmalar va institusional zaifliklarni ochib beradi.

Yuridik detektiv huquqiy tizim va uning ichki ziddiyatlarini syujet markaziga olib chiqadi. Tergovchi bu yerda advokat, sudya yoki prokuror obrazida ko'rinadi. Ushbu modelda jinoyat emas, uning huquqiy talqini, sud mexanizmining ishlashi, manipulatsiya va qonunning talqinga ochiqligi muhim o'rinda turadi.

Postmodern detektiv asarlar barcha klassik va noir strukturalarni shubha ostiga oladi. Tergov shubhali, jinoyat noma'lum, tergovchi esa ko'pincha ishonchsiz rivoyatchiga aylanadi, syujet murakkab intertekstual o'yinlar, ironiya va parodiya asosida quriladi.

Xulosa qilib aytganda, detektiv janr nafaqat jinoyat syujetiga asoslangan adabiy shakl, balki haqiqatni izlash, axloqiy me'yorlarni sinovdan o'tkazish va ijtimoiy ongni aks ettirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning har bir turi o'ziga xos narraziv struktura, falsafiy pozitsiya va epistemologik strategiyaga ega bo'lib, o'quvchini haqiqat va yolg'on, tartib va beqarorlik, axloq va adolat o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqida mushohada yuritishga undaydi. Shunday qilib, detektiv janr zamonaviy adabiyotda estetik, gnoseologik va ideologik jihatdan markaziy rol o'ynovchi muhim madaniy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Merleau-Ponty M. *Phénoménologie de la perception*. – Paris: Gallimard, 1945.
2. Van Dine S.S. *Twenty Rules for Writing Detective Stories*. // *The American Magazine*, 1928.
3. Grelling I. *Psychological Dimensions of Modern Crime Fiction*. – Berlin: Lang, 1997.
4. Scaggs J. *Crime Fiction*. – London: Routledge, 2005.
5. Chandler R. *The Simple Art of Murder*. – Boston: Houghton Mifflin, 1950.
6. McHale B. *Constructing Postmodernism*. – London: Routledge, 1992.
7. Freeman K. *The Idea of the Classic Detective Story*. – New York: Praeger, 1980.
8. Knight D. *Form and Ideology in Detective Fiction*. – Bloomington: Indiana University Press, 1980.
9. Tzvi B. *Narrative Knowledge and the Detective Form*. // *Literary Theory*. – 1993, №4.
10. Sayers D.L. *Aristotle on Detective Fiction* // *The Greatest Crime Stories of All Time*. – New York: W.W. Norton, 1992..
11. Rimmon-Kenan S. *Narrative Fiction: Contemporary Poetics*. – London: Methuen, 1983.
12. Walton S. *Detective Agency: Women Rewriting the Hard-Boiled Tradition*. – Berkeley: University of California Press, 1999.

E'tibor MURODOVA<

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ PAREMIYALARI MILLIY VA MADANIY O'ZIGA XOSLIKNI NAMOYON ETUVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada paremiologiya xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan maqol va matallarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganadigan fan sifatida yoritiladi. Paremiologiyani mazmuni, o'rganish obyekti, til va madaniyatdagi o'rnini chuqur tahlil qilinadi. O'zbek va ingliz tillaridagi paremiyalar qiyosiy-tipologik jihatdan solishtiriladi, ularning umumiy va milliy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, paremiyalarning xalq tafakkuri, qadriyatlarini, tarixiy tajribasini ifodalovchi vosita sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada til va madaniyat o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, maqol va matal, xalq og'zaki ijodi, o'zbek paremiyalari, ingliz paremiyalari, qiyosiy tahlil, madaniy kontekst, milliy o'ziga xoslik, lingvistik tahlil.

Annotation. This article examines paremiology as a linguistic science that studies proverbs and sayings as elements of folk oral literature. The content, object of study, and the significance of paremiology in the context of language and culture are explored. A comparative-typological analysis of Uzbek and English paremias is provided, focusing on their common and nationally specific features. Special attention is given to the role of paremias as a means of expressing folk thought, values, and historical experience. The article emphasizes the interconnection between language and culture.

Keywords: Paremiology, proverbs and sayings, folk oral literature, Uzbek paremias, English paremias, comparative analysis, cultural context, national features, linguistic analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается паремиология как лингвистическая наука, изучающая пословицы и поговорки как элементы народного устного творчества. Раскрываются содержание, объект изучения и значение паремиологии в контексте языка и культуры. Приводится сопоставительно-типологический анализ узбекских и английских паремий, рассматриваются их общие и национально-специфические черты. Особое внимание уделяется роли паремий как средства выражения народного мышления, ценностей и исторического опыта. В статье подчеркивается взаимосвязь языка и культуры.

Ключевые слова: Паремиология, пословицы и поговорки, устное народное творчество, узбекские паремии, английские паремии, сопоставительный анализ, культурный контекст, национальные особенности, лингвистический анализ.

Paremiologiya so'zi grekcha "paranomia" so'zidan olingan bo'lib hikmat, ta'limot degan ma'nolarni bildiradi va ma'lum bir tilga xos bo'lgan, xalqning turmush tarzi, ma'daniyati, ijtimoiyqadriyatlarini, axloqiy me'yorlari, yillar davomida orttirgan tajribasi va kuzatuvlari asosida shakllangan avloddan avlodga ko'chib yuruvchi maqol, matal, hikmatli so'z va iboralarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi hisoblanadi. Paremiologiyani o'rganish obyekti hisoblangan eng kichik yaxlit fikrni ifodalovchi birligi "parema" deb ataladi. Xalq paremiologik ijodi folklorning alohida va mustaqil turidir. Unda xalq e'tiqodi va ma'daniyatining tarixi o'z aksini topgan. Uning aynan xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi va avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgani va paremalarda turli xil badiiy tasvir vositalari jumladan qofiyalash, kesatiq, kinoya, taqqoslash, metafora, o'xshatishlar qo'llanilganligi uchun adabiyotshunoslik fanining ham o'rganish obyekti sanaladi.

So'zlardan tuzilib ma'lum bir yaxlit fikrni ifodalashga qaratilgan gap shaklida bo'lganligi uchun tilshunoslikda ham o'rganiladigan paremiologiya sohasi mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatdan o'ziga xos hisoblanadi. Paremiyalar tilning rivojlanishi va o'zgarishini kuzatishda yordam beradi va tilning boyligini ko'rsatadi. Har bir paremiya o'z ichida ma'no va kontekstni saqlaydi, bu esa tilning rang-barangligini oshiradi. Bundan tashqari paremiyalar orqali tilning semantik strukturasi o'rganish mumkin. Ular ko'pincha ma'noni kengaytirish yoki toraytirish uchun ishlatiladi.

Paremiyalar bu madaniyatning ko'zgusi sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat tilning go'zalligini, balki xalqning ruhiyatini ham ifodalaydi. Har bir paremiya o'z ichida ma'naviy qadriyatlarini saqlaydi va kelajak avlodlarga yetkazadi. Paremiyalar milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Ular xalqning tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va an'alarini saqlab qolish uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir millat o'ziga xos paremiya tizimiga ega bo'lib, bu tizim uning madaniy merosini tashkil etadi. Paremiyalar millatning o'ziga xosligini belgilovchi muhim elementdir. Ma'lum bir til leksikasidagi maqol va matal kabi xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'rganish orqali shu tilda gaplashuvchi xalqning madaniyati, kelib chiqish tarixi va hayot tarzi bilan yaqindan tanishish va uni boshqa til va millat vakillari bilan qiyosiy tahlil qilish mumkin. Zero, XIX asrda yashagan V.I. Dal mashhur yozuvchi, tilshunos olim, yirik rus maqol va iboralari majmuasining muallifi "Maqol ... to'qib chiqarilmaydi, u o'z-o'zidan dunyoga keladi" degan. "Maqollarni o'rganmay turib, "xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o'ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan "etnografiya"ni chetlab o'tish mumkin emas".

Hozirgi zamon tilshunoslikda paremiyalarning qiyosiy-tipologik tadqiqi dolzarb hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi paremiyalarni solishtirganda, ularning ko'plab umumiy jihatlari mavjud. Masalan, har ikkala til ham hayot tajribasi, tabiat hodisalari va inson munosabatlariga asoslangan iboralarni o'z ichiga oladi. Biroq, milliy xususiyatlar ham mavjud. O'zbek paremiyalari ko'pincha

qishloq hayoti, dehqonchilik va an'anaviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz paremiyalari ko'proq sanoat, iqtisodiyot va zamonaviy hayot bilan bog'liqdir.

O'zbek paremiyalarining milliy o'ziga xosligi haqida fikr yuritish ekanmiz, xalqning tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va an'analari o'zida mujassam etuvchi maqollar ko'pincha o'zbek xalqining turmush tarzi, tabiatga bo'lgan munosabati, mehnat qadriyatlari va oilaviy aloqalari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash zarur. Masalan, "Ona yerga hurmat – insonga hurmat" maqoli yerga bo'lgan e'tibor va mehnatni qadrlashni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, o'zbek paremiyalari ko'plab mantiqiy va axloqiy g'oyalarni o'z ichiga oladi. Ular insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, adolat va haqiqiylikni ta'kidlaydi shu bilan birga yosh avlodga to'g'ri yo'lni tanlashda, yomonlikdan yiroq bo'lishda pand nasihat sifatida amal qiladi. O'zbek paremiya va maqollari ko'plab hikmatli so'zlar bilan ifodalanadi. O'zbek paremiyalari o'zida milliylikni aks ettiruvchi ko'plab misollar mavjud. Ular o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va hayotiy tajribalarini ifodalaydi. Quyida bunday paremiyalardan ba'zilari keltirilgan:

"Yolg'iz otning changi chiqmas." Bu ibora hamkorlik va jamoaviy ishning ahamiyatini ifodalaydi.

"Ona yurtning – oltin beshiging." O'z vataniga, ona yurtiga bo'lgan muhabbatni aks ettiradi.

"Kichkina bolaga katta gap aytma." Bu ibora yosh avlodga nisbatan ehtiyotkorlik va ularga mos ravishda muomala qilish zarurligini ta'kidlaydi.

"Yetti o'lchab bir kes." O'zbek xalqining sabr-toqat va mulohaza qilishga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi.

"Ota-onani hurmat qil, umr bo'yi baxtli bo'l." Ota-onaga bo'lgan hurmat va ehtiromni ta'kidlaydi, bu esa o'zbek millatining axloqiy qadriyatlaridan biridir. Bu kabi paremiyalar o'zbek xalqining madaniyati, urf-odatlarini va hayotiy tajribalarini aks ettiradi, shuningdek, milliy identitetni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ular xalq og'zaki ijodining bir qismi sifatida avlodlar o'rtida kelmoqda.

Zamonaviy hayotda ham o'zbek paremiyalarining ahamiyati yo'qolmagan. Ular ijtimoiy tarmoqlarda, adabiyotda va kundalik muloqotda keng qo'llaniladi. Yosh avlod o'z madaniyatini anglab yetishi uchun paremiyalarni bilishi va ulardan foydalanishi muhimdir. Bu esa milliy identitetni saqlashda va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ingliz paremiyalarining eng asosiy va yaqqol namoyon bo'lib turuvchi xususiyati bu ularda ma'daniy kontekstning aks etishi hisoblanadi. Ingliz paremiyalari ingliz xalqining tarixi, an'analari va hayot tarzini aks ettiradi. Ular ko'pincha

ma'lum bir madaniy kontekstda paydo bo'lgan va shu kontekstda tushunilishi kerak. Misol uchun "When in Rome, do as the Romans do" paremiyasi boshqa joyga borganda aynan o'sha yurtning an'anava urf odatlariga rioya qilish kerakligini anglatadi va bu ingliz madaniyatidagi mehmondo'stlik va moslashuvchanlikni aks etadi. Bundan tashqari paremiyalar qisqa va lo'nda bo'lib, murakkab fikrlarni oddiy va tushunarli shaklda ifodalaydi. Bu ularni eslab qolishni osonlashtiradi. Masalan "A penny saved, a penny earned" paremiyasi pulni tejashning muhimligini ifodalaydi. Qisqa va aniq shaklda tejashning qiymatini ta'kidlaydi. Ko'plab ingliz paremiyalari metaforalarga asoslangan bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki tasviriy ravishda ifodalanadi. Bu esa ularni yanada qiziqarli va chuqurroq qiladi. Bunday paremiyalarga na'muna sifatida "Don't count your chickens before they hatch" paremiyasini keltirish mumkin. Ushbu paremiya kelajakdagi mavaffaqiyatlarni oldin taxmin qilmaslik kerakligini anglatadi va bu ma'noni ko'chma usulda ifodalaydi. Ingliz paremiyalari ko'pincha insoniy tajribalar, munosabatlar, mehnat va hayotning turli jihatlari bilan bog'liq universal mavzularni qamrab oladi. Ular inson hayot tajribasidan kelib chiqib mantiqiy va axloqiy saboqlarni o'z ichiga oladi muayyan nasihatlarini ifodalaydi. Paremiyalar zamon o'tishi bilan o'zgarishi yoki yangilanib borishi mumkin. Yangi sharoitlar yoki ijtimoiy o'zgarishlar sababli eski paremiyalar yangi ma'nolar olishi yoki yangi variantlari paydo bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi ko'plab paremiyalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning bir-birini to'ldiruvchi yoki qarama-qarshi ma'nolari mavjud. Bundan tashqari paremiyalar ijtimoiy qatlamlar guruhlar orasida farq qiladi. Masalan shahar madaniyati, qishloq hayoti yoki turli kasblar vakillarining o'zlariga xos paremiya va iboralar bo'lishi mumkin. Bu esa ularni yanada boyitadi. Ushbu xususiyatlar ingliz paremiyalarini o'ziga xos va qiziqarli qiladi, shuningdek, ularning o'rganilishi til va madaniyatni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ular boshqa tillarga tarjima qilganda, ma'nosi va konteksti o'zgarishi mumkin, zero ma'lum bir paremiya yoki iboraning boshqa tildagi alternativini topish mushkul. Shu sababdan nafaqat tilning o'ziga xosligini balki uning madaniyati va tarixini ham aks ettiruvchi paremiyalarni chuqur o'rganish, tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Paremiologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning uzviy bo'lagi bo'lib, til orqali xalq ruhiyati, qadriyatlari, dunyoqarashi va tarixiy tajribasini o'rganishga xizmat qiladi. Har bir paremiya milliy madaniyatning ko'zgusi bo'lib, u til boyligini, xalq tafakkurini va ijtimoiy ongini aks ettiradi. Ular chuqur o'rganish esa nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural tahlillar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyev X., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Rahimova Z. Frazema va Parema munosabati masalasi. / An'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2014, №4.
3. G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur-semantik tadqiqi. – Toshkent: Fan. 2013.

4. Bayonxanova I.F. Paremiyalarning turli tizimdagi tillarda umumiy xususiyatlari. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2014.
5. Gadoyeva M.I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi (folklorning kichik janrlari misolida): Filol. fan. dok. diss... – Buxoro, 2022.
6. Boltayeva B.I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil): Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss... – Samarqand, 2019.
7. Karimov U., Brown L. Linguistic and cultural aspects of proverbs and sayings with anthropomorphic elements in English and Uzbek languages. // Journal of Intercultural Communication Studies. – 2016. – Vol. 24, No. 2. – P. 78–92.
8. Rahmanova S. A comparative study of linguistic and cultural aspects of proverbs and sayings with anthropomorphic features in English and Uzbek languages. // International Journal of Language and Literature. – 2018. – Vol. 5, No. 1. – P. 35–48.
9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

Nigina IZAMOVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

DETEKTIV ASARLARNING JAMIYAT HAYOTI VA MA'NAVIY RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Detektiv janr jahon adabiyotida nafaqat syujet rivoji nuqtayi nazaridan, balki tiluslub, xarakter yaratish va jamiyat tahlili kabi jihatlardan ham chuqur o'rganilmoqda. Bugungi kunda bu janr o'zining ko'p qirrali tabiati, dolzarb mavzularni ilgari surishi va o'quvchini fikrlashga undovchi xususiyatlari bilan ilmiy izlanishlar uchun maydon hisoblanadi. Ushbu maqolada detektiv janrning jamiyat hayoti va ma'naviy rivojiga ta'siri R.Chandler, D.Hammett, T.Malik va K.Sindarov asarlari misolida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: detektiv, ijtimoiy-siyosiy muammolar, izquvar (detektiv), jinoyat.

Annotation. The detective genre in world literature is studied not only from the perspective of plot development but also through the lens of style, language, character creation, and social analysis. Today, this genre represents a relevant topic for scientific research due to its multifaceted nature, its ability to raise significant issues, and to stimulate readers to deep reflection. This article examines the significance and influence of the detective genre on social life and the spiritual development of the individual, as well as analyzes the works of R.Chandler, D.Hammett, T.Malik and K.Sindarov.

Keywords: detective, socio-political issues, detective, crime.

Аннотация. Детективный жанр в мировой литературе изучается не только с позиции развития сюжета, но и через призму стиля языка, создания характеров и анализа общества. Сегодня этот жанр представляет собой актуальную научно-исследовательскую тему благодаря своей многогранной природе, способности поднимать значимые проблемы и стимулировать читателя к глубоким размышлениям. В данной статье рассматривается значение и влияние детективного жанра на общественную жизнь и духовное развитие личности, а также проводится анализ произведений Р.Чандлера, Д.Хэммета, Т.Малика и К.Синдарова.

Ключевые слова: детектив, общественно-политические вопросы, сыщик, преступление.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda detektiv janri doimiy modifikatsiyasi, jamiyatdagi eng nozik xilqatlarni fosh etuvchi va unga qarshi kurashuvchi vosita bo'lgani uchun ko'pgina adabiyotshunos olimlar va tanqidchilarning tadqiqot obyektidir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan ingliz yozuvchisi, shoir, “paradokslar shahzodasi” G.K.Chesterton o'zining “Detektiv hikoyalar himoyasi” (A defense of detective stories) nomli maqolasida detektiv adabiyotning ko'p qirrali qiymatlarini sanab o'tadi va unga shunday baho beradi: “Detektiv hikoya nafaqat san'atning to'la-to'kis qonuniy shakli hisoblanadi, balki u xalq farovonligi uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida aniq va real ustunliklarga ega” [1: 1]. Klassik detektiv janri vakillaridan biri S.S. Van Dayn detektiv hikoyani adabiy badiiyat va murakkab tafakkur vositasi sifatida ko'rgan va bu janrga nisbatan jiddiy e'tibor berilishiga harakat qilgan. U o'z maqolasida shunday deydi: “Detektiv hikoya – aql-zakovat o'yining bir turidir” [2: 189]. Yozuvchi asarlari orqali detektiv janrga o'ziga xos intellektual uslub olib kirgan. Bu janr insonni fikrlashga, jinoyatni ochish uchun berilgan ishoralarni tahlil qilishga undaydi, aqlni charxlaydi.

Amerikalik olim Leroy Panek detektiv janrni har tomonlama o'rganib, janr muammolariga atab o'ndan ortiq tanqidiy, ilmiy asarlar yozgan. “Asosli gumon: Amerikada jinoyat adabiyoti” (“Probable Cause: Crime fiction in America”) asarida detektiv janrning kelib chiqish tarixini va unga sabab bo'lgan omillarni o'rgansa, “Detektiv hikoyaning muhim unsurlari” (The essential elements of the detective story)da detektiv hikoyalarning shakllanishiga Amerika va Yevropadagi ijtimoiy o'zgarishlar – sanoat inqilobi, shaharlashuv, jinoyatchilikning o'sishi, matbuotning rivojlanishi kabi omillar qanday ta'sir qilganini tahlil qiladi: “Angliyadagidek, AQShda ham katta-kichik do'konlar jinoyatchilar uchun nishonga aylandi. Darhaqiqat, mijozlarga mahsulotlarga qo'l tekkizishga ruxsat berilgan yangi katta savdo markazlarining paydo bo'lishi 1860-yillardan so'ng detektiv hikoyalarda aks ettirilgan yangi turdagi jinoyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi” [3: 201]. Demak, jamiyatda yuz berayotgan jinoyatlar aynan detektiv janrning ommapob bo'lishiga zamin yaratgan. Mavzulardagi xilma-xillik esa janrninigi turlarga ajralishiga sabab bo'lgan.

R.Niyazov Amerika sud tizimi va yuridik detektiv asarlarni tadqiq qilar ekan, "Amerika adabiyotida yuridik detektiv asar yaratilishi va bosh qahramon sifatida aynan huquqshunos obrazining tanlanishi adabiyot orqali davlatning huquqiy tizimini baholash, jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va shu asosda fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish maqsadi yotadi" [4: 40] degan xulosaga keladi. Anatoliy Guliga esa detektiv janrni falsafiy-estetik jihatdan o'rganib, jinoyatni inson ongi buzilishining ifodasi, detektiv asarni esa axloqiy tanlov maydoni sifatida talqin qiladi. G.Andjaparidze "Detektiv asarni qanday yozish kerak?" to'plamining so'ngso'zida shunday xulosaga keladi: "Detektiv asar madaniyatda o'ziga xos mustaqil o'ringa ega va boshqa hech qanday janr uning o'rnini bosa olmaydi" [5: 280]. Andjaparidze faqat qotillikni ochish yoki jinoyatlarni fosh etish bilan cheklanmay, chuqur ijtimoiy, psixologik va falsafiy qatlamlarni tahlil qiladi. Asari o'quvchilarga detektiv janrning o'ziga xos xususiyatlarini, jamiyatni qanday aks ettirishini, inson tabiatini qanday ochib berishini tushuntiradi. Umuman olganda, detektiv janr jahon adabiy jarayonida teng huquqli va to'laonli mavqega ega. Asarlar esa hayotiylik, real voqeliklarga asoslanishi bilan boshqa janrdagi ijod namunalaridan farqlanadi. Zero "Yozuvchi insonning shaxsiy hayotidagi, ijtimoiy faoliyatidagi xilma-xil qarashlar, rang-barang murakkab tuyg'ular "jang"ini jamiyat taraqqiyotiga bog'liq holda tadqiq etsa, ziddiyatlarning falsafiy-badiiy negizini ilg'ab olsa, haqqoniy obrazlarda gavdalantirsa, ko'zlagan maqsadiga erishadi" [6: 26]. Turob Irisboyev ham "Hozirgi o'zbek detektiv adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari" dissertatsiyasida detektiv asarlar poeziyasi, kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Ushbu ilmiy ishda olim detektiv asarlardagi bosh qahramon tavsifi borasida "detektiv adabiyot realistik tasvirida xulq-atvor, fazilat odat tatqiqining nechog'lik zarur" [7: 31]ligi haqida aytib o'tadi [7: 31].

Jamiyatdagi har bir ijtimoiy-siyosiy o'zgarish, yangilanish detektiv asarlarning bosh mavzusiga aylana boradi. Amerika va Yevropa detektiv nasri ko'proq jamiyatdagi korrupsiya, ijtimoiy tengsizlik, katta jinoiy to'dalar haqida bo'lsa, o'zbekcha detektiv asarlarda milliy-madaniy, axloqiy masalalarga ko'proq urg'u beriladi. Raymond Chandlerning

"The Big Sleep" romani qiyin va murakkab hikoya uslubi bilan tanilgan. Romanda Los-Anjeles aholisining quyi qatlamlari hayotidagi korrupsiya, adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalar o'rganiladi. Chandler jamiyatdagi kuchli va zaif guruhlar o'rtasidagi farqni, martabali kishilarning boshqaruv tizimidagi o'rnini ko'rsatadi. Roman bosh qahramoni Filip Marlou Los Anjelesni qorong'u va jinoyatlar o'chog'i sifatida ko'radi. Jamiyatda qonunlar va adolat mezonlari ko'pincha buziladi. Detektiv Marlou huquq tartibot organlari bilan hamkorlik qilishni istamaydi, chunki ular o'z manfaati uchun ishni yopishga harakat qiladi. U kichik va katta to'dalar orasida o'ziga kerakli ma'lumotlarni oladi. Jamiyatda politsiya va huquq tartibot organlariga bo'lgan ishonchsizlik xususiy detektivlarni yo'llashga bo'lgan ehtiyojni tug'diradi. Yana bir yozuvchi D.Hammetning "Red harvest" asariga keladigan bo'lsak, u tanqid ostida qolgani bilan mashhur. Romanda shaharni zabt etgan gangsterlar, korrupsiyaga botgan siyosiy tizim va adolatsizliklar, ichki o'zgarishlarga qaramay, davlat va jamiyatni buzg'unchi kuchlar boshqarishi tasvirlanadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchini ijtimoiy adolat, korrupsiya va yovuzlik kabi masalalar haqida o'ylashga undaydi.

O'zbek adabiyotida Tohir Malikning "Shaytanat" asari detektiv asarning eng Yaxshi namunasi sifatida e'tirof etiladi. Unda Sovet Ittifoqining qulashi, davlatning endigina mustaqillikka erishgan davri tasavirlanadi. Davlat garchi mustaqillikka erishgan bo'lsa-da sovet rejimining asoratlari davom etadi. Yozuvchi davlatning jamiyatdagi har bir qatlamni nazorat qilishi va erkin fikrni yo'qqa chiqarishini tanqid qiladi. Komil Sindarovning "Tungi qotillik" asari esa murakkab syujeti va ijtimoiy, psixologik elementlari bilan zamonaviy o'zbek detektiv adabiyotining mustahkam asoslarini yaratdi. Asar o'quvchini faqatgina qotillikni ochish jarayoniga jalb etmaydi, balki ijtimoiy adolat, psixologik motivatsiya va qarama-qarshi qarashlar haqida ham chuqur fikr yuritishga undaydi.

Detektiv asarlarning asosiy motivlaridan biri jinoyatni fosh etish bo'lsa-da, ularda jamiyatdagi turli muammolarni tanqid etish, ularga yechim topishga intilish ham aks etadi. Shuning uchun bu tur asarlar qiziqarli va dete doim ko'p sonli kitobxonlarni o'ziga jalb qila olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chesterton G.K. A defence of detective stories: A Collection of Critical Essays / ed. by H. Haycraft. – New York: Carroll and Graf, 1992.
2. Van Dine S.S. Twenty rules for writing detective stories. / The Art of Mystery Story: A Collection of Critical Essays / ed. by H. Haycraft. – New York: Carroll and Graf., 1992.
3. Panek L. The essential elements of the detective story. – McFarland & Company, Inc., – North Carolina: Jefferson, 2017.
4. Niyazov R.T. John Grisham ijodida detektiv romanlarning badiiy o'ziga xosligi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. nomz. diss... – Toshkent, 2020.
5. Andjaparidze G. Не только о детективе. – М: Vagrius, 2003.
6. Xudoyberganov N. So'z kurashga chorlaydi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978.
7. Irisboyev T.T. Hozirgi o'zbek detektiv adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari (Tohir Malikning "Shaytanat" asari asosida): Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2001.

Moxichehra MUXAMMADIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI BOYO'G'LI OBRAZINING POETIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi Boyog'li obrazining poetik vazifasi, ramziylik va majoziylik xususiyati, muallif badiiy mahorati yoritiladi. Shuningdek, boyog'lining biologik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mas'al, boyog'li, boyqush, yapaloqqushlar turkumi, ramz, majoz.

Annotation. This article highlights the poetic function, symbolic and allegorical features of the owl character in Gulxaniy's work “Zarbulmasal”, as well as the author's literary mastery. It also discusses the biological characteristics of the owl.

Keywords: fable, owl, horned owl, strigiformes, symbol, allegory.

Аннотация. В данной статье освещаются поэтическая функция, символика и аллегоричность образа филина в произведении Гульхани “Зарбулмасал”, а также художественное мастерство автора. Кроме того, рассматриваются биологические особенности филина.

Ключевые слова: басня, филин, сова, отряд совообразных, символ, аллегория.

Gulxaniy “Zarbulmasal”ning muqaddima qismida asarning yozilish tarixiga oid voqeani hikoya qiladi. Amir Umarxon saroyida bo'lib turadigan adabiy kechalarning birida “Burung'i yaxshilardan qolg'on zarbulmasallarning so'zlanishida va pechanlik bobida tutgan muhim o'rn” ustida so'z ketadi. Suhbatda Alisher Navoiyning “Oshni ta'mi tuz bilan, suvning ta'mi muz bilan” degan so'zlari esga olinib, ra'yi oliy (Amir Umarxon e'tibori) xalq ichidagi shu zarbulmasallarni to'plash kerakligiga qaratiladi. Gulxaniyning yozishicha, bu vazifa unga yuklanadi. Zarbulmasal – maqsadni majoz yo'li bilan ifodalashga qaratilgan hikoyatdir. Majoz bo'lganda ham, oddiy majoz emas, “ko'p qavatli” murakkab majoz. Odam timsoli o'rnida qushlarning harakatda bo'lishi birinchi majoz bo'lsa, ular tilidan Xolvoqi misgar, Yodgor po'stindo'z singari kishilarning, Tuya, Chayon, Sangpo'sht (Toshbaqa) singari hayvon-hasharot timsollarining naql-rivoyatlar keltirib so'z yuritishi – ikkinchi majoz, bu timsollar nutqida keltirilgan ifodalarning ko'chma ma'nolari – yana bir majoz – majoz ichidagi majozdir [2: 24]. Asar Yapaloqqush bilan Boyqush orasidagi qudashlik munosabati doirasidagi voqealarga asoslangan. Gulxaniy qahramonlar aytgan hikoyalar vositasida “Fahm va xirat manzilida o'tmagan kishilarning” butun bir qiyofasini jonlantiradi, fosh qiladi. Shu tariqa Boyog'lilar va Yapaloqqushlar saltanati (xarabo saltanatni) ravnaq topishiga imkon yaratib bergan muhit axloqini ko'zguda aks ettiradi.

Asar markaziy qahramoni Boyog'lilar haqida to'xtalib o'tsak. Boyqushlar yunon mifologiyasida ma'buda Afinaning sevimli hayvoni sifatida tasvirlangan va ko'zlarining rangi Afinaniki bilan bilan bir xil ekanligi aytiladi. Rimda boyog'li omadsizlik va halokat ramzi. Aholi boyog'lidani shunchalik nafratlanganki, uni kunduzi shaharda ko'rib ushlab olishsa, yoqib yuborishgan, kulini esa Tibr daryosiga oqizishgan. Avgust, Avreliy va Sezarning o'limini boyqushlar e'lon qilgan degan fikr o'sha davrlardan boshlab xalq orasida mavjud [5: 3]. Rim shoiri Ovidiy qalamiga mansub “Metamorfozlar” asarida boyog'li omadsizlik ramzi sifatida keltirilgan. Shuningdek, tushda boyog'li ko'rish ham omadsizlik sifatida talqin qilingan [3: 112].




1-rasm. Boyog'lining tabiiy ko'rinishi

Boyog'lilar, yoki xalq orasida boyqush deb ataluvchi qushlar, yapaloqqushlar oilasiga kiruvchi tungi yirtqich qushlardir. Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrikada keng tarqalgan. Yigirmaga yaqin turi bor. Ular tunda faol bo'ladi, chunki barcha a'zolari va sezgi organlari aynan shu hayot tarziga moslashgan. Masalan, qichqirig'i va qulog'i! U qichqirib, yaqin atrofdagi barcha jonotlarni qo'rqitadi. Natijada har qanday jonot biror harakatga keladi. Boyqush atrofdagi eng kichik harakat yoki shitirlagan tovushni ham darhol ilg'aydi, chunki quloqlari nihoyatda sezgir. Tashqi klapanga ega bu quloqlar uni boshqa qushlardan ajratib turadi. Ba'zi turlarida quloqlar atrofida karnaysimon pat bo'ladi, bu esa eshitish qobiliyatini yanada oshiradi. Boyqush avval o'ljasini tovush orqali aniqlaydi, keyin esa hatto qorong'ida ham bemalol ko'rgan holda aniq nishonga olib hujum qila oladi. Bu qobiliyat ikki omil bilan izohlanadi. Birinchidan, boyqushning ko'z soqqalari juda elastik bo'lib, ular tezda turli masofalarga moslashadi va aniq tasvir beradi. Ikkinchidan, ko'z qorachig'ining keng ochilishi tungi yorug'likni maksimal darajada o'zlashtirishga imkon beradi.

Gulxaniy ham “Zarbulmasal”da an’anaviy Boyo’g’li (yapaloqqush) obrazidan samarali foydalanadi. XIX asrning ijtimoiy-siyosiy muhiti tasvirlar ekan, urushlarning dahshatli oqibatlarini fosh etadi. Ayniqsa, urush sabab yuzaga kelgan qashshoqlik va yurtning xarobazorga aylangan manzaralarini badiiy tafsilotlar va majoziy obrazlar orqali yorqin tasvirlaydi. Asarda Boyo’g’lilar – o’zaro to’qnashuvlarda boyligidan ayrilgan, qo’rg’oni vayron bo’lgan, Gulxaniy ifodasi bilan aytganda, “oti ulug’, suprasi quruq” boylarning ramziy timsoli. Yapaloqqushlar misolida esa davr boylarining shuhratparastligi, ochko’zligi, maqtanchoqligi tanqid qilinadi. Yapaloqqushlar misolida esa o’sha davrdagi boylarning shuhratparastligi, ochko’zligi, maqtanchoqligi ochib tashlanadi. Masalan, Kulonkir sulton usti yaltiroq, ichi qaltiroq amaldorlarning majoziy ifodasi. U zo’ravonlik bilan el-yurtini talaydi, orttirgan boyliklariga shohona

saroy qurdirib, dabdaba va zeb-ziynatlarga beriladi. Muallif esa uni qattiq tanqid qilingan.

Boyo’g’li ham shuhratparast yer-mulk egalariining umumlashma timsoli. Qalin voqeasi orqali muallif bu obrazni nafaqat mustabid feodal, balki qizini mol-dunyoga sotgan shafqatsiz va bemehr ota sifatida ham fosh etadi. Qalin voqeasi bilan yozuvchi Boyo’g’lining faqat mustabid feodal ekanligini emas, balki qizini mol-dunyoga sotgan shafqatsiz, bemehr ota ekanligini fosh etadi. Gulxaniy asarda hajviy qahramonlarni salbiy voqelikni inkor etuvchi kulgu orqali fosh etadi. Buni toshbaqa, tuya, bo’taloq, sarbon, najjor, mu’tamir podshoh, Uyayna, Rayyo kabi obrazlar misolida ko’rish mumkin. Ular bir-biri bilan to’qnashadi, bir-birini fosh etadi. Shu tarzda jamiyatdagi muammolar yoritiladi. Asardagi asosiy obrazlar – yapaloqqushlar turkumiga mansub qushlar. Ular orqali insonlarning turli xarakterlari, illat va xulqlari ochib beriladi.



“Zarbulmasal”ni yakunlovchi – Mug’ bilan bog’liq manzarada ham katta majoziy ma’no bor. Asarda Mug’ – O’ratepa yangi g’oyaviy-badiiy talqinda, ya’ni Boyo’g’li va Yapaloqlar hukmiga bo’ysunmaydigan, ularning talonchi

istaklariga qarshi turgan isyonkor bir hudud sifatida gavdalanadi. Ya’ni u yer egaligi zulmiga qarshi kurash yalovini ko’targan o’lka. Boyo’g’li “jonibdin vakil – Kuykanak vayrona ajnosidin Xayrobod bizga muvofiq tushmadi-ku”

[1] der ekan, bu ko'ngilsizlikning ijtimoiy sababi ochiladi. Gulxaniy bu bilan Boyo'g'lilarning yovuz, vayronkor tabiatini fosh qiladi. Xalq orzusidagi "Xayrobod" kabi baxtli o'lkalarning Boyo'g'li soyasi ostida xarobaga aylanishi zulmning natijasi sifatida talqin qilinadi. Endilikda Xayrobod Boyo'g'lilar uchun xavf solmas, ya'ni Kunashbonu mahriga qo'shilsa-qo'shilmasa, ularning tasarrufiga o'tgan edi. Buxoro amirligi yoki Qo'qon xonligi qamchisi ostida bo'lsa-da, Mug'tepa taslim bo'lmagan, dushmanga bukilmagan diyor sifatida tasvirlanadi. Ezuvchilarning niyati esa aynan shu erksevar O'ratepaning ruhini sindirish, uni tobe qilishdan iborat. Asarda tasvirlangan ko'pchilik

obrazlar – xoh hayvon, qush yoki inson bo'lsin – turli illatlarning ramziy ifodasidir. Gulxaniy ularni tanqidiy ruhda tasvirlaydi, har bir obraz orqali ijtimoiy muhitdagi muammolarni fosh etadi.

Xulosa qilib aytganda, Boyo'g'li obrazi "Zarbulmasal"da xarobalik va vayronagarchilik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy illatlar, ayniqsa, shuhratparastlik, ochko'zlik va zo'rvonlik yapaloqqushlar turkumidagi qush obrazlari orqali ochib beriladi. Gulxaniy bu obrazni yaratishda hind xalq eposi "Kalila va Dimna", Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror" hamda Xo'janing "Maqsad ul-atvor" kabi asarlaridagi an'anaviy boyo'g'li obrazlaridan ilhom olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashrga tayyorlovchi Yoqubov H. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
2. Ishoqov F. Gulxaniy "Zarbulmasal"ining ilmiy tanqidiy matni: Filol. fan. fal dok. diss... – Toshkent, 1997.
3. Sami. Türk Folklorunda Kuşlar, Kültür Bakanlığı yay. – Ankara, 1993.
4. Qo'shjonov M. "Zarbulmasal"ning ba'zi badiiy xususiyatlari haqida. // O'zbekiston madaniyati, 1969.

Diloromxon TURG'UNBOYEVA,

Andijon davlat universiteti magistranti

PUL VA IJTIMOIIY TABAQALANISH: "BOY" VA "KAMBAG'AL" TUSHUNCHALARINING SOTSIOLINGVISTIK MANZARASI VA PULGA OID VULGARIZMLARNING TILDA AKS ETISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatdagi iqtisodiy tabaqalanishning lingvistik aks etishi, xususan, "boy" va "kambag'al" tushunchalarining sotsiolingvistik manzarasi, ijtimoiy-diskursiv pozitsiyalari, nutqda qo'llanilish chastotasi hamda stereotiplashtirilgan ko'rinishlari yoritiladi. Shuningdek, pulga oid vulgarizmlar va ularning xalq og'zaki nutqida aks etishi sotsiolingvistik va lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, til va jamiyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlik asosida pulga munosabatning til vositasida qanday shakllanishi hamda bu holatning madaniy, ijtimoiy va psixologik ildizlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: boy, kambag'al, pul, sotsiolingvistika, vulgarizm, streotip, ijtimoiy tabaqalanish.

Annotation. This article analyzes the linguistic reflection of economic stratification in society, focusing on the sociolinguistic landscape of the concepts "rich" and "poor," their positions in social discourse, frequency of use in speech, and stereotypical representations. Additionally, vulgarisms related to money and their manifestation in folk oral speech are examined through sociolinguistic and linguoculturological approaches. The article also explores how attitudes toward money are formed through language within the complex relationship between language and society, revealing the cultural, social, and psychological roots of this phenomenon.

Keywords: rich, poor, money, sociolinguistics, vulgarism, stereotype, social stratification.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвистическое отражение экономического расслоения в обществе, в частности, социолингвистический аспект понятий «богатый» и «бедный», их позиции в социальном дискурсе, частота употребления в речи и стереотипные представления. Кроме того, рассматриваются вульгаризмы, связанные с деньгами, и их проявление в народной устной речи с использованием социолингвистического и лингвокультурологического подходов. Статья также исследует, как формируются отношения к деньгам через язык в сложной взаимосвязи между языком и обществом, раскрывая культурные, социальные и психологические корни этого явления.

Ключевые слова: богатый, бедный, деньги, социолингвистика, вульгаризм, стереотип, социальная стратификация.

Til jamiyat hayotining o'ziga xos ko'zguvidir. Unda faqat grammatik qoidalar emas, balki ijtimoiy tengsizlik, sinfiy tafovut, qadriyatlar tizimi va madaniy stereotiplar ham mujassam. Ayniqsa, pul kabi kuchli ijtimoiy-iqtisodiy konseptlar tilda nafaqat atama, balki butun bir ong, qarash, munosabat va ideologik pozitsiya sifatida ifodalanadi. Pulga nisbatan shakllangan metafora, ibora, vulgarizm va kinoyalar orqali insonlar ijtimoiy mavqeyi,

noroziligi, umid va ko'ngil iztiroblarini ifoda etadilar. Til orqali pulga nisbatan shakllangan munosabat jamiyatdagi kuch va mavqening belgisi sifatida nafaqat leksik, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy darajalarda ham ifodalanadi. Ayniqsa xalq og'zaki ijodida va og'zaki nutqda pul atrofidagi vulgarizmlar, stereotiplashtirilgan frazalar orqali ijtimoiy norozilik, tanqid va hazil elementlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ana

shu til hodisalari sotsiolingvistik tahlil orqali pulning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ideologik kuchga ega konsept ekanini ko'rsatadi.

Til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sotsiolingvistik tahlil orqali tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Tilning ijtimoiy qatlam, guruh, mintaqa va tabaqalar o'rtasidagi farqlarni qanday aks ettirishi sotsiolingvistikaning asosiy masalasi hisoblanadi. *Sotsiolingvistika* atamasi doirasida til va jamiyat o'rtasidagi munosabat, uning rivojlanishi, xalqning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog'liq holda tilda vujudga keladigan farqlar muammosi organiladi. Sotsiolingvistika tilning o'zgarish nazariyasiga amal qilib, tilning ijtimoiy muhitga ko'ra o'zgarish xususiyatlarini organadi [1].

Jamiyat a'zolarining moddiyatga bo'lgan keskin munosabati bevosita ularning nutqiy faoliyatida, yozgan asarlarida, ommaviy axborot vositasalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda o'z aksini topib, XXI asrda sotsiolingvistik muammolarning ko'pligini ko'rsatmoqda. "Jamoat ongida tabaqalanish, birinchi navbatda, jamiyatni boy va kambag'alga bo'lish shaklida namoyon bo'ladi. Bu, aftidan, tasodifiy emas, chunki aynan daromad va moddiy iste'mol darajasidagi tafovutlar e'tiborni tortadi. Daromad darajasi bo'yicha jamiyat qatlamlari kambag'al, o'ta kambag'al, boy va o'ta boy qatlamlarga bo'linadi" [2].

Pul konsepti atrofida shakllangan metafora, frazeologik birlik, ibora, vulgarizm va stereotiplar tilshunoslikning lingvokulturologiya va psixolingvistika sohalarida ham muhim o'ringa ega. Maqolada asosiy e'tibor pul bilan bog'liq vulgarizmlarga qaratilar ekan, ushbu tushunchaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq. "Vulgarizmlar jonli xalq tilida iste'molda bo'lgan dag'al, qo'pol, uslubiy bo'yoqqa ega leksik qatlam hisoblanadi. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi" [3: 203]. Leksemalarning bu turidan foydalanish orqali kishilar suhbat jarayonida o'z fikrlarini aniqroq, suhbatdoshiga yanada tushunarliroq va erkin tarzda yetkazadilar. Vulgarizmdan so'zlovchining fikrini yanada ta'sirli ifodalaydi. Tahlil jarayonida "boy" va "kambag'al" tushunchalarining tilimizda qanday aks etishi, qanday metafora, vulgarizm va stereotiplar orqali ifodalanishi o'rganildi. Quyidagi esa kuzatish natijalari, biz aniqlagan ma'lumot va xulosalar beriladi.

Pulga oid nutqiy birliklar ko'pincha insonlarning o'zini va boshqalarni ijtimoiy jihatdan identifikatsiya (ajratish, belgilash) qilish vositasiga aylanadi. "Boy" va "kambag'al" tushunchalari insonning kimligi, qaysi qatlamga mansubligi, qanday fikrlashi, hatto qanday qadriyatlarga bo'ysunishini belgilab beradi. Masalan, *Boylarning ishi yurishadi, Boylarga qonun ham yurmaydi; Kambag'al o'z nonini topish bilan ovora, Kambag'al halol* kabi gaplarda iqlimiy identifikatsiya elementlari kuzatiladi. Bunda puli borlar ko'proq qoralangan, kambag'allik esa ma'naviy poklik, halollik bilan oqlangan. Bu esa jamiyatdagi iqtisodiy tabaqalanishning aksadosi bo'lib,

odamlar o'zlarini qanday ko'rishini va boshqalarni qanday qabul qilishini til orqali aniqlash mumkinligini isbotlaydi.

Boy so'ziga nisbatan ko'proq ijobiy konnotatsiyali iboralar ishlatiladi. *Boyvachcha, boyning bolasi, Qo'lida oltin tug'ilgan, Qo'li uzun* kabi birikmalar ko'pincha obro', kuch, imkoniyat belgisi sifatida qaraladi. Ayni shu birliklar kommunikatsiya jarayonida boy so'zi beradigan semani yanada bo'rttirib ifodalaydi. Masalan, kishiga nisbatan *Qo'li uzun* deb ta'rif berilganda uning faqat puli ko'pligi emas, balki o'ziga o'xshagan puldor tanish-bilishlari borligi, muammolarni hal etishda imkoniyati yuqoriligi ham nazarda tutiladi. Shu bois, jamiyatimizda nafaqat boy odamning o'ziga, balki farzandlariga ham o'zgacha ko'z bilan qaraladi, oddiy bolaga nisbatan farqli munosabat bildiriladi. Ayni shu holat *Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning bolasi gapirsin* iborasiga asos bo'lgan. Uning ma'nosiga ko'ra, to'g'ri yoki noto'g'ri, mavridi bilan yoki mavridsiz bo'lishidan qat'i nazar, ota-onasi puldor bola gapirishi kerak. Chunki unga aynan o'sha ko'p miqdorli moddiyat kuch berib turadi. Jamiyat a'zolarining aksariyati esa pul kuchini tengsiz deb hisoblaydilar.

Kambag'al so'zi ko'pincha salbiy, achinish, kamsitish ohangidagi iboralarda uchraydi: *Kambag'alning qo'li yetmaydi, Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi, Qo'li yupqa*. Ushbu birliklar mol-mulki va puli kam odamlarni yanada kamsitib, boylardan past ko'rib, tabaqalanishni yanada kuchaytirishga bevosita xizmat qiladi, suhbat jarayonida tinglovchining ma'lum shaxs haqidagi tasavvurini nochorlik tomon yo'naltiradi. Birgina *Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi* maqolida puli yo'q odam hatto tuyaning ustida, ya'ni balandda tursa-da, puli yo'qligi uchun it ham uni mensimay tashlanaveradi degan qo'pol mazmun bor.

Jamiyat a'zolarini boy va kambag'alga bo'lish hatto ijtimoiy tarmoqlarda ham kuzatilmoqda. "TikTok", "Instagram", "YouTube", "Facebook" kabi platformalar pulga oid qarashlarning eng faol shakllanish maydoniga aylangani bois, ularda boylikni namoyish qilish, kambag'allik ustidan kulish yoki uni romantik uslubda tasvirlash (yaxshi tomonga ko'rsatish) tez-tez uchraydi. Bu holatlar tilda yangi vulgarizm, internet-mem va iboralarning paydo bo'lishi va urfga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, *Boy bo'lmasang, gapirma; Naqd yo'qmi, unda do'stlik ham yo'q; Telefonning iPhone bo'lmasa, sen kim bo'lasan?; Boylar bozorga borishmaydi, brend do'konga borishadi* kabi jumalar hayotiy faktlar bilan emas, balki istehzo va ijtimoiy bosim asosida shakllangan bo'lsa-da, til orqali kuchli ijtimoiy taassurot uyg'otadi.

Media vositalari, ayniqsa blogerlar va "influencer" (ijtimoiy tarmoqlarda ta'sir doirasiga ega shaxs)lar orqali boylikka sig'inish (kult) va uni hayotiy maqsad sifatida qabul qilish odati keng tarqalmoqda. Bu esa yosh avlod ongida "boy bo'lish – baxtli bo'lish" degan noto'g'ri ijtimoiy tushunchani shakllantirmoqda. Kambag'allik sadoqat, shukrli hayot timsoli sifatida ko'rsatiladi, lekin bu aslida real iqtisodiy vaziyat yoki tengsizlikni yashirishga xizmat qiladi. Internet-frazeologizmlar, kulgili post va qisqa videolarda *Pul topolmaydigan odam – odam emas, Qarzda*

yashash bu “norma”, Boy bilan uchrashsang – hayoting o'zgaradi kabi ijtimoiy norozilik, hasad, orzu, bosimni ifodalovchi zamonaviy vulgarizmlar ko'paydi. Bu holat tilshunoslar uchun ham, sotsiologlar uchun ham muhim tahlil manbayiga aylana oldi.

Pul – iflos narsa, Pulga sotilgan, Faqat pulni o'ylaydi kabi pul bilan bog'liq vulgarizmlar ko'pincha oddiy xalq orasidagi norozilik, achchiq kinoya yoki umidsizlikni ifodalaydi. Ular aholi orasida pulning o'zgaruvchan tezlikda qadriyat yoki buzuvchi manbayi sifatida qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Bu turdagi ifodalar odatda quyi ijtimoiy qatlam vakillarining tilida ko'proq uchraydi, chunki ular iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik va imkoniyatlar cheklanganini til orqali ifodalashga ehtiyoj sezadilar. Masalan, *Pul bo'lmasa, odamning gapi o'tmaydi, Boyga qonun emas, pul ishlaydi, Qornini pul bilan to'ldirib bo'lmaydi* kabi vulgarizmlar pul sababli jamiyatda kuch, obro' va hurmat qanday taqsimlanganini ko'rsatadi. Vulgarizm sifatida ishlatiladigan bu iboralar oddiy so'zlashuv jarayonlarida shakllanadi, biroq zamirida chuqur psixologik va ijtimoiy ma'no yotadi. Shuningdek, ular orqali boylikka nisbatan qiziqish, hasad, kinoya, ba'zan nafrat yoki o'zini himoya qilish mexanizmi seziladi. *Hammasi bo'lsa-da, ko'ngli to'q emas, Qop-qop puli bor-u, insof degan narsa yo'q* kabi kambag'allikni oqlovchi yoki boylikni mazax qiluvchi iboralar orqali esa jamiyatda shakllangan iqtisodiy ziddiyatlar tilga ko'chgan.

Ijtimoiy identifikatsiya jarayonida stereotiplar ham muhim rol o'ynaydi. Lingvistik stereotiplar ma'lum bir til yoki dialektga ega bo'lgan shaxslar haqidagi barqaror va umumlashtirilgan tasavvurlar bo'lib, ular ijtimoiy guruhlar, millatlar yoki etnik guruhlariga nisbatan oldindan shakllangan

baholarni o'z ichiga oladi (Bourdieu, 1991; Fishman, 1977). Ushbu stereotiplar talaffuz, ohang, grammatik me'yor va lug'at boyligi kabi lingvistik belgilar asosida shakllanadi (Labov, 1972) [4]. Shu bois, stereotiplar insonlarga nisbatan munosabatni chegaralaydi yoki ularning noto'g'ri baholanishiga olib keladi. Chunki mavjud tasavvurlar doim ham haqiqatga mos kelmasligi mumkin. Jumladan, odatda boy tabaqa vakillari manfaatparast, “qo'li kaltalar” ustidan kuluvchi, sadoqatni pul bilan o'lchovchi sifatida tasvirlansa, kambag'allar odamgarchiligi bor, ko'ngli to'q, sabrli kabi ijobiy sifatlarga ega insonlar sifatida ko'rsatiladi. Shu tariqa, til orqali jamiyat o'zining etik me'yorlarini, ijtimoiy qadriyatlarini belgilaydi. Biroq buni mutlaq to'g'ri ma'lumot yoki qarash emas. Chunki barcha boylar yoki kambag'allarning tabiati bu ta'riflarga mos tushavermaydi.

Pul va uning atrofiga shakllanayotgan til birliklari, xususan, vulgarizmlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va sinfiy tafovutlarning yaqqol ifodasidir. “Boy” va “kambag'al” tushunchalari atrofiga shakllangan, so'zlashuv uslubiga xos ifoda, metaforik ibora va vulgarizm xarakteridagi birliklarda jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish aks etadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralganda, bu holatlar sotsiolingvistikaning asosiy obyektlaridan biri bo'lib, jamiyatdagi real ijtimoiy holatlarning tilga qanday ko'chishini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu yo'nalishni chuqurroq o'rganish va yangi tadqiqotlar olib borish orqali tilning jamiyatdagi rolini yanada teranroq ochib berish, ijtimoiy tabaqalanish va tengsizlikka qarshi turgan lingvistik vositalarini esa kengroq o'rganish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiyeva D., Axmedov B. Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari. – Andijon, 2021.
2. Ijtimoiy tabaqalanish nazariyalari. Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy harakatchanlikning turlari va kanallari. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/sotsiologiya/ijtimoiy-tabaqalanish-nazariyalari-zamonaviy-jamiyatdagi-ijtimoiy-harakatchanlikning-turlari-va-kanallari>.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
4. Sayibova Z. Lingvistik stereotiplarning nazariy asoslari va tipologik tasnifi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogik universiteti, 2025.

Zamira ABDUJABBAROVA,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
xorijiy tillar fakulteti professori*

LISONIY-KOGNITIV YONDASHUVLAR: RAQAMLI DAVR KONTEKSTIDA MADANIY KODLAR VA SEMANTIKA

Annotatsiya. Maqola o'zbek tili misolida matnning semantik va pragmatik qatlamlarini aniqlash, madaniy kodlarni ochib berish hamda raqamli texnologiyalar yordamida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan. Unda globallashuv va raqamli davr sharoitida matn tahlilining lingvistik-kognitiv yondashuvlar asosida rivojlanishi, shuningdek, tilning madaniy va kognitiv jarayonlarni aks ettirishdagi o'zni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: matn tahlili, lisoniy-kognitiv yondashuv, globallashuv, raqamli texnologiyalar, O'zbek tili, semantika, pragmatika, madaniy kodlar.

Annotation. The article is devoted to identifying the semantic and pragmatic layers of the text based on Uzbek language material, revealing cultural codes, and developing new approaches using digital technologies. It analyzes the development of text analysis based on linguocognitive approaches in the context of globalization and the digital age, the role of language in reflecting cultural and cognitive processes.

Keywords: text analysis, linguistic-cognitive approach, globalization, digital technologies, Uzbek language, semantics, pragmatics, cultural codes.

Аннотация. Статья посвящена выявлению семантических и прагматических слоёв текста на материале узбекского языка, раскрытию культурных кодов и разработке новых подходов с использованием цифровых технологий. В ней анализируется развитие текстового анализа на основе лингвокогнитивных подходов в условиях глобализации и цифровой эпохи, а также роль языка в отражении культурных и когнитивных процессов.

Ключевые слова: текстовый анализ, лингвистико-когнитивный подход, глобализация, цифровые технологии, узбекский язык, семантика, прагматика, культурные коды.

Globallashuv va raqamli davrda tilning ahamiyati keskin oshib, matn tahlili sohasida innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar matnlar orqali ijtimoiy, madaniy va kognitiv jarayonlarni chuqurroq tushunish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Lisoniy-kognitiv yondashuv esa til tuzilmalarini faqatgina lingvistik birliklar sifatida emas, balki inson tafakkurining shakllanishi va axborotni kodlash jarayonidagi vosita sifatida o'rganishga imkon beradi. Mazkur maqola globallashuv sharoitida matn tahlilida lisoniy-kognitiv yondashuvning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. O'zbek tili materiallari hamda xalqaro tadqiqotlardan foydalanib, matn tahlilining yangi imkoniyatlari ochib beriladi.

Lisoniy-kognitiv yondashuv tilshunoslikda til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan yo'nalish bo'lib, tilning inson tafakkuridagi o'rne va rolini tahlil qiladi. Ushbu yondashuvda til nafaqat muloqot vositasi, balki insonning dunyoqarashi, idroki va fikrlash jarayonlarini aks ettiruvchi tizim sifatida qaraladi. Raqamli davr esa axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, matnlarning yaratilishi, tarqatilishi va qabul qilinishida yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli platformalarda imoishora, mimika, intonatsiya kabi ekstralingvistik vositalar mavjud bo'lmasa-da, ular emoji, GIF, video va boshqa vizual vositalar orqali ifodalangan. Ushbu vositalar muloqotda axborotni yanada aniq va samarali yetkazishda muhim rol o'ynaydi [3].

Lisoniy-kognitiv tahlil matnlarni nafaqat til sathida, balki inson tafakkuri va idroki nuqtayi nazaridan ham o'rganadi. Bu yondashuv matnlarning:

- semantik (ma'no) tuzilishini;
- pragmatik (maqsadga yo'naltirilgan) xususiyatlarini;
- kognitiv (fikrlash va idrok) jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Raqamli davrda matnlar tez va keng tarqaladi. Lisoniy-kognitiv tahlil bu jarayonni tushunishda yordam beradi, chunki u til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Shuningdek, lisoniy-kognitiv tahlil konseptlarning shakllanishini va ularning til orqali qanday ifodalanganini o'rganadi. Bu, ayniqsa, raqamli davrda yangi konseptlarning paydo bo'lishini tushunishda muhimdir [2]. Madaniyatlararo muloqotda lisoniy-kognitiv tahlilning roli katta, chunki u til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Raqamli platformalarda turli madaniyatlar

o'rtasida muloqot kuchayadi. Lisoniy-kognitiv tahlil bu aloqalarni tushunishda yordam beradi, chunki u til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Tahlil jarayonida lisoniy birliklarning kognitiv strukturaga ta'siri, matnlarning ma'no darajalari va madaniy kodlari tahlil qilindi. Maxsus dasturlar yordamida matnlar semantik va pragmatik jihatdan o'rganildi [5].

1. Lisoniy-kognitiv yondashuvning matn tahlilidagi roli

Lisoniy-kognitiv yondashuv matn tahlilida semantik va pragmatik qatlamlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan:

- Semantik tuzilma: O'zbek tilidagi sinonimlar va ko'p ma'noli so'zlar turli kontekstlarda turlicha ma'no anglatadi. Misol uchun, "yorug'" so'zi "nurli", "ravshan", "umidli" kabi ma'nolarni aks ettirishi mumkin.
- Pragmatik qatlam: matnlardagi illokutsiya (maqsad) va perlokutsiya (ta'sir) tahlili, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar orqali samarali amalga oshiriladi.

2. Globallashuv sharoitida til tizimlarining o'zgarishi

Raqamli platformalarda tillarning o'zaro ta'siri kuchaymoqda. Misol uchun:

- O'zbek tilida xorijiy so'zlarning keng qo'llanilishi, masalan, "trend", "kontent", "digital" kabi atamalar matn madaniyati va tahliliga yangi qirralar qo'shmoqda.
- Matnlarni global kontekstda tahlil qilishda kognitiv yondashuv madaniy va ijtimoiy nuanslar (nozik jihatlar) ni ochib beradi.

3. O'zbek tili matnlarini kognitiv yondashuv bilan tahlil qilish

O'zbek tilidagi matnlarni kognitiv yondashuv asosida o'rganish quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Madaniy semantika: o'zbek tilidagi metaforalar (masalan, "oq yo'l") nafaqat til, balki madaniyatni ham aks ettiradi.
- Til va tafakkur uyg'unligi: p'zbek tilida fazoviy tushunchalar ko'p hollarda ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda ifodalangani. Misol uchun, "Qo'l berib yordam berish" iborasi.

Globallashuv va raqamli davrda matn tahlili faqatgina lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bilan cheklanmaydi, balki ular orqali ijtimoiy va kognitiv jarayonlarni ham tahlil qiladi. Lisoniy-kognitiv yondashuv bu jarayonni chuqurroq va kengroq talqin qilishga imkon beradi [4].

1. Ta'limda qo'llanishi: matn tahlili orqali chet tilini o'rgatishda kognitiv yondashuv samarali vosita bo'lishi mumkin.

2. Raqamli vositalar: NLP algoritmlari yordamida matnlarni avtomatik tahlil qilishda kognitiv yondashuvning foydaliligi ortib bormoqda.

3. Madaniyatshunoslikdagi ahamiyati: matnlar orqali madaniy kodlarni ochib berish, o'zbek tilining global maydondagi o'rnini belgilashda muhimdir [1].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, globallashuv va raqamli davrda matn tahlilida lisoniy-kognitiv

yondashuvning ahamiyati beqiyos. Ushbu yondashuv nafaqat lingvistik birliklarni, balki ular orqali shakllangan madaniy va kognitiv jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. O'zbek tili matnlarini bu nuqtayi nazardan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va ta'lim sohalariga ham ulkan foyda keltiradi. Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalari va korpus lingvistika vositalarini keng qo'llab, lisoniy-kognitiv yondashuv asosida tilning turli qirralarini tadqiq qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova M. O'zbek tilida metafora va ramziy ma'no. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Alimova M. Semantik nazariyalar tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2023.
3. Mahmudov N. Til va tafakkur uyg'unligi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
4. Xudoyberganova D. Raqamli lingvistika va o'zbek tili. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, 2021.
5. Yo'ldoshev B. O'zbek tilining kognitiv lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Sharq, 2018.

Ozoda YUSUPOVA,

*Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi
ona tili va adabiyot fani metodisti*

RAUF MUZAFFARZODA MAQOLALARIDA MADANIYAT VA MA'RIFAT, TA'LIM-TARBIYA MAVZULARINING YORITILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Sadoyi Turkiston" gazetasining faol muharriri Rauf Muzaffarzoda faoliyati, taqdiri, ilmiy merosini o'rganish jadid matbuotining ochilmagan qirralarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr bildirilgan bo'lib, muharrirning ushbu gazetada nashr qilingan, madaniyat va ma'rifat taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini tahlil qilishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: milliy matbuot, ta'lim, tarbiya, millat, taraqqiyot, yoshlar, ziyolilar.

Annotation. This article presents reflections on the significance of studying the activities, fate, and scholarly legacy of Rauf Muzaffarzoda, an active editor of the "Sadoyi Turkiston" newspaper, in uncovering unexplored aspects of the Jadid press. We attempt to analyze the editor's views on the development of culture and enlightenment, as well as his perspectives on education and upbringing, as reflected in the articles published in this newspaper.

Keywords: national press, education, upbringing, nation, development, youth, intellectuals.

Аннотация. В статье изложены размышления о важности изучения деятельности, судьбы и научного наследия активного редактора газеты «Садойи Туркистон» Рауфа Музаффарзоды для раскрытия неизученных сторон джадидской прессы. Мы попытались проанализировать взгляды редактора на развитие культуры и просвещения, а также его размышления о воспитании и образовании, отраженные в публикациях этой газеты.

Ключевые слова: национальная пресса, образование, воспитание, нация, развитие, молодежь, интеллигенция.

1914-yili Turkistonda bir vaqtning o'zida ikkita milliy gazeta – "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona"ning yo'lga qo'yilishi xalq ijtimoiy hayotida muhim voqea bo'ldi. Bu nashrlar o'z davri uchun dolzarb bo'lgan mavzularni yoritib, xalq dunyoqarashining kengayishiga katta yordam berdi. Ayniqsa, yo'nalishini siyosatdan yiroq, ma'rifiy deb belgilagan, amalda esa Turkiston ahlining huquq va erkinliklari uchun kurashgan "Sadoyi Turkiston" istiqbol fidoyilarining chinakam minbariga aylandi. Gazeta sahifalarida yurtga jonini fido etgan buyuk ajdodlarimiz xizmati, tafakkur dunyosi muhrlanib qoldi.

Ko'plab turkistonlik taraqqiyparvarlar qatorida Rauf Muzaffarzoda ham zamondoshlarining ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishga, ularni jamiyatdagi kamchiliklarni ilg'ash, ko'rish va bartaraf etishga chaqirgan. Bu borada matbuot uning uchun muhim minbar vazifasini o'tagan. Millati

tatar bo'lgan Rauf Muzaffarov taqdir taqozosiga ko'ra 1914-yilning boshlarida Turkistonga kelib, shu yerdan panoh topgan. "Sadoyi Turkiston" tahririyatiga ishga kelgan paytida endigina 25 bahrni qarshilagan navqiron yigit bo'lgan. Yosh bo'lishiga qaramay, tahririyat kotibi zimmasidagi barcha yumushlarni bajarish bilan birga jurnalist sifatida ham faoliyat yuritdi. "Sadoyi Turkiston"ning 10-sonidan boshlab deyarli har bir sonida "Rauf Muzaffarzoda", "A. Muzaffarov" imzolari bilan maqolalari nashr qilingan. Ularning soni 40 dan ortiq. Aksariyati Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma'rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg'urish kabi mavzularga bag'ishlangan. Uning orzusi Turkiston xalqini tanazzuldan chiqarish, ilg'or xalqlar qatorida ko'rish, xalqining milliy madaniyatini dunyo ommasiga tanitish edi. Shuning uchun dadil iboralar bilan millatni birlashishga, ilm egallashga, jahon xalqlari

taraqqiyotidan andoza olishga chorlaydi. Millat, madaniyat, milliy matbuot, din, maorif, tabiat, til va imlo masalalariga ham alohida ahamiyat qaratadi. “Din va uning ahamiyati”, “Til va din”, “Qo‘rqinchli natijalar”, “Din va millat” (3-qism) kabi maqolalarida islom dinining ahamiyati haqida fikr yuritib, “Bizda ziyolilar va milliy matbuot”, “Madaniyat nardboni”, “Milliy hayot va Turkiston musulmonlari”, “Maorif manbalarimiz” (3-qism), “Yangi yildan eski tilaklar” (ijtimoiy), “Tarbiyaga ahamiyat bermabmiz”, “Taraqqiy yo‘linda”, “Mustaqil insonlar”, “Til va imlo masalasi” kabi maqolalarida milliy matbuot, madaniyat, ta‘lim-tarbiya, til va imlo, Vatan taraqqiyoti kabi dolzarb masalalar muammosiga yechim izlaydi.

“Milliy hayot va Turkiston musulmonlari” sarlavhali maqola Rauf Muzaffarzodaning eng muhim publitsistik asarlaridan biri bo‘lib, unda muallif Turkiston xalqining qoloqligi dinga, matbuotga, teatr va kutubxonaga bo‘lgan munosabatida ekanini ochib beradi: “Agar islom dunyosida bo‘lgan hamma ta’sifli hollarni yozmoqchi bo‘lsak, yer yuzi qog‘oz bo‘lsa ham sig‘dirolmasmiz. Bizim Turkiston aholisining ham milliy va diniy islohotga, xususan, matbuotga bo‘lgon nazarlari va qo‘llagan muomalalari shul zikr qiling‘onlardan oshig‘ bir tarzda bo‘lmasa, albatta, kam emas. O‘n million qadar nufusli ulug‘ bir millatda jaholat o‘qlarining bergan iztirob va alamlaridan ojiz qolib, kerak so‘zlarini ham ayta olmaydurg‘on ikki “Sado” ila bir “Oyina”ning ajal to‘shaklarida ingranib yotuvlari bu millatda qancha ta’sib va jaholat hukm surg‘onini shoyad ko‘rsatsa kerak” [1]. Muallif milliy matbuot haqida noto‘g‘ri fikrda bo‘lganlarga uning vazifalarini ham eslatadi: “Bizim o‘ylag‘animiz kabi millatning taraqqiy va taoliysiga xizmat qiladurg‘on jarida va majallalar turli xabarlar yozmak uchungina nashr qilinmay, balki millatda bo‘lg‘on butun qusurlarni va daxshatli hollarni maydong‘a qo‘yib, bularni biturmak va har xususda zamong‘a muvofiq islohot choralarin ko‘rmak uchun nashr qilinadirlar. Milliy matbuotning bu birinchi vazifasidir. Aning bu huquqig‘a tajovuz qilmag‘a hech kimning haqqi yo‘qdir... Umumiy ifodalar ila xususiy amlarga doru solmak milliy matbuot vazifasi ekanligi boshida zar qadargina aqli bor kishigacha ma‘lum bir haqiqat bo‘lsa ham, nima sababdandir turkistonlilar matbuotga bundog‘ haqiqiy bo‘lg‘on nuqtadan qaramaydirlar” [1].

“Bizda ziyolilar va milliy matbuot” maqolasida Rauf Muzaffarzoda ona tili va milliy matbuotsiz hech bir xalq taraqqiy eta olmasligini, ammo yurtda matbuotga munosabat achinarli ahvolda ekanini ma‘lum qiladi: “Shul vaqtlarda “Taraqqiy”dan so‘ng bir necha jaridalar nashr qiluna boshlab, sevilla boshlanmasdan ilgari vafot bo‘lub edilar. Agar bularning qabrlarini bir o‘ring‘a yig‘sak shubhasiz katta bir mozorlik hosil bo‘lur. Bechoralar nima uchun bunday talaf bo‘ldilar? Sababi juda ma‘lum: moddiy va ma‘naviy jihatlari ta‘min qilinmadi. Boylarimiz himoya va yordam etmadilar, muharrirlar yozmadilar, xalq o‘qumadi. Bas to‘qtadilar” [2]. Rauf Muzaffarzoda xalq ma‘naviyatini yuksaltirish, bilimini oshirishni taraqqiyotga erishishning

eng muhim omili deb hisoblaydi. Bu o‘rinda milliy matbuotni ham yetakchi vosita deb biladi: “Millatda himmat ahllari va ziyolilar ko‘payturmak uchun ikki yo‘l bor: biri milliy matbuotni taraqqiy etdurmak, ikkinchisi yoshlarimizni muntazam ilm uylarig‘a kirgizmakdur. O‘zimizning diniy madrasalarimizda bir necha sanalar tahsil etgan yoshlarimizni ahvoli madaniya ila tanishdursak va zamon ila ko‘rishdursak, albatta, o‘zlarini isloh va takmil etmakg‘a g‘ayrat qila boshlarlar. Va oz muddat ichida kamolot kasb etib har tarafdin millatlarining taraqqiy va tamaddunig‘a g‘ayrat etar edilar” [2].

“Sadoyi Turkiston” gazetasining 48-sonida bosilgan “Mustaqil insonlar” maqolasida muallif ta‘lim-tarbiyaning inson hayotidagi o‘rnini quyidagicha ta‘riflaydi: “Inson asosli bir tarbiya va ta‘lim ko‘rmasa va nuqsonlarini ulum va funun sharti iqtizosincha isloh va takmil etmasa, anda asosli bir nuqtada sabot va xorijiy ta’sirlarg‘a maqovamat xossasi tavallud topmas. Ul kishi xayolig‘a kelgon asossiz va bir-biriga muxolif har bir fikrni so‘ylamakdan va yozmakdan hatto e’tiqod etmakdan tortunmas. Insonni bu razolatka soladurg‘on narsa ul kishida ruhni ulviyat va kamolotg‘a yetishduruvchi, ya’ni bunga mutaalliq jumlai ulum va fununning yo‘qlig‘idir. Shuning uchundurki har yerda insonning qiymati aning mezonini bo‘lub mezonini esa aning so‘zi, yozuvi va amalidir” [3].

“Din, millat milliyat ila qoimdur” maqolasida xalqning bu masalaga bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlarini tahlil qilib, ta‘lim imkoniyatlariga urg‘u beradi: “Musulmonlar burundan beri ta‘lim va tarbiya yo‘llarida yanglishib keldilar. Bung‘acha bizda ilm deb arab tili ila ulumi diniyagagina itloq qilinur edi. Aql va fikrni o‘sduradurg‘on funun va ulum dunyoda bormi, yo‘qmi, aqlni o‘sdurmak va quvvai fikriyani ochmak kerakli ishmi? Bu ishlar mumkinmi? Va nima uchun zarur? Maktab va madrasalarning anvo‘iy, madaniyati hoziraga mansub har turli asarlar vahosil umuman madaniyat dunyosi bizlarga majhul aqlar nihoyatda tor va kichik ramkalar ila mahdud edi. Shuning uchun bu kung‘acha bizda taraddud va taajjub davri davom etdi. Asrimizdagi tabiat va madaniyat mevalarin ko‘rub biz har vaqtda taajjub etmakda va bu ishlarning inson, xususan bir musulmon qo‘lidan chiqub chiqmasligig‘a taraddud ko‘rsatmakda edik” [4]. Muallif ushbu maqolada, eng avvalo, maktablarni isloh etib, ta‘lim-tarbiya o‘chog‘iga aylantirish hamda darsliklarni mukammalashtirish zarurligini ta’kidlaydi: “Mukammal bir jarida yo majallamiz bo‘lmagani kabi ilm ruhi va tarbiya asosig‘a qurilgon va har jihatdan mukammal birgina bo‘lsun ibtidoiy maktabimiz ham yo‘qdur. Maktablarni matlub bir holg‘a qo‘yar uchun maktab kitoblari pidag‘ug‘ va tarbiya mutaxassislari tarafidan yozilmak va muallimlar usuli ta‘lim va tarbiya olimlari qo‘linda hozirlangan bo‘lmaki lozimdur. Shul vaqtdag‘ina: (dars kitoblarimiz bor) deb aytmak mumkin bo‘lur” [4].

“Tarbiyaga ahamiyat bermaymiz” maqolasida otalarni hushyorlikka chaqirib, tobora o‘zgarib borayotgan bu zamonda ilm-hunarsiz yashab bo‘lmaslikni, boshqa millatlar qatori madaniyat yo‘lidan borish lozimligini

ta'kidlaydi: "Endi ey otalar! Fursat kundan kun o'tmakdadur. Bolalarimizning aziz umrlari, qimmatli daqiqalari har lahzada mahv bo'lub turadir. Hozirgacha biz Turkistonimizda hech narsa sezmasdan va bilmasdan tinchg'ina yotdiq. O'qumadik. Bilmadik. Shundog' bo'lsa ham rohat va tinch yashadik. Endi hollar boshqalarday avvalgi boyliklar bitdi. Hozirgi kunda qandayg'ina kasbg'a kirishmakchi bo'lsang ham ilm va ma'rifatg'a ehtiyoj tushadir. Shuning uchun biz turkistonliklarga ham boshqa millatlar ketgon madaniyat yo'lig'a qadam qo'ymak lozim edi" [5].

Jadid ma'rifatparvarlari vaqtli matbuot orqali o'lkadagi maorifning haqiqiy ahvoli yuzasidan jamoatchilikka to'g'ri va yorqin tasavvur berishga harakat qiladi. "Sadoyi Turkiston"ning deyarli barcha sonlarida ta'lim ahvoli, muammo va yechimlar o'rin olgan. Bularga Mo'minjon Muhammadjonovning "Bizda muallimlar" va "Eski maktablar turmushidan", "Maktab do'sti" taxallusli muallifning "Turkiston maktablari", Muhammadrasul Rasuliyning "Bizda o'quv va o'qituv", Xolid Saidning "Jim o'tir, juvonmarg, gapurma xaromi!", Salohiddin Muftizodaning "Ulamolarimizga", Nushiravon Yovushevning "Maktab va muallimlarimiz", Mahmud Bediliyning "Musulmonlar hayotidan bir lavha", Karim Norbek o'g'lining "Bizim yoshlarga milliy tarbiya" kabi maqolalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Arxitektura jurnallaridagi maqolalar. Bunday maqolalar (*Architectural Digest*, *Dezeen*, *ArchDaily* va boshqalar) zamonaviy dizayn yo'nalishlari, innovatsion g'oyalar, mashhur me'morlarning yondashuvlari va ilg'or loyihalar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Talabalar bu turdagi matnlar orqali kasbiy tendensiyalarni kuzatadi, estetik qarashlarini rivojlantiradi va zamonaviy me'moriy til bilan tanishadi [4: 2417]. Texnik hujjatlar, qurilish kodekslari, ISO standartlari va normativ hujjatlar arxitektura sohasining muhim komponentlaridan biridir. Ular o'quvchilarga kasbiy terminologiyani chuqur o'zlashtirish, huquqiy-me'yoriy asoslarni anglash va texnik tilni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Loyiha tavsiflari va texnik topshiriqlar. Haqiqiy loyiha hujjatlari va texnik tavsiflar bilan ishlash o'quvchilarning mustaqil tahliliy fikrlashini rivojlantiradi. Bu matnlar talabalarda amaliyotga tayyorlikni kuchaytiradi, loyiha hujjatlarining tuzilmasi va mazmuni bilan ularni tanishtiradi hamda kasbiy mas'uliyatni his qilishni o'rgatadi. Arxitektura sohasida yetakchi mutaxassislar bilan o'tkazilgan intervyular, podcast va suhbatlar ham yoshlar uchun motivatsion ahamiyatga ega. Bu matnlar orqali talabalar me'morning kasbiy yo'li, qarashlari va tajribalari bilan tanishib, o'z kasbiy maqsadlarini aniq belgilab olish imkoniga ega bo'ladi. Raqamli platformalarda chiqadigan texnologik yangiliklar, qurilish materiallari, 3D model va simulyatsiyalar haqidagi maqolalar talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtiradi.

Arxitektura yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kasbiy tilni o'zlashtirishda va sohaga oid zamonaviy bilimlarni egallashda **arxitektura jurnallaridagi autentik**

maqolalar muhim o'quv manbalaridan biri hisoblanadi. Bunday maqolalar, jumladan, "Architectural Digest", "Dezeen", "ArchDaily", "Domus" kabi nufuzli jurnallarda chop etilgan materiallar, zamonaviy me'morchilik tendensiyalari, innovatsion dizayn g'oyalari, global arxitektura loyihalari hamda yetuk me'morlar faoliyati bilan tanishtiradi. Mazkur matnlar orqali talabalar real professional muhitga yaqinlashadi, sohaga oid atamalarni kontekstda o'rganadi va arxitektura madaniyatini tahlil qilishga imkon topadi.

Bu kabi jurnallardagi matnlar ko'pincha ingliz tilida va yuqori saviyada yozilgan bo'lib, o'ziga xos kasbiy uslub, estetik ta'riflar va madaniy konnotatsiyalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ular o'quvchilarni **kompleks til kompetensiyalarini rivojlantirishga**, ya'ni o'qish, tahlil va muloqot qilish, sharhlash kabi ko'nikmalarni chuqurlashtirishga undaydi. Shuningdek, maqolalarning vizual materiallar (chizmalar, reja-maketlar, suratlar) bilan boyitilgani talabalar uchun **fazoviy tafakkurni rivojlantirish va tasviriy matnni anglash** bo'yicha ham muhim didaktik imkoniyatlar yaratadi [3: 149].

Qayd etish joizki, bunday matnlar bilan ishlash nafaqat akademik maqsadlarda, balki kasbiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, me'moriy-estetik tafakkurni shakllantirish hamda ijodiy va tanqidiy qarashlarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham foydali. Shuning uchun arxitekturaga oid jurnallarda chop etilgan maqolalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilar uchun til o'rganish va kasbiy o'zlikni anglashda samarali vositadir. Qoplasaversa, autentik matnlar bilan ishlash ularda amaliyotga tayyorgarlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, kasbga qiziqish, chet tilini o'rganishga ehtiyoj kabi motivatsion holatlarni hamkuchaydi.

Xulosa qilganda, arxitektura sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun autentik matnlar nafaqat til o'rganish vositasi, balki kasbiy bilimlarni mustahkamlovchi va o'quv motivatsiyasini oshiruvchi kuchli manbadir. Mazkur matnlar orqali ular kasbiy terminologiyani o'zlashtiradi, real loyihalar ustida ishlashga tayyorlanadi, mustaqil fikr yuritish, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu boisdan, autentik matnlardan maqsadli va metodik asoslangan tarzda foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Носонович Е.В., Мильруд Р.П. Параметры аутентичного учебного текста // Иностранные языки в школе, 1999. №1, 18–23.
2. Avilova N.X. Chet tili o'rganuvchilarda autentik matnlar o'qish orqali ijodiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish. // Journal of Universal Science Research, 2025, 3(2), 266–270. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/10300>
3. Solijonova M. Autentik materiallarning ingliz tilini o'qitishdagi samaradorligi. // Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2024, 1(9), 146–150. <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58793>.
4. Abdalimova Z.Z., Muxitdinova X.S. Methods of practical application of authentic materials in learning English. // Science and Innovation International Scientific Journal, 2022, pp. 2416–2422. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7483058>

Maftunaxon AKBAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

RABINDRANAT TAGORNING “SHUBXA” HIKOYASINI O'QITISHDA “BLUM TAKSONOMIYASI” DAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rabindranat Tagorning “Shubxa” hikoyasini maktab o'quvchilariga adabiyot darslarida o'qitishda o'quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida “Blum taksonomiyasi” asosidagi yondashuv asoslab beriladi. Maqolada ta'limiy maqsadlar pog'onalari, o'quvchilarning fikrlash darajalarini rivojlantirish usullari va dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: “Blum taksonomiyasi”, “Shubxa” hikoyasi, maktab ta'limi, bosh qahramon, asosiy g'oya, asar tahlili.

Annotation. This article discusses an approach based on Bloom's taxonomy for effectively organizing the educational process when teaching school students Rabindranath Thakur's story “Shubxa.” The article highlights the levels of educational objectives, methods for developing students' thinking skills, and methodological recommendations that can be applied during the lesson.

Keywords: “Bloom's taxonomy”, “Shubha” short story, school education, main character, main idea, literary analysis.

Annotation. This article explores linguodidactic advantages and practical applications of multi-method approach in teaching English in general education schools. It substantiates the effectiveness of integrating various methods (communicative, audiolingual, task-based, CLIL, etc.) to enhance learners' language competence. The study supports the relevance of integrative methodology based on both international and Uzbek scholarly perspectives.

Keywords: multi-method approach, English language, linguodidactics, general education school, language competence

Аннотация. В данной статье рассматривается подход, основанный на таксономии Блума, для эффективной организации учебного процесса при обучении школьников рассказу Рабиндраната Тагора «Шубха». В статье освещаются уровни образовательных целей, методы развития мыслительных способностей учащихся и методические рекомендации, которые могут быть применены в процессе урока.

Ключевые слова: “Таксономия Блума”, рассказ «Шубха», школьное образование, главный герой, основная идея, литературный анализ.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchining nafaqat bilim olishini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash, o'z fikrini asoslab berish va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Shu bois o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar va nazariyalarni tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. “Blum taksonomiyasi” ta'limiy maqsadlarni aniq va tizimli belgilash va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beruvchi samarali nazariy tizimdir [2: 59]. Ushbu maqolada Rabindranat Tagorning “Shubxa” hikoyasini o'qitishda aynan shu yondashuv asosida darsni tashkil etish usullari tahlil qilinadi.

Rabindranat Tagor insoniyat mohiyatini ochib berishga butun hayotini bag'ishlagan adibdir. Uning asarlari inson ruhining nozik kechinmalari va jamiyatdagi mavjud illatlarni fosh etadi [3: 352]. “Shubxa” hikoyasida ham muallif jamiyatning imkoniyati cheklangan insonlarga bo'lgan past nazarini va ularning hayotdagi o'рни qay darajada qadrlanmasligini ochib beradi. Bu hikoya bosh qahramon Shubxashini, ya'ni Shubxa ismli qiz haqida bo'lib, u tug'ma soqov. Atrofdagilar uni jimligidan uni tuyg'usiz, hayotiy ehtiyojlardan mahrumdek qabul qilishadi [4: 59]. Asar davomida muallif jamiyatning bunday insonlarga achinish yoki ularni og'ir yukdek qabul qilish kabi munosabatlarini ochib beradi. Shubxaning dardi va sukunati tabiat ovozlari va atrofdagi manzaralar bilan bog'lanadi. U qushlarning sayrash, daryo shovqini va daraxtlarning shitir-shitirini yurak ohangi bilan tinglaydi. Shubxa uchun bu tabiat tovushlari o'ziga xos til bo'lib, uning dunyosi shulardan iborat. R.Tagor badiiy iste'dod bilan personajlarga ramziy ma'no yuklaydi. Masalan, “Shubxashini” nomi hind tilida

“yoqimli so'zlovchi” degani, ammo asar qahramoni aslida butunlay soqov. Bu ismning o'zi hikoyaga kuchli istehzo baxsh etadi. Shuningdek, otasi katta qizlarining ismiga shunchaki ohangdosh bo'lgani uchungina shu ismni tanlagani ham hikoya boshida tilga olingani bejiz emas. Uning ikki sigiri Sharbashi va Panguli ham ramziy nomlar bo'lib, biri “barcha tildan xabardor” degan ma'noni anglatadi. Shubxa insonlardan ko'ra atrofdagi hayvonlar bilan yaxshi muloqot qiladi. U so'zlar bilan emas, mehr va ishoralar bilan fikrini ifodalaydi. Hayvonlar esa uning bu ishoralarini odamlardan ko'ra yaxshiroq anglaydi.

Muallif qiz bolalar va ayniqsa nogiron bolalarning oila va jamiyatda tutgan o'rnini tanqid qiladi. Afsuski, ularni asosan turmushga berish va obro' saqlash vositasi sifatida ko'rishadi. Shubxaning ota-onasi ham uni “og'ir yuk” deb bilishadi va qizini Kalkutta shahriga olib borib, uni boy odamga uzatmoqchi bo'lishadi. Kuyov kelib, uni tekshirib ko'radi va faqat ko'z yoshlariga qarab: “Yomon emas”, – deydi. Ya'ni qizning yuragi yumshoqligi turmushda foydali bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Shubxa hech kimga o'z tuyg'ularini ayta olmaydigan, lekin yuragida doimiy faryod chekadigan qahramon. Muallif ushbu hikoya orqali jamiyat nogironlarni zaif yoki yuk deb emas, inson deb ko'rish, ularning ichki dunyosini, ruhiy ehtiyojlarini anglashga harakat qilishi kerakligini aytib o'tmoqchi bo'ladi. Chunki har bir inson qaysi holatda bo'lishidan qat'i nazar, sevgi va hurmatga loyiq. Hikoyadagi mana shunday ma'no nozikliklarini o'quvchilarga yetkazib berishda “Blum taksonomiyasi” dan foydalanish ijobiy natija beradi.

“Blum taksonomiyasi” o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qo'yiladigan qator topshiriqlarni

o'quv maqsadlariga muvofiq tarzda: *kognitiv*, *affektiv*, *psixomotor* yo'nalishlarida tasniflashni nazarda tutadi. Ta'lim maqsadining bu uch yo'nalishini oddiyroq qilib *"bilaman"*, *"his qilaman"* va *"yarataman"* so'zlari bilan ifodalash mumkin. Bu milliy ta'lim amaliyotida bugungi dars jarayonida ko'zda tutilgan: *ta'limiy*, *tarbiyaviy*, *yo'naltiruvchi* va *rivojlantiruvchi* maqsadlarga erishishda yangicha yondashuv sifatida qabul qilish mumkin [1: 354].

"Blum taksonomiyasi" (Benjamin Bloom, 1956) ta'limiy maqsadlarni quyidagi olti bosqich asosida belgilaydi:

1. Bilish (Knowledge)
2. Tushunish (Comprehension)
3. Qo'llash (Application)
4. Tahlil (Analysis)
5. Sintez (Synthesis)
6. Baholash (Evaluation)

Har bir bosqich o'quvchilarning intellektual faoliyatini asta-sekin rivojlantirishni maqsad qiladi [5: 88].

Dars jarayonini "Blum taksonomiyasi" asosida tashkil etish.

"Blum taksonomiyasi" darajalari	Tafakkur darajasiga muvofiq savol-topshiriqlar namunalari
Bilish bosqichi – o'quvchilardan yozuvchi va hikoya haqida asosiy ma'lumotlarni eslab aytilishlarini so'rash. Hikoya qahramonlari va asosiy voqealarini qayta tiklash.	1. Rabindranat Tagor kim? 2. "Shubxa" hikoyasining asosiy personajlari kimlar? 3. Hikoyada voqealar qayerda kechadi? 4. Asarda bosh obrazga qanday g'oyaviy mazmun yuklangan? 5. Siz hikoyani qanday nomlagan bo'lar edingiz?
Tushunish bosqichi – o'quvchilar hikoyaning asosiy mazmunini anglab, uni qisqacha bayon qiladilar. Voqealar rivojini tushuntirib beradilar.	1. Shubxa qanday qahramon? 2. Uning hayotidagi qiyinchiliklar nimalardan iborat? 3. Shubxaning jamiyatga va tabiatga munosabati qanday? 4. Nega muallif qahramoniga aynan "Shubxa" ismini bergan deb o'ylaysiz? 5. Shubxaning gapira olmasligi uning ichki dunyosiga qanday ta'sir qilgan? Misollar bilan tushuntiring.
Qo'llash bosqichi – hikoyada uchraydigan holatlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish. Nogiron insonlarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida kichik hikoya yoki sahna tayyorlash.	1. Agar siz Shubxaning o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz? Zamonaviy davr sharoitida Shubxaga qanday imkoniyatlar yaratilgan bo'lardi? 2. Hikoya bosh qahramoni bilan xayolan suhbatlashing. Unga nimalar degan bo'lar edingiz? 3. Hikoyadagi voqeani hozirgi maktab hayotiga moslab qisqa sahna ko'rinishi yozing.
Tahlil bosqichi – hikoyaning ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini tahlil qilish. Shubxaning jamiyatdagi o'ni va insonlar munosabati sabablarini muhokama qilish.	1. Nima uchun odamlar Shubxani qadrlamagan? 2. Hikoyadagi asosiy muammo nimada? 3. Hikoyaning tabiat tasvirlari qanday ma'no anglatadi? 4. Hikoya syujetida ota-onaning farzandga munosabati qanday tasvirlangan? 5. Jamiyat va oilaning bunday yondashuvi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? 6. Shubxaning jimligi va ichki iztirobi hikoyada qanday badiiy vositalar orqali ifodalangan?
Sintez bosqichi – o'quvchilar hikoyaning muqobil yakunini yozadilar. Yangi obrazlar kiritib, hikoyaning davomini o'ylab topishadi.	1. Sizningcha, Shubxaning taqdiri qanday yakun topishi kerak edi? Muallifning yakunini siz qanday baholaysiz? 2. Hikoyaning zamonaviy jamiyatga qanday tarbiyaviy ta'siri bor? Bugungi yoshlar uchun qanday saboq beradi? 3. Shubxa hayotining baxtli yakun topgan versiyasini yozing.
Baholash bosqichi – o'quvchilar hikoyaning g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyatini baholaydilar. Hikoya jamiyat uchun qanday saboq berishini muhokama qilishadi.	1. Sizningcha, bu hikoyada eng muhim g'oya nima? 2. Hikoya sizni nima haqida o'ylashga undadi? 3. Nogiron insonlarga qanday munosabatda bo'lish kerak deb hisoblaysiz?

"Shubxa" hikoyasini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" asosidagi yondashuv o'quvchilarda nafaqat matnni o'qish va tushunish ko'nikmalarini, balki tahlil, ijodiy fikrlash, ijtimoiy muammolarni anglash va insoniy qadriyatlarni qadrlash

ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur metodika dars jarayonini samarali va ta'sirchan tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning ruhiy-axloqiy tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020.
2. Narzullayev K. Zamonaviy ta'lim jarayonlarida "Blum taksonomiyasi". // Oriens, 2025. Volume 3 Issue 1.
3. Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Vayisova D. "Shubxa" hikoyasida nogiron qiz kechinmalarining ifodalanishi. // Central asian journal of education and innovation, 2023. Volume 2, Issue 6.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka). – Toshkent: Fan ziyosi, 2020.

Umid HAMROYEV,

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti, mustaqil tadqiqotchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

MAKTABDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (5-sinf "Ona tili" darsligi misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinfda fe'l so'z turkumini o'qitishga doir dastlabki tushunchalar hosil qilish, morfologik kompetensiyani shakllantirish, shuningdek, harakat va holat fe'llarini, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni, fe'l zamonlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-metodik jihatdan asoslangan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, tinglab tushunish, yozish savodxonligi, gapirish savodxonligi, fe'l.

Annotation. This article analyzes the specific features of teaching verbs in the 5th grade, including the formation of initial concepts, the formation of morphological competence, and the teaching of verbs of action and state, participial and intransitive verbs, and verb tenses, based on scientific and methodological grounds.

Keywords: reading literacy, listening comprehension, writing literacy, speaking literacy, verb.

Аннотация. В статье на научно-методической основе анализируются особенности обучения глаголам в 5 классе, в том числе формирование начальных понятий, формирование морфологической компетенции, обучение глаголам действия и состояния, причастным и непереходным глаголам, временам глаголов.

Ключевые слова: грамотность чтения, понимание на слух, грамотность письма, грамотность устной речи, глагол.

O'quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda to'g'ri ifodalashga o'rgatish uchun ona tili ta'limining mazmunini tubdan yangilash, o'quv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi Bunda, tabiiyki, ta'lim vositalari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yangi Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan ona tili darsliklarida o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish asos qilib olindi. Ona tili (o'zbek tili) faniga oid malaka va ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, fanga shunchaki o'quv predmeti sifatida qaralmaydi. U borliqni (tabiat, jamiyat, fanlar), o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantiriladi. O'quvchi fanni o'zlashtirish jarayonida tildan turli ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri va o'rinli foydalanishni o'rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o'zlashtirishda esa til omilini his qiladi. Muayyan soha mutaxassisiga aylanganida maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanib o'zbek tilida ish yuritish, nutq so'zlash, turli uslublarda yoza olish, qarashlarini erkin ifodalagan holda fikrini boshqalarga turli shakllarda samarali tarzda yetkazishni, eng muhimi, teran fikrlashni biladi [1]. "Ona tili fanidan ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturidagi asosiy o'zgarishlardan biri bu – ona tili ta'limida lingvistikaga oid nazariy bilimlarning nutqiy kompetensiyalar ustida ishlashga yo'naltirilganidir"

[2] deb yozadi 5-sinf darsligi muallifi K.Mavlonova. 5-sinf "Ona tili" darsligini tahlil qilar ekanmiz, nutqiy va lingvistik mavzular o'quvchining yosh xususiyatlariga mos holatda topshiriqlarga singdirib yuborilganini bildik. O'quvchilar lingvistik bilimga ega bo'lishlari uchun eng avvalo 4 ta ko'nikmani egallashi kerak:

1. O'qish savodxonligi – ta'lim oluvchining turli uslub (ilmiy, badiiy, so'zlashuv, publitsistik, rasmiy)dagi yozma matnlarni anglash, tahlil qilish, baholash va ularga javob qaytarish qobiliyati. Bu jarayon faqatgina harflarni to'g'ri o'qish emas, balki o'qilgan axborotni ongli ravishda qayta ishlash, tushunish va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olishni o'z ichiga oladi.

2. Tinglab tushunish – o'quvchining dars jarayonida eshitgan hikoya, she'r, ilmiy yoki boshqa turdagi nutqiy axborot yoki ma'lumotni qabul qilish, uni qayta ishlash, interpretatsiya qilish va anglash jarayonidir. U kognitiv (ongli) faoliyatning muhim bir qismi sifatida matnni tushunish va u asosida berilgan topshiriqlarga mos ravishda fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Yozish savodxonligi – shaxsning o'z fikr-mulohazalari, hayotiy vaziyatlari va ko'nikmalarini mantiqiy, sodda va ravon, jamiyatning barcha a'zolari uchun tushunarli bo'lgan yozma shaklda ifoda etish qobiliyati.

4. Gapirish savodxonligi – insonning o'z fikr mulohazalari, his-tuyg'u va orzu-o'ylari, qalbida kechayotgan

kechinmalarini og'zaki nutq orqali aniq, ravon, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda adabiy til qonun-qoidalari asosida so'zlash qobiliyati.

Bu to'rt ko'nikma to'la shakllanishi va rivojlanishi uchun o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalar (fonetika, leksikologiya, imlo, so'z yasalishi, morfemika, morfologiya, sintaksis, tinish belgilari va uslubiyat)ga oid bilim bo'lishi kerak. Shu ma'noda "Ona tili" darsliklari mavzular o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarda o'z fikrini mustaqil va savodli bayon etadigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. O'quvchilar ma'lum bir matnni o'qiganda, yozganda, tinglaganda, gapirish jarayonida ko'proq qaysi til birliklardan foydalanishiga ko'ra lingvistik mavzular mashqlarga singdirib yuborilgan. Bu mavzular turli topshiriq, diagramma, jadval va infografikalar yordamida o'zlashtiriladi.

Milliy o'quv dasturida 5-sinf ona tili fanidan o'quvchilarning morfologiyaga oid bo'lgan lingvistik kompetensiyasining ma'no mundariyasi quyidagi ko'nikma va maqsdlarni o'z ichiga oladi:

- so'zni tarkibiy qismlarga to'g'ri ajratish, asos va qo'shimchalarni, tub va yasama so'zlarni faqlash malakalarini rivojlantirish;

- so'z turkumlarining kontekstdagi ifodasini anglash, ma'nolarini farqlash hamda nutqiy jarayonda to'g'ri qo'llay olish;

- yordamchi so'z turkumlarining bir-birdan farqli tomonlarini tushunish, uslubiy ma'nolarini anglash va nutqda to'g'ri qo'llay bilish;

- nutqiy muloqot jarayonida oraliq so'zlar turkumiga kiruvchi undov va taqlid so'zlarni farqlay olish ko'nikmasini rivojlantirish;

- morfologiyaga oid birliklarni o'rgatish jarayonida asos va qo'shimchaslar imlosi, chiziqcha bilan yozish, qo'shib yozish, ajratib yozish, bosh harflar, bo'g'in ko'chirish kabi lingvistik bilimlarni mustahkamlash;

- vergul, nuqta kabi tinish belgilari, morfologiya mavzularini o'rganish va ulardan to'g'ri foydalanish malakalarini oshirish.

Dunyo til ta'limi nazariyasida lingvistik kompetensiyalar sirasida so'z turkumlari tasnifi, so'zning leksik va grammatik ma'nolari, morfologik shakllari va kategoriyalariga doir yuksak bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyi bo'lgan morfologik kompetensiyaning muhim ilmiy-nazariy va amaliy-ta'limiy ahamiyatga egaligi e'tirof etilgan. Morfologik kompetensiya o'quvchilarning nafaqat morfologiyaga oid, balki fonetik, leksik, morfemik, sintaktik, uslubiy kompetensiyalarini aloqadorlik, bog'liqlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida mukammallashtiruvchi, ularda faol ijodiy, mustaqil, tanqidiy fikrlash, izlanuvchanlik sifatlarini shakllantiruvchi mohiyatga egaligi bilan tavsiflanadi. Shuni nazarda tutgan holda ona tilini o'qitish jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishning ilmiy-metodik tizimi va zamonaviy texnologiyalarini yaratish kun tartibiga qo'yilgan [2].

Morfologiyaga oid bilimlar 5-sinf "Ona tili" darsligida "O'zbekiston Vatanim manim" bobida morfologiyaga oid "Atoqli otlar", "So'z tarkibi", "Fe'l", "Harakat-holat fe'llari" mavzulari doirasida o'zlashtiriladi.

1-topshiriq. Quyida berilgan jadvalda yurtimizdagi joy nomlari keltirilgan. Bo'sh o'rinlarini to'ldirib, ularni ko'chiring. Har bir so'zning to'g'ri yozilishi va talaffuzini mashq qiling [3]. "Alifbo tartibida" usulidan faoydalanilgan.

Andijon	B	Do'ngqishloq	Egizqum	F
G	Hazorasp	Izboskan	J	Kosonsoy
Langartepa	Muzrobot	N	Olmalik	Parkent
Q	Rishton	S	Tomdi	U
Vobkent	X	Yangiyo'l	Zarafshon	O'rtasaroy
G'ijduvon	Shahrisabz	Ch	Mingbuloq	Ellikqal'a

Ushbu topshiriq orqali o'quvchilarda joy nomlari bosh harf bilan yozilishi va orfoepik qoidalar asosida talaffuz qilinishi haqidagi BKMlar shakllanadi, hayotiy ko'nikma, ya'ni O'zbekiston hududida joylashgan nomlar haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Joy nomlarini kiritish orqali yozish malakasi shakllanadi.

2-topshiriq. "Changqovuz" matnidagi yasama so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish.

Yasama so'zlar	
pochta+chi	ko'z+oynak
o'g'ri+la	

Ushbu topshiriq orqali o'quvchilarda so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, yangi so'zlar hosil qilish malakalari shakllanadi. Ularga yangi so'zlar tilning lug'at

boyligini oshirishda ichki manba sifatida xizmat qilishi haqidagi bilimlar singdiriladi.

Morfologiyani o'rganish jarayoni so'z boyligini o'zlashtirish, so'z yasashi hamda so'z-tushunchalarning mantiqiy tasnifiga oid topshiriqlarni bajarish bilan uyg'un holda olib borilishi kerak. O'quvchilar lingvistik qoidalarni o'rganishi, ilmiy, publitsistik, badiiy so'zlashuv va rasmiy matnlarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishi va rivojlantirishi kerak.

4-topshiriq. Bo'sh o'rinlarga fe'llarni qo'yib, matnni ko'chiring. Fe'llarning nutqimizdagi o'рни haqida fikr yuriting.

Bir tezuchar kabutar bor ekan. U juda uzoq-uzoqlarga ... ekan. Kunlardan bir kuni bir podsho uni va qafasga (Qafas juda chiroyli ekan. Kabutarga don va suv Lekin kabutar donni ..., suvdan Chunki u juda xafa ekan. Ko'zlarini ..., osmonda maza qilib ... kunlarini eslab, ...). Falakning gardishi bilan bechora qush ko'p yillar qafasda Bir kuni (qafasning eshigi ochiq qolgan ekan) kabutar (paytdan foydalanib) U osmonga ..., xursand bo'lganidan gir-gir Keyin o'z uyi tomon Kabutar bir necha kunlik yo'lni birpasda Uyiga Qarasa, uychasi buzilib, vayron bo'lgan ekan. Kabutar qattiq Ammo qaytib podshohnikiga "Podshohning qafasida nima qilaman? U yer menga begona. Bu yer esa buzilgan, vayrona bo'lsa ham, o'z uyimdir", – deb uyini tuzatishga kirishibdi [3: 26].

Qo'yish lozim bo'lgan fe'llar: *uchib yurar, tutib olibdi, solib qo'yibdi, berishibdi, yemabdi, ichmabdi, qiynalibdi, uchib ketibdi, ko'tarilib, aylanibdi-da, uchib ketibdi, bosib o'tib, yetib kelibdi, xafa bo'libdi, bormabdi.*

Ushbu topshiriq orqali o'quvchilarda fe'llarni ma'nosiga qarab o'rniga qo'yish malakasi rivojlantiriladi, ularning esa so'z boyligi oshadi.

5-topshiriq. Berilgan fe'llarni ikki guruhga ajratib yozing. Harakat va holat fe'llarini aniqlang va quyidagi jadvalga joylashtiring.

yayramoq, quvonmoq, bilmoq, ulashmoq, parvarishlamoq, ochilmoq, xursand bo'lmoq, boshlamoq, ekmoq, solmoq, quymoq, aylanmoq, hayron qolmoq, eplamoq, hayratlanmoq, yozmoq, yugurmoq, sarg'aymoq, xafa bo'lmoq, gaplashmoq, qimirlamoq, qizarmoq, yasamoq, ikkilanmoq, hayratlanmoq [3: 27–28].

Harakat fe'llari	Holat fe'llari
ekmoq	yayramoq

O'quvchilar fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat va holat fe'llariga bo'linishi haqidagi bilimga ega bo'lishadi.


"Fan va texnologiyalar" bo'limida o'quvchilar "Fe'l zamonlari o'tgan, hozirgi, kelasi shakllarga bo'linishi va bo'lishsiz fe'llarga ajralishi haqida bilimga ega bo'lishlari uchun topshiriqlar ishlab chiqilgan.

6-topshiriq. Quyida berilgan fe'llarning qaysi biri *-ma, -mayin, -may, -masdan, mas* qo'shimchalarini olib bo'lishsiz fe'lga aylanadi? Qaysi biri aylanmaydi? Quyidagi jadvalga joylashtiring.

Berilgan fe'llar	Bo'lishsiz fe'lga aylanmaydigan fe'llar	Bo'lishsiz fe'llar
o'ynamoq, ixtiro qilingan, ko'rib beramiz, so'zlab beribdi, o'rganmoq, uchratyapsiz, paydo bo'lib, kashf etilgan edi, qizidi, tasavvur qilish, tarjima qilmoqchi, sovib qolibdi, bag'ishladilar	tarjima qilmoqchi	o'yna+ma, ixtiro qilmagan, so'zlab bermabdi, o'rganmagan, uchratmayapsiz, paydo bo'lmay, kashf etilmagan edi, qizimadi, tasavvur qilmaslik, sovib qolmabdi, bag'ishlamadilar [3: 60]

Bu kabi topshiriqlar vositasida o'quvchilar fe'lning bo'lishsiz shaklini qachon va qay paytda, qanday sharoitda qo'llashga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

"Til va dil" bo'limida fe'llarning zamon shakllari haqidagi lingvistik bilimlar mustahkamlanadi, nutqiy muloqot va boshqa jarayonlarda undan foydalanish ko'nikma va malakalar rivojlanadi. Harakat va holat nutq so'zlanayotgan paytda, undan oldin yoki keyin sodir bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra fe'l zamonlari uch turga bo'linadi:



Ba'zan bir zamon qo'shimchasi boshqa zamonni ifodalashi mumkin. Masalan: *Ertaga buvimnikiga ketyapman*. Bu gapda hozirgi zamon qo'shimchasi (-yap) kelasi zamonni ifodalaydi.

7-toshiriq. **Tushirib qoldirilgan fe'llarni qo'yib, gaplarni daftaringizga ko'chiring.**

1. Konstitutsiyani "hayotimiz xaritasi" deb ...
2. Teleko'rsatuvlar orqali huquqiy savodxonlikka oid dasturlarni ko'p bora ...
3. Asosiy qonunimizning 50-moddasida yoshlarning bepul ta'lim olishi qat'iy ...

4. Tengdoshlarimga ham konstitutsiyani nafaqat o'qib, balki uqib o'rganishlarini ...

5-sinf ona tili darsligidagi mavzular til xususiyatlari va qonuniyatlarini soddadan murakkabga tomon, amalda qo'llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'rgatishga asoslangan. 6-sinfda esa fe'l so'z turkumiga oid bilimlar shu tartibda berilgan. Fe'lni o'qitishga doir xulosalarimizni quyidagi jadvalda aks ettirdik:

Maqsad: 5-sinfda o'quvchilarning fe'l so'z turkumini o'zlashtirish va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish (kognitiv yondashuv asosida)				
Fe'l turkumini o'qitishda o'quvchilarda hosil qilinadigan lingvistik kompetensiya				
O'rganish bilan bog'liq faoliyat	Fe'llarning nimani atab kelishiga ko'ra turlarini bilib olish	Harakat va holatbajarish yoki majarimaslik haqidagi faoliyatni anglash	Fe'llarning zamon shakllariga oid bilimlarga ega bo'lish	
O'quvchilarning fe'l so'z turkumi yuzasidan hosil qilgan kompetensiyalarni o'zlashtirish bosqichlari				
Fe'l so'z turkumi yuzasidan dastlabki nazariy bilimlarga ega bo'lish				
Fe'l va uning so'rog'i, harakat va holat fe'llari , bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar va zamon shakllarining nutqiy jarayonda qo'llanishi haqidagi malaka va kompetensiyalarni shakllantirish				
Fe'l mavzusida o'zlashtirilgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini rivojlantirish (kognitiv-pragmatik yondashuv)				
	Yondashuvlar	Tamoyillar	Vositalar	
O'quv metodik jarayon	kognitiv- pragmatik , tizimli kommunikativ kritik-kreativ	uzviylik va uzluksiz spiralsimon soddalik – murakkablik qiyoslash taqqoslash	darslik o'quv qo'llanmalar slaydlar jadval AKT va boshqalar	
Fe'l so'z turkumiga oid kognitiv pragmatik jihatdan o'quvchida rivojlangan kompetensiyalar				
Natija	Fe'l va uning ma'nolarini, zamoni, bo'lishli bo'lishsizligini farqlay olish va idrok etish	Nutq jarayonida fe'l turkumiga oid lingvistik bilimlarni qo'llay olish va tafakkur dunyosining rivojlanganini aniqlash	Turli uslubdagi matnlarda berilgan fe'llarni ajratib, ma'noviy tomonlarini tahli qila olish	Fikrni og'zaki va yozma shakllarda ifodalash jarayonida eng kerakli fe'llardan foydalana olish kompetensiyasini rivojlantirish

Xulosa o'rnida ta'kidlamoqchimizki, ona tili ta'limida malaka talablarida ko'rsatilgan ko'nikma va malakalarni egallash uchun nutqiy mavzu doirasida qaysi grammatik va til sathlari bo'yicha bilim zarur bo'lsa, shundan o'quvchining

yosh xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalaniilgan. Ketma-ketlik hisobga olinmagan. Bir mavzuga qayta-qayta murojaat qilinishi va uning doimiy murakkablashib borishiga e'tibor qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy o'quv dasturi. Ona tili. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
2. Abdurasulova U. Ona tili ta'limida o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss. avtoref... – Namangan, 2020.
3. Mavlonova K.M., Qo'ldosheva S.H., Hakimova N.S., Siddiqov M. R. Ona tili. 5-sinf darslik I qism. – Toshkent: Novda Edutainment. 2024 – 160 b.

Xurshid ASROROV,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini aniqlash va shu asosda ta'lim mazmunini takomillashtirish vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, baholash, ko'nikma va malaka, innovatsion, o'quv materiali, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, ta'lim standartlari, intellektual, kreativ, baholash funksiyasi.

Annotation. The article discusses the tasks of assessing students' mastery of educational and methodological materials based on a competency-based approach, determining their compliance with the requirements of state educational standards, and improving the content of education on this basis.

Keywords: competency-based approach, certification, skills and qualifications, innovative, educational material, indicators of skill, educational standards, intellectual, creative, evaluation function.

Аннотация. В статье рассматриваются задачи оценки уровня освоения обучающимися учебно-методических материалов на основе компетентного подхода, определения их соответствия требованиям государственных образовательных стандартов и совершенствования содержания образования на этой основе.

Ключевые слова: компетентный подход, аттестация, умения и квалификации, инновационный, учебный материал, показатели мастерства, образовательные стандарты, интеллектуальный, творческий, оценочная функция.

O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirish samaradorligi oshirish uchun tahlil qilish va xulosalar chiqarish, o'quvchilar erishgan ta'lim natijalari (Learning outcomes) to'g'risida ma'lumot olishga imkoniyatini taqdim etuvchi tizim – baholashdir. Umumiy o'rta ta'limda kompetensiyaga asoslangan baholash texnologiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilar tayyorgarligining ko'p qirraliligini aniqlashga imkon beradi, an'anaviy bilim va ko'nikmalardan tashqari, baholash jarayonida pedagogik o'lchovning o'zgaruvchilari sifatida qaraladigan ma'lum psixologik, pedagogik va kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilganligini aks ettiruvchi tayyorgarlikning ushbu psixologik va pedagogik xususiyatlari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va ta'lim yutuqlari sifatini ko'p o'lchovda baholaydi.

O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash vositalari yoki testlar bilan o'lchanadigan eng keng tarqalgan o'zgaruvchi – tayyorgarlik darajasi, ya'ni bilim, ko'nikma va qobiliyatlar darajasidir. Biroq bu ko'rsatkich odatda o'quvchilarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni to'la aks ettirmaydi. Ushbu daraja bir o'lchovli tabiati sababli integratsiyalashgan fanlararo bilimlarga kam e'tibor qaratadi va o'quvchilarning kompetensiyalar rivojlanish darajasini, jumladan, o'rganish qobiliyatini, tahlil va

sintez qilish ko'nikmalarini, bilim va imkoniyatlarini yangi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini hamda yangi g'oyalarni yaratish kabi komponentlarni aks ettirmaydi.

Kompetensiyaviy yondashuvda o'qitish mazmuni, ta'lim muhiti va yangi innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali shakllanadi va rivojlanadi. Chunonchi, ijodiy faoliyat elementlari keng mutaxassisni tayyorlashga, aniq maxsus bilimlarning yetishmasligi va ushbu sinf muammolarini hal qilishda algoritmlarning yetishmasligi bilan bog'liq muammolarga yechim izlashga yordam beradi. O'quvchining ijodiy xususiyatlari faqat kvazireal faoliyatini modellashtirish jarayonida shakllanishi mumkin, bu esa bilimlarni uzatish, kombinatsiyalar, faoliyat usullarini o'zgartirish va boshqa ijodiy protseduralarni talab qiladigan yangi muammolarga yechim topishni talab qiladi.

Ta'lim jarayonida har qanday faoliyat individualdir, chunki o'qitish va bilim egallash mustaqil jarayon bo'lib, o'quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish orqali olingan bilim, ko'nikma va malaka sifatini baholashni yangi innovatsion metodik jihatdan qayta qurishni talab qiladi. Bunday metodik qayta qurish besh balli shkala bo'yicha an'anaviy ekspert bahosini rad etishni va o'quvchilarning ta'lim yutuqlari sifatini ko'p o'lchovli bashorat qilingan baholashni ta'minlaydigan nazorat va baholashga pedagogik o'lchovlarni kiritishni taqozo qiladi. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq kelishi ta'lim

jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik baholash maxsus o'qitish usullari orqali erishilgan va o'quvchining nostandart ta'lim muammolarini hal qilish imkoniyatlarini tavsiflovchi ma'lum bir aqliy va shaxsiy fazilatlarini qamrab oladi. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini obyektiv baholashda quyidagi komponentlar muhim ahamiyatga ega:

- bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatga tez va qisqa muddatlarda tatbiq etish, fanlararo aloqani mustaqil ravishda yo'lga qo'yish;

- an'anaviy va real vaziyatda yangi muammoni ko'ra olish;

- muammoni mustaqil ravishda hal qilishda alternativlarni ko'rib chiqish;

- yangi muammoni hal qilishda ilgari ma'lum bo'lgan faoliyat usullarini birlashtirish va o'zgartirish.

Bunday komponentlarni o'lchash uchun na an'anaviy imtihonlar, na standartlashtirilgan pedagogik testlar mos kelmaydi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini aniqlash asosan intizomiy va fanlararo bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga va ta'lim mazmunida aks etgan ko'nikma va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan.

Demak, ta'lim natijalari (Learning outcomes) subyektiv va individual xarakterga ega ekanligini inobatga olgan holda baholash haqida umumiy tushunchalarni berib o'tamiz.

Baho – pedagogik, falsafiy hamda psixologik mohiyat kasb etib, o'quvchi faoliyati, xulqiga bo'lgan tashqi va ichki munosabatni ifodalaydi. Obyektiv hamda subyektiv xarakterga ega. Baho yordamida talabaning xulq-atvori va o'zlashtirish darajasi muayyan talab va axloq meyorlariga qay darajada mos kelishi aniqlanadi.

Baholash – deganda ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalarni o'quv dasturlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablari bilan solishtirish orqali erishilgan darajani aniqlash tushuniladi. Baholashda o'quvchi bilimi, ko'nikmasi va malakasi hamda kompetensiyalarni egallaganlik darajalari aniqlanadi.

Baholash – bu o'qitish yutuqlari va muammolarini o'lchashning, qayta aloqani amalga oshirishning, ta'lim jarayoni ishtirokchilari (davlat-o'qituvchi-o'quvchi- otanalar) ta'lim mazmunining o'zlashtirish holati, muammolari va davlat ta'lim standartlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berishning asosiy vositasidir.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida fanlar davlat ta'lim standartiga asoslangan holda quyidagi bosqichlarda o'rganiladi:

Standart darajalar	Darajalarning nomlanishi
A1	umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darajasi
A1+	umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi

A2	umumta'lim fanlarini o'rganishning tayanch darajasi
A2+	umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	umumta'lim fanlarini o'rganishning umumiy darajasi
B1+	umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Davlat ta'lim standartlariga asosan umumta'lim fanlarini o'rganish bosqichlari

Ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish belgilangan:

- kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish;

- axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish;

- o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallash;

- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi;

- milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalariga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish;

- matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot ishimiz obykti va predmetidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, umumiy o'rta ta'lim mazmunida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita kundalik hayotida qo'llashga

o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga tadbqiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 17-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 406-sonli buyrug'i.
3. Safarova R.G'. Pedagogika. Ensiklopediya (2jild). – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
4. Белашов П.Д. Сущность понятия «компетенция» и «компетентность» в научной литературе // XXI век: итоги прошлого и проблемы настоящего плюс, 2015, №6.
4. Смирнова Ж.В., Красикова О.Г. Современные средства и технологии оценивания результатов обучения. Том 6. Минск: Вестник Мининского университета, 2018.